

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI JIZZAX FILIALI

SALOXITDINOV SHERZOD FARXODOVICH

**OLIY TA’LIM XIZMATLARI SIFATINI BAHOLASHNING
ZAMONAVIY KONSEPSIYALARI VA INNOVATSION
MEXANIZMLARI: MILLIY VA XALQARO TAJRIBANI
TAQQOSLAMALI TAHLIL QILISH ASOSIDA
TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI**

MONOGRAFIYA

JIZZAX -2026

UDK: 331.2 (575.1)

KBK: 74.58

S 25

Saloxitdinov, Sh.F. Oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholashning zamonaviy konsepsiyalari va innovatsion mexanizmlari: milliy va xalqaro tajribani taqqoslamali tahlil qilish asosida takomillashtirish yo'nalishlari [Matn] / Sh.F. Saloxitdinov ; muharrir M.P. Soy.- Jizzax: D-Press Services , 2026.- 124 b.

Mazkur monografiyada oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash tizimining rivojlanishi, uning zamonaviy talablarga mos shakllanishi va jahon tajribasida qo'llanilayotgan ilg'or yondashuvlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda oliy ta'lim xizmatlari sifatini oshirishga qaratilgan nazorat mexanizmlari, indikatorlar va baholash metodologiyalari o'rganilib, ularning milliy ta'lim tizimiga moslashtirilishi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Monografiya oliy ta'lim muassasalari rahbarlari, ta'lim sifatini boshqarish bo'yicha mutaxassislar va ilmiy tadqiqotchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda muhim qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Monografiyada berilgan ilmiy yondashuvlar va takliflar ta'lim tizimining raqobatbardoshligini oshirish hamda xalqaro miqyosda integratsiya jarayonlarini jadallashtirishda katta ahamiyatga ega. Mazkur ilmiy kitob iqtisodchi olimlar, doktorantlar, ilmiy tadqiqotchilar va professor-o'qituvchilar uchun mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

Hakimov H. — TDIU — iqtisod fanlari doktori dotsent;

Muxtarov B. A. — O'zMU Jizzax filiali — Iqtisodiyot va turizm kafedrası dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi.

Ushbu monografiya Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti Jizzax filiali 2025-yil 25-oktyabrdagi 8-sonli Ilmiy-texnik kengashining qarori bilan chop etishga tavsiya etilgan.

ISBN: 978-9910-8598-3-0

© Sh.F. Saloxitdinov, 2026

© “D-Press services” nashriyoti, 2026

KIRISH

Jahonda oliy ta'lim tizimi yuqori malakali kadrlar tayyorlashga mas'ul soha sifatida iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan biri bo'lishi sharoitida oliy ta'lim xizmatlari sifatini muntazam baholashga ko'ra o'zini o'zi tizimli ravishda takomillashtirib borishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. "Ta'lim xizmatlari xalqaro bozorining hajmi 100 mlrd. AQSh dollarni tashkil etmoqda. «Inson kapitali» dunyo milliy boyligining 64 foizini tashkil etib, bu ko'rsatkich rivojlangan mamlakatlarda 70 foiz, o'rta daromadli mamlakatlarda 58 foiz, quyi daromadli mamlakatlarda 41 foizni tashkil etmoqda"¹. Bugungi kunda iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish va aholining turmush darajasi sifatini oshirishda kadrlar tayyorlash sohalari, ayniqsa oliy ta'lim sifati, ta'limni tashkil etishning zamonaviy usullarini keng joriy qilish, ta'lim xizmatlari bozorini maqsadli va samarali rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda oliy ta'lim xizmatlari sifatini boshqarish va baholash tizimlari samaradorligi hamda zamonaviy va istiqbol talabalariga muvofiq tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish bo'yicha amalga oshirilayotgan tadqiqotlarga ustuvor darajada qaralmoqda. Bu borada OTM xizmatlari sifatini baholash tizimini mehnat bozori talablariga moslashtirish, kadrlar raqobatbardoshligi va ta'lim xizmatlari samaradorligini ta'minlashning uslubiy asoslarini takomillashtirish, innovatsion rivojlanish sharoitida oliy ta'lim xizmatlari sifati va samaradorligini samarali boshqarish kabi mavzularga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yangi O'zbekistonda oliy ta'lim sifatini tubdan oshirish, mehnat bozori talablariga muvofiq holda yuqori malakali kadrlar tayyorlash, tizimga samarali boshqaruv usullarini joriy etish va moddiy-texnik bazani zamonaviy talablar asosida mustahkamlash kabilar yuzasidan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. "Oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta'lim sifatini oshirish, kadrlar

¹ <https://cyberleninka.ru/article/n/mirovoy-rynok-obrazovatelnyh-uslug-vysshey-shkoly>; <http://www.m-economy.ru/art.php?nArtId=3649>

buyurtmachilari takliflari asosida qabul parametrlarini oshirish, to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilish parametrlarini oliy ta'lim muassasalari tomonidan mustaqil belgilash, 2026 yilda qabul ko'rsatkichini kamida 250 mingga yetkazish belgilangan. Davlat oliy ta'lim muassasalariga akademik va moliyaviy mustaqillik berish, shu jumladan ular tomonidan mehnatga haq to'lash, xodimlar soni, to'lov-kontrakt miqdori va ta'lim shaklini mustaqil belgilash amaliyotini yo'lga qo'yish" belgilangan. Bu vazifalarni bajarishda mehnat bozorining talablariga muvofiq holda oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash yondashuvlarini takomillashtirish, ta'lim va iqtisodiyot tarmoqlarining o'zaro aloqalarini samarali tashkil qilish, sohani tashkiliy-iqtisodiy va me'yoriy jihatdan samarali boshqarish kabi mavzudagi tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish maqsadga muvofiq².

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2019 yil 11 iyuldagi PF-5763-son «Oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida», 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi farmonlari³ hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur Monografiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash tizimini rivojlanishining ilmiy asoslarini yaratish bo'yicha jahonning yirik tadqiqotchilari, jumladan, xorij olimlaridan⁴ U.Peti, A.Smit, D.Rikardo, J.M.Keyns,

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvar, PF-60-son 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son).

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2019 yil 11 iyuldagi PF-5763-son «Oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida», 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi farmon

⁴Пети У., Смит А., Рикардо Д., Кейнс Дж., Фридмен М. Классика экономической мысли. Соч. – М.: ЭКСИМО-Пресс, 2000; Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. – М.: Соцэкгиз, 1962; Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег / Пер. СА нгл. проф. Н.Н.Любимова, под. ред. д.э.н., проф. Л.П.Куракова. – М.: МИЭМП, 2010; Regional labour markets. Analytical contributions and cross-national

F.Kotlyar, Y.A.Shumpeter, P.Porter, P.Druker va boshqalar tomonidan tizimli tadqiqotlar amalga oshirilgan.

MDH olimlaridan⁵ A.Anchishkin, V.Jamin, V.Zuev, Y.Odegov, L.Y.Rubina, Y.A.Shevchenko, M.A.Lukashenko, L.V.Zaxarova, A.Rofe, Gretchenko A.I. va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

O'zbekistonda ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, uning sifati, samaradorligini baholash tizimini takomillashtirish tadqiqotiga mahalliy olimlardan⁶ ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish S.S.Gulyamov, Q.X.Abduraxmonov, B.N. Navro'z-zoda, M.Q.Pardaev, M.M.Muxammedov, L.V.Peregudov, M.X.Saidov, ta'lim xizmatlari sohasida marketing tadqiqotlari muammolari G.Axunova, S.Turg'unov, E.T.Odilov va boshqalarning ishlari bag'ishlangan.

Ta'lim tizimi va mehnat bozorining rivojlanishi tadqiqotlari B.X.Umurzaqov O.Q.Abduraxmonov, X.Ibragimov, B.Sh.Safarov, oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslarni boshqarish mexanizmini

comparisons.Ed. by. M.Fischer and P.Nijkamp. - Elsevier Science Publishing Co, 1987.-500 p.; КотлярФ. Основымаркетинга. – М.: Изд. Дело, 2006; Шумпетер Й. Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия [Текст]/ Й. Шумпетер: пер. с англ. предисл. В.С. Автономова. – М.: ЭКСМО, 2007. – 864 с.; Портер М. Конкуренция / Пер. с англ. – М.: ИД «Вильямс», 2005 г. – 682-стр.; Друкер П. Бизнес и инновации[Текст] / П. Друкер: пер. с англ. – М.: Вильямс, 2007. - 350 с.;

⁵Шевченко Ю.А. Маркетинговые стратегии ценообразования в вузе // Практический маркетинг. 2002. № 10 (68). С. 25-32; Лукашенко М.А. Высшее учебное заведение на рынке образовательных услуг: актуальные проблемы управления. – М.: Изд. Маркет ДС, 2003. - 358 с.; Захарова Л.В. Формирование и развитие образовательных услуг: автореф. дисс. канд. экон. наук / Белград. 2002; Гретченко А.И. Болонский процесс: интеграция России в европейское в мировое образовательное пространство // А.И. Гретченко, А.А. Гретченко. — М. :Кронус, 2009.

⁶Абдурахманов К.Х., Додобоев Ю.Т., Аллахвердиева Л.М. Современный менеджмент и реформирование системы образования в Узбекистане. Учебное пособие. –Т.: ТГЭУ, РЭА, 2006. 88-89 с.; Navro'zzoda B.N. va voshqalar O'zbekiston oliy ta'lim tizimida sifat ta'minoti: UQASE МОДЕЛИ. – Т: «Xarizma design», 2008. – 245 b.;Pardaev M.Q., Isroilov J.I., G'apparov A.Q. Xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy tahlilni takomillashtirish muammolari. Risola. Samarqand. «Zarafshon», 2009. - 66 b.- 4,1 b.t.; Axunova G. O'zbekistonda ta'lim xizmatlari marketingi muammolari. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti. – Т.: Iqtisod-Moliya, 2005 y. – 244 b.; O.Abduraxmonov. Mehnat bozorini boshqarishda ta'lim tizimining o'rni. i.f.n. dissertatsiyasi. Toshkent 2005 y. 25-30 b. Саидов М.Х. Узбекистан: инвестиции в человеческий капитал, партнерства в сфере образования.-М.: Книжный дом газеты «Труд», 2006.-243 с.; A.A.Maxmudov. Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslarni boshqarish mexanizmini takomillashtirish. // Diss. PhD. – Т.: TDIU. 2019. 20-21-b.; X.Ibragimov. Uzluksiz ta'lim tizimini mazmunan modernizatsiyalash samaradorligini oshirish – davr talabi. Ta'lim muammolari. Ilmiy-uslubiy jurnali. Toshkent 2011 yil 2-son. 9-11 bet.

takomillashtirish masalalari esa Sh.E.Qurbonov, R.H.Asliddinov, A.A.Maxmudov va boshqa olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

Mazkur olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlar shuni ko'rsatadiki, ularning barchasida ta'lim xizmatlari bozorining mohiyati, uning shakllanishini davlat tomonidan tartibga solishning ayrim usullari va ta'lim xizmatlari sifati ko'rsatkichlarini baholashga zamonaviy qarashlarni shakllantirishga yaqindan yordam bergan. Ammo oldingi tadqiqotlarda oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash tizimining rivojlanishini tadqiq va tahlil qilishning tizimli yondashuvi va ekonometrik modellash, vaziyatni tahlil qilish, ma'lumotlarni statistik tahlil qilish kabi zamonaviy uslublarga yetarlicha va atroflicha e'tibor qaratilmagan. Mazkur muammolarning iqtisodiyotni modernizatsiyalashuvi sharoitida ahamiyatliligi va yaxlit holda ilmiy muammo sifatida etarli darajada o'rganilmagan. Bu borada oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash tizimi samaradorligini oshirishning uslubiy yondashuvlarini ishlab chiqish, tizimdagi sifat o'zgarishlarini baholash mezonlarini takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish uchun kadrlar buyurtmachilari takliflarini e'tiborga olgan holda asoslash tadqiqotlar mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Ushbu monografiya bo'yicha takliflaringizni quyidagi elektron pochtaga yuborishingizni so'raymiz: sherzod.saloxitdinov@mail.ru

I BOB. IQTISODIYOTNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA OLIY TA'LIM XIZMATLARI SIFATINI BAHOLASH TIZIMI RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI

1.1-§. Oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash tizimining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, mazmuni va nazariy yondashuvlar

Jahonda globallashuv davri va tezkor axborot almashinuvi jarayonlarining kuchayishi mamlakatlar, kompaniyalar va korporatsiyalar o'rtasidagi keskin raqobat muhiti sharoitida yuqori malakali kadrlarning favqulodda shu holatlarga tayyor bo'lishlarini talab etmoqda. Vaholanki, BMTning 2030 yilgacha Barqaror Rivojlanish Maqsadlarida ta'kidlanganidek, oliy ta'lim jahonda barqaror iqtisodiy o'sishning etakchi omiliga aylanmoqda. Shu tufayli keyingi yillarda yuqori malakali kadrlar tayyorlash sur'ati jahonda saqlanib, 2030 yilga borib, oliy o'quv yurtlari talabalarining prognoz soni 414 million kishiga etadi va u 2000 yilga nisbatan 4,2 barobarga ko'pdir⁷.

Bugun jahonda barcha sohalarda rivojlanish, takomillashish tendensiyasi juda yuqori sur'atda kechmoqda. Bu yurtimiz ta'lim sohasidagi jadal islohotlarda ham o'z ifodasini topmoqda. Ta'lim tizimining rolini oshirishda ta'lim sifatini yuksaltirish, kadrlar salohiyatini oshirish va tizimning moddiy-texnik bazasini zamonaviy talablar asosida mustahkamlash kabilar bilan bir qatorda oliy ta'lim tizimini sifat jihatdan rivojlantirish va uni yanada takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, oliy ta'limni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish maqsadida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi va boshqa bir qator me'yoriy hujjatlar qabul qilindi⁸.

Oliy ta'lim tizimini isloh qilishga qaratilgan islohotlar natijasida respublikada so'nggi 5 yilda oliy ta'lim muassasalari soni 191 taga

⁷ www.unesco.org.

⁸ Saoxitdinov Sh. Oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash tizimi rivojlanishining nazariy yondashuvlari. / Iqtisodiyot va ta'lim / 2023-yil 3-son 405-409 bet. <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/issue/view/26>

etkazildi (2018 yilda 72 ta), ulardan 99 tasi mahalliy hamda 26 tasi xorijiy oliy ta'lim muassasalari va ularning filiallari hisoblanadi. Qabul kvotasi 63 mingdan 282,4 mingtaga oshirildi. Oliy ta'lim muassasalarning moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi. Xorijiy mamlakatlar bilan qo'shma ta'lim dasturlari doirasida 64 ta yangi kasb bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash yo'lga qo'yildi. Professor-o'qituvchilarning maoshi o'rtacha 3,5 baravarga oshirildi⁹.

Bu o'rinda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi yagona davlat siyosatini yuritishda oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash alohida o'rin egallaydi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganidek, «Avvalo ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim»¹⁰.

Bu borada olimlarning nazariy qarashlariga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq. Iqtisodchi olim O.Abduraxmonovning fikricha “Hozirgi sharoitda ijtimoiy rivojlanish istibollari ta'lim tizimining holatiga, uning shaxs va jamiyatning yuqori sifatli ta'lim xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondira olishiga prinsipial jihatdan bog'liq . Bizningcha ta'limsohasi hozirgi jamiyat hayotining iqtisodiy sohasi bilan ayniqsa mustahkam ravishda bog'langandir. Ta'lim faoliyati iqtisodiy rivojlanishning muhim komponenti bo'lib qolmoqda”¹¹.

Oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash va uni takomillashtirish bo'yicha olimlarning fikriga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Akademiklar S.S.Gulyamov Q.X.Abduraxmonov “Oliy ta'limdan kutiladigan xususiy manfaat bu bevosita ta'lim oluvchilar uchundir. Ta'limning iqtisodiy natijalari shakli turlicha, ya'ni natura va pul

⁹ Saloxitdinov Sherzod Farxodovich. Oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash tizimining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, mazmuni va nazariy yondashuvlar / Texnika va raqamli texnologiyalarni amaliyotda qo'llanilishi va ularning innovatsion yechimlari. / Xalqaro ilmiy texnik konferensiya materiallari II qism. Farg'na 2023 yil 4-5 may. 310-312 bet. <https://tatuff.uz/conference-2023/>

¹⁰O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasi, 30.12.2020. <https://review.uz/oz/post/poslanie-prezidenta-uzbekistana-shavkata-mirziyoyeva-oliy-majlisu>

¹¹ Abduraxmonov O. Mehnat bozorini boshqarishda ta'lim tizimiing o'rni. I.f.n. diss...Toshkent. 2005. 30 B.

ko‘rinishida, bevosita va bilvosita bo‘lishi mumkin. Qoidaga ko‘ra, inson qanchalik yuqori darajada ta‘lim olsa, u shunchalik ko‘p oylik maosh oladi (pul ko‘rinishidagi samara), nufuzli ishga kirishda imkoniyati oshadi (pul ko‘rinishida bo‘lmagan samara), ilmiy-texnik taraqqiyot tufayli bo‘layotgan o‘zgarish va yangilanishlarga tezda moslashadi (bilvosita samara).

Zero, barcha samaradorlik (manfaat) son bilan hisoblanmaydi. Shuning uchun ta‘limning tahlilda qo‘llaniladigan iqtisodiy samaradorligining asosiy shakli pul ko‘rinishidagi samaradir xodim(mutaxassis)ning umumta‘limiy va maxsus tayyorgarlik darajasining ortishi natijasida uning oylik maoshining ortishi”ni¹² ta’kidlaydilar.

Mazkur fikrni davom ettirgan olimlarning ko‘rsatishicha ta‘lim “mutaxassislar tayyorlash vositasi bo‘libgina qolmay, u jamiyatning intellektual va texnologik bilim darajasi hamda madaniy saviyasini oshirish, uning innovatsiya va yuksalishga intilishini qo‘llab quvvatlash, jamiyatda zamonaviy yashash tarzini shakllantirishdir. Aynan shu jarayon, ya’ni ta‘lim va undan orttirilgan bilim intellektual kapitalni boyituvchi hamda innovatsiya faoliyatini harakatga keltiruvchi kuch hisoblanadi”¹³.

Bundan tashqari erkin raqobatga asoslangan ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish sub’ektlarini qanday mulkchilik shakllariga asoslanishidan qat’i nazar raqobat asosida har bir mamlakatni jahon bozorida raqobatdosh bo‘lishini ta‘minlash maqsadida intellektual jarayonni rivojlantirish ularning asosiy muammolariga aylanadi. Bu esa o‘z navbatida bozor iqtisodiyoti sharoitida aholini intellektual darajalarini oshirishni ta‘minlash uchun bozor talablariga asoslangan holda malakali mutaxassislarni tayyorlash dolzarb hisoblanadi.

“Davlat siyosatining inson kapitaliga yo‘naltirilganligining mamlakat iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etishi yoritilgan. Inson

¹²Образование в системе человеческого развития: мировая практика и опыт Узбекистана // Под ред. акад. Гулямова С.С., акад. Абдурахмонова К.Х. – Ташкент. – 2004. – 34-35 с.

¹³Ergashxodjaeva Sh.D., Nishonov D.Sh. Zamonaviy iqtisodiyot va innovatsiya ta‘limi // O‘zbekistonda bojxona ishining dolzarb muammolari: nazariya va amaliyot. Respublika ilmiy-amaliy anjumani maqola tezislari to‘plami. Toshkent. 2010. 197–198–b.

kapitalini rivojlantirishga qaratilgan siyosat orqali mamlakat aholi hayoti turmush sifati va darajasi yaxshilanadi deb hisoblanadi¹⁴.

Oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash tizimining o'rni ko'p jihatdan ta'lim sifati, iste'molchilarning bilimini baholash, kasbiy sifatlarini rivojlantirish munosabatlariga bog'liq. Odatda ta'lim sifatining mohiyati, ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, uning bosqichlari, tamoyillari mamlakatning innovatsion rivojlanish yo'liga o'tishi va ko'p jihatdan ta'lim tizimining zamonaviy holati va jamiyatning ilmiy-tadqiqot salohiyatiga ta'sir ko'rsatadi¹⁵.

Sifatli mahsulotga cheklovsiz xarajatlar hisobiga bajarilgan mukammal mahsulotlar taalluqli bo'lib, kam yoblik va qimmatlilik ushbu tushunchaning ikkita farq qiluvchi qirralari hisoblanadi. Ushbu nuqtai nazardan sifat maqom va ustunlikni aks ettirish uchun qo'llaniladi. Ushbu mutloqlashtirilgan tushunchalarni qo'llash ta'lim muassasasining imidjini yaxshilashga hamda, ijtimoiy aloqalari uchun foydali bo'lishi mumkin. Sifatni nisbiy tushuncha sifatida ham qo'llash mumkin. Ushbu holatda sifat mahsulot yoki xizmatning belgisi (o'ziga xos xususiyati, atributi) hisoblanmaydi. Sifat to'g'risida mahsulot yoki xizmatning mavjud standartlar yoki unga qo'yilgan talablarga javob berganida gapirish mumkin. Sifat o'z-o'zidan yakuniy natija bo'la olmaydi. U faqatgina uning yordamida yakuniy mahsulotning standartga mosligini aniqlash vositasidir. Sifatni nisbiy tushunishda sifatli mahsulot yoki xizmat qimmat yoki mushkul, chiroyli yoki mujmal bo'lishi shart emas. Shuningdek, u o'ziga xos, oddiy, siyqasi chiqqan va odatiy bo'lmasligi mumkin. Sifat nisbiy tushuncha sifatida ikkita qirraga ega: birinchi-bu standart yoki unga qo'yilgan talabga mos kelishi; ikkinchi - iste'molchilar talabiga mos kelishi.

Oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholashni tadqiq qilgan olimlardan L.Vlaskin va L.Grinberg tadqiqotlarida keltirilishicha oliy ta'lim sifati

¹⁴ Мухтарова К.С. Распределение доходов и бедность в переходной экономике. – Алматы, 2001 г. – 223 с. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2018.

¹⁵ Saloxitdinov Sherzod Farxodovich. Oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash tizimining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, mazmuni va nazariy yondashuvlar / Texnika va raqamli texnologiyalarni amaliyotda qo'llanilishi va ularning innovatsion yechimlari. / Xalqaro ilmiy texnik konferensiya materiallari II qism. Farg'na 2023 yil 4-5 may. 310-312 bet. <https://tatuff.uz/conference-2023/>

ko'p qirrali, ko'p darajali va dinamik tushuncha bo'lib, u ta'lim modelining mazmuniy birligiga, muassasaning missiya va vazifalariga hamda o'ziga xos ma'lum standartlarga bog'liqdir¹⁶.

N.Mirkurbanovning fikricha, xalq xo'jaligi va ta'limning qaysi turi va bosqichi bo'lmasin, uning bozor iqtisodiyoti sharoitida yashashi va amal qilishi sifat mezonini asosiga tayanadi. Oliy ta'lim sohasida sifatning taminlanishi provardda yetuk kadrlar tayyorlashga sabab bo'ladi. Bu isbot talab qilmaydigan aksioma bo'lib, u O'zbekiston Respublikasi hukumati, vazirlik va oliy ta'lim muassasalarining bosh masalasiga aylangan¹⁷.

Z.Jumaevning ko'rsatib berishicha "OTM sifat ko'rsatkichlarini baholashda uning ilmiy salohiyatini belgilovchi ko'rsatkichlar tizimini aniqlash kerak bo'ladi. Bunday ko'rsatkichlar sifatida intellektual, ijtimoiy-madaniy va moddiy-texnik holatini bildiradi gan ko'rsatkichlar kiritiladi. Oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifat ko'rsatkichlari tahlili va bitiruvchilarning sifat tayyorgarligi indikatorini hisoblash usullaridan ta'lim muassasasi faoliyati samaradorligini baholash uchun qo'llash ta'lim muassasasi salohiyati reytingi, uning faollik reytingi, moddiy-texnik salohiyat reytingi, ijtimoiy-madaniy salohiyat reytingi kabilarni aniqlash asosida amalga oshiriladi"¹⁸.

Ta'lim jarayonida "sifat" tushunchasini qo'llash mazmunan boshqacha ma'no kasb etadi. "Yuqori sifat" mutloq tushunchasi ta'limda sifatni boshqarish tizimi bilan hech qanaqa umumiylikka ega emas. Sifatni boshqarish borasidagi munozaralarda tez-tez uning yuqori maqomlilikining mutloq ahamiyati to'g'risida savollar paydo bo'lib turadi. Ta'lim sifati – bu hozirgi kunda mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida eng ko'p bahs-munozaralarga duch kelayotgan va davlat hamda jamiyat tomonidan alohida e'tibor qaratilayotgan muammolardan biridir. Chunki, mutaxassislarni tayyorlash sifatining past yoki yuqoriligi doimo ish beruvchilar, talabalar, ularning ota-

¹⁶ Lazar Vlasceanu, Laura Griinberg, and Dan Parlea. (2004). Quality Assurance and Accreditation: A Glossary of Basic Terms and Definitions. Bucharest: UNESCO [ISBN 92- 9069-178-6]

¹⁷ Mirkurbanov N, Аношкина В., Данилова Е. Высшее образование в Узбекистане: состояние и рекомендации// Ж. Аналитическая записка. – 2009. № 1 (12), Б. 24-28

¹⁸ Jumaev Z. Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining sifatiga ta'sir etuvchi omillar. Journal of "Irrigation and melioration" 2016. №4(6). 74-75 b.

onalari umuman olganda butun jamiyat a'zolarining diqqat markazida turadigan masala sanaladi¹⁹.

Olimlarning fikricha hozirgi ta'lim tizimining bunday tavsifi uning rivojlanish jarayonlarining o'ta murakkabligi va ziddiyatlilikini ko'rsatadi. Ularning borishi ushbu jarayonlarni boshqarishda qanchalik samarali usullar qo'llanilishiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Shunday tez rivojlanadigan va murakkablashib boradigan ta'lim tizimining va uni boshqarishning roli jiddiy darajada oshib boradi²⁰.

Oliy ta'lim sifatini ta'minlashga ta'lim jarayonining har bir sub'ekti (professor-o'qituvchi, talaba, ota-onalar, ma'muriyat, ish beruvchilar va h.k.lar) manfaatdordir. Mana shulardan kelib chiqqan holda bizning mamlakatimizda amalga oshirib borilayotgan ta'lim tizimi islohotlari o'zining asosiy maqsadlaridan biri sifatida ta'lim sifatiga alohida urg'u beradi. Ta'lim sifatini tadqiq qilish bo'yicha shu davrlargacha bo'lgan ko'plab ilmiy-tadqiqotchilik izlanishlarida ayrim mualliflar ta'lim sifatini quyidagi uchta nuqtai-nazardan:

- 1) ijtimoiy kategoriya sifatida;
- 2) pedagogik jarayon ko'rsatkichlarining jamlamasi sifatida;
- 3) ta'lim olish natijasida egallangan malaka va mahoratlarning shaxs manfaatlari hamda ehtiyojlariga mosligi nuqtai-nazaridan olib qarashni olg'a suradilar.

Bularning barchasi ta'lim sifatini, shu jumladan – oliy ta'lim sifatini ham, atroflicha tahlil va tadqiq qilib chiqish zaruratini keltirib chiqaradi. Bu borada bizning fikrimizcha, oliy ta'lim sifatini baholash va tavsiflash borasidagi keng qamrovli muammolarni tizimli tahlil usuli bilan tadbiq qilib chiqish kerakli natijalarga olib keladi²¹.

Oliy ta'lim xizmatlari sifati (oliy ta'lim sifati) ta'lim muassasasi faoliyatining qonunchilik normalari, standartlari, bozor talablariga va

¹⁹ Saoxitdinov Sh. Oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash tizimi rivojlanishining nazariy yondashuvlari. / Iqtisodiyot va ta'lim / 2023-yil 3-son 405-409 bet. <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/issue/view/26>

²⁰ III. Курбонов, Э. Сейтхалилов. Управление качеством образования. Монография.- Т.Шарк, 2005. – 592 б.

²¹ Saloxitdinov Sherzod Farxodovich. Oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash tizimining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, mazmuni va nazariy yondashuvlar / Texnika va raqamli texnologiyalarni amaliyotda qo'llanilishi va ularning innovatsion yechimlari. / Xalqaro ilmiy texnik konferensiya materiallari II qism. Farg'na 2023 yil 4-5 may. 310-312 bet. <https://tatuff.uz/conference-2023/>

barcha manfaatdor tomonlarga muvofiqligi darajasining umumlashtirilgan tavsifi, shu jumladan: ta'lim muassasining boshqaruv tizimi, jarayonlar va ularning resurslar bilan ta'minlanishi, bitiruvchilarning sifati, ta'lim muassasining salohiyat sifati"²² bilan belgilanadi.

“Ta'lim sifati – inson hayot-faoliyati sifatini oshirish hamda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, ma'naviy yuksalishi va aniq maqsadga erishishda foydalanish uchun zarur bo'ladigan, qo'llaniladigan, asos bo'ladigan aniq sharoitlarda talab etilib olingan bilimlar majmuidir. Ta'lim sifatini oshirish dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan ushbu davrda, ta'lim mazmunini boyitish, uning samaradorligi, natijaviyligini ta'minlash, ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi uchun moddiy va ma'naviy bazani kengaytirish, ularning erkin ilmiy-ijodiy faoliyatini rivojlantirishni taqozo etadi”²³.

Yuqoridagi fikrlarga qo'shilgan holda, biz quyidagicha mualliflik fikrlarining ilgari suramiz: oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash –oliy ma'lumotli kadrlar buyurtmachilarining talab va istaklari asosida yuqori malakali mutaxassislarning eng oxirgi bilimlarni egallashlari, oliy ta'lim tizimini ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot istiqbollari va jamiyat ehtiyojiga mos mutaxassislar bilan ta'minlaydigan, sohani nazariya bilan mutanosib ravishda amaliyotga moslashtiradigan ta'lim sifatini baholashning yangi mexanizmlarini joriy etishdir.

“Oliy malakali kadrlardan samarali foydalanilmayapti. Kadrlar bilimi va ular tayyorgarligining sifatini nazorat qilish hamda baholash tizimi hozirgi zamon talablari darajasida emas. Shuningdek, bugungi kunda mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash tizimining demokratik o'zgarishlar va bozor islohotlari talablariga muvofiq emasligi, o'quv jarayonining moddiy-texnika va axborot bazasi etarli emasligi, yuqori malakali ilmiy-pedagog kadrlarning etishmasligi, sifatli o'quv-uslubiy va ilmiy adabiyotlar hamda didaktik materiallarning kamligi, ta'lim tizimi, fan va ishlab chiqarish o'rtasida

²² Беденко Н. Управление системой оценки качества услуг высшего образования на мезо и микроуровнях. Автореферат дисс. на соискание ученой степени д.э.н. Санкт-Петербург. 2012 г. -18С.

²³ Nazarova F.U. Oliy ta'limda baholash tizimini takomillashtirish xususiyatlari. Zamonaviy ta'lim. 2017, -19 b.

samarali o‘zaro hamkorlik va o‘zaro foydali integratsiyaning yo‘qligi kadrlar tayyorlashning mavjud tizimidagi jiddiy kamchiliklar sirasiga kiradi”²⁴.

Hozirgi rivojlanish bosqichida oliy ta’lim xizmatlari sifatini baholash tizimining ijtimoiy-iqtisodiy zaruriyati quyidagilarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Birinchidan, ta’limning o‘rni va ahamiyati, ijtimoiy hayotning barcha sohalar, jumladan iqtisodiyot, moddiy ishlab chiqarish, ijtimoiy-ma’naviy hayot sohalar bilan chamchaschas bog‘liq bo‘lgan inson faoliyatining eng muhim sohalaridan biriga aylanayotganligi bilan ifodalanadi. Ikkinchidan, oliy ta’lim xizmatlari sifatini baholash ko‘rsatkichlari keyingi bir necha yillardan beri ta’lim tizimining eksponensial o‘zgarishi jarayonlari bilan belgilanadi. Mazkur tadqiqotlar ham nazariy, ham amaliy tusga ega bo‘lib, ularning jarayonida hozirgi ta’lim tizimining sifat xususiyatlari ta’limning barcha turlariga bo‘lgan munosabatning tubdan o‘zgarishiga olib keladi²⁵.

Olib borilgan tadqiqotlarga asosan, oliy ta’lim xizmatlari sifatini baholash tizimi ko‘rsatkichlarining samarali ilmiy-nazariy yondashuvlari sohada raqobat darajasiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarini hisobga olgan holda takomillashtirilgan.

Ta’lim xizmatlari sifatini baholash tizimini ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda olib borilayotgan yangilanishlar talablariga muvofiq yuqori darajaga ko‘tarish, shuningdek uzluksiz ta’lim tizimida ta’lim sifatini nazorat qilishni yanada takomillashtirish, kadrlar tayyorlash sifati va o‘quv jarayoni samaradorligining xolisona baholanishini nazorat qilish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish maqsadida mamlakatimizda uzluksiz ta’lim tizimi va kadrlar tayyorlashning davlat va nodavlat ta’lim muassasalarini tarkibiy jihatdan o‘zgartirishni takomillashtirishni talab qiladi.

Mamlakatimizda boshqa rivojlangan davlatlar singari ta’lim tizimida yagona davlat siyosatini yuritish ta’limni boshqarishning

²⁴ Nurimbetov R.I., Abduraxmonova G.Q. Raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda uzluksiz ta’lim tizimining o‘rni va ahamiyati. Toshkent. 2/2018 5-b.(№ 00034) www.iqtisodiyot.uz

²⁵ Saoxitdinov Sh. Oliy ta’lim xizmatlari sifatini baholash tizimi rivojlanishining nazariy yondashuvlari. / Iqtisodiyot va ta’lim / 2023-yil 3-son 405-409 bet. <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/issue/view/26>

muhim vazifasidir. Bu vazifalarni bajarishda faqatgina ixtisoslashtirilgan ta'limning boshqaruv organlari tomonidan emas, balki ijtimoiy hayotning ajralmas bir qismi bo'lib qolishi ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining barcha jihatlariga daxldor bo'lib, uning rivojlanish omillaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ko'rsatib berganidek, 2023 yilga yurtimizda «Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili», deb nom berishni taklif qilaman. Nima uchun yilga bunday nom beryapmiz? Biz O'zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining markazida inson va uning manfaatlarini ta'minlashni ustuvor vazifa etib belgiladik. Bu siyosat bir yil bilan cheklanib qolmasligi, doimo bardavom bo'lishi barchamizga ayon. So'nggi yillarda oliygohlarimiz 2,7 barobar ko'payib, 191 taga etdi, qamrov darajasi 9 foizdan 38 foizga oshdi. Biz bu raqamlarni yanada ko'paytirishni maqsad qilganmiz. Lekin, ta'lim sifati nima bo'ladi, degan savol hammamizni o'ylantirishi kerak. Avvalambor, bunga har bir oliygoh o'zi harakat qilishi lozim, o'shanda natija bo'ladi»²⁶.

Bu borada zamonaviy ta'lim texnologiyalarini va sifatli ta'lim berishni, ta'lim tizimidagi tashkiliy tuzilmalarni takomillashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish orqali yangi ta'lim tizimining sifatini yuqori darajaga olib chiqishga erishiladi.

Ta'limni boshqarishning bevosita tizimligi, yaxlitligi ta'lim sifatining nazariy-amaliy uslublarining rivojlantirish bilan bog'liq. Mazkur xususiyatlar O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida oliy ta'lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va boshqaruv faoliyatini takomillashtirish vazifalarining belgilanishi OTM boshqaruv tizimini tashkiliy-nazariy jihatlarini tadqiq qilishning dolzarbligini asoslaydi²⁷.

“Yangi ta'lim tizimi rivojlanishini boshqarishning xususiyatlari quyidagilarda yaqqol namoyon bo'ladi. Birinchidan, hozirgi ijtimoiy

²⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2022 yil 22 dekabr. Lex.uz.


²⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5847-sonli Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son; 30.04.2020 y., 06/20/5987/0521-son. <https://lex.uz/docs/-4545884>

rivojlanishida ta'limning egallagan o'rni ayni ijtimoiy hayotning barcha boshqa sohalari: iqtisodiyot, siyosat, moddiy ishlab chiqarish hamda ma'naviy hayot sohalari bilan nihoyat darajada chirmashib ketgan inson faoliyatining eng keng va muhim sohalaridan biriga aylanib borayotganligi bilan belgilanadi. Ikkinchidan, hozirgi ta'lim tizimini boshqarish xususiyatlari keyingi o'n yillarda ta'lim sohasi boshdan kechirayotgan holat bilan, ya'ni keskin inqirozli hodisalar va inqirozdan qutilish yo'llarini izlashlar bilan bir yo'la kechadigan eksponensial kengayish holati bilan prinsipial ravishda belgilanadi. Ushbu izlanishlar ham nazariy, ham amaliy tusga ega, ularning jarayonida yangi ta'lim tizimining asosiy xususiyatlari namoyon bo'ladi.

Yangi ta'lim tizimining ana shu xususiyatlari ham hozirgi dunyodagi ta'limni boshqarish xususiyatlariga katta ta'sir ko'rsatadi"²⁸.

Mamlakatimizda keyingi bir necha o'n yilliklarga mo'ljallangan talab va ehtiyojdan kelib chiqib, oliy ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan strategik maqsad va vazifalar belgilangan.

Zamonaviy sharoitlarda ta'lim tizimi muammolari o'zining darajasidagina emas, balki ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamraydigan ustuvor siyosatning eng muhim vositasi hisoblanadiki, bu OTM ta'lim sifati va samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni kengroq tadqiq qilinishini asoslaydi (1.1-rasm).



1.1-rasm. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati va samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar²⁹

²⁸ O.Abduraxmonov. Mehnat bozorini boshqarishda ta'lim tizimining o'rni. i.f.n. dissertatsiyasi. Toshkent 2005 y. 31-32 b

²⁹ Muallif taqiqotlari asosida tuzilgan.

1.1-rasmda ta'lim sifati va samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar keltirilgan bo'lib, OTM boshqaruv tizimini rivojlantirish bevosita boshqaruv tizimining yangi tamoyillar asosida tashkil etish, o'z-o'zini moliyalashtirish tizimiga o'tish, raqobat natijasida OTM boshqaruv tizimining funksional vazifalarini qayta ko'rib chiqish singari ko'rsatkichlarni jamlaydi. Jumladan, OTM boshqaruv tizimining yangi tamoyillar asosida tashkil etilishi davlatning ta'lim sohasidagi boshqaruvchilik siyosati bir tomondan, ta'lim xizmatlari bozorining amal qilish samaradorligini oshirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, ta'limning fundamental muammolarni hal etish imkonini beradi. Hozirgi vaqtda OTMlarning o'z-o'zini moliyalashtirish tizimiga o'tishi amalga oshirilmoqda, shu maqsadda respublika bo'yicha 38 ta OTM larga moliyaviy mustaqillik berildi, bu esa ta'limni moliyalashtirish manbalarini muassasa imkoniyatlarini kengaytirishga yo'naltirilganligi, ta'limni moliyalashtirishning yangi mexanizmlari paydo bo'lishi va moliyalashtirish manbalarining xilma-xilligi ta'minlashga hissa qo'shadi.

Oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash ko'rsatkichlari ta'lim muassasasi faoliyatining samaradorligi sohasini tezkor belgilashga imkon yaratadi. Oliy ta'lim sohasidagi adabiyotlarda qayd etilishicha "Oliy ta'lim sohasidagi sifat, uning quyidagi funksiyalari va faoliyat turlarini qamrab oluvchi ko'p o'lchamli konsepsiya hisoblanadi: o'quv va akademik programmalar, ilmiy tadqiqotlar va stipendiyalar, kadrlar bilan ta'minlash, o'quvchilar, bino, moddiy-texnikaviy asos va jihozlar, jamiyat farovonligi yo'lidagi ishlar. Sifat muammosini hal etishda unga tasir etuvchi omillarni butun majmuini ular o'zaro bog'liqligi va o'zaro harakatida boshqarish lozim, ya'ni tizimli yondashishdan foydalanishi kerak"³⁰.

Yangi O'zbekistonning ta'lim tizimiga quyidagi asosiy xususiyatlar xos:

- ta'lim tushunchasining iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati bilim olishga nisbatan o'zgarib bormoqda va ta'lim xizmatlari sifatining buyurtmachilar talabi asosida ortib borishi;

³⁰Перегудов Л.В., Saidov M.X. Oliy ta'lim menejmenti va iqtisodiyoti. T.: «Moliya» nashriyoti, 2002 y. - 60 b

- ta'lim funksiyasini maktab-kasb hunar ta'limi-oliy ta'lim-oliy ta'limdan keyingi ta'limdan tashqari ijtimoiy institutlar ham bajaradi;
- raqamlashtirish va masofaviy individual ta'lim shakli ustunlik va imkoniyatlaridan foydalanish bevosita ta'lim tizimiga ta'sir ko'rsatadi;
- sifatli ta'lim insonning butun umri davomida ta'lim olish tizimi sifatida shakllanadi.

Oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash tizimining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati bitiruvchilarning raqobat darajasini baholash mezonlari va ko'rsatkichlar tizimini kompleks tadqiq qilishni taqazo qiladi, chunki bu ko'rsatkichlar o'zaro aloqador jihatlarni o'z ichiga olgan asosiy mezon hisoblangan sifatni aniqlashtirish imkoniyatini beradi. Sifatni baholash uslubi kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning o'ziga xos bo'lgan yo'nalishlarini belgilaydi, shu bilan birgalikda sifat darajasini baholash orqali ta'lim muassasalari mehnat bozori talab qiladigan zamonaviy, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashga tizimli yondashadi, bitiruvchilar esa zarur kasbiy ko'nikmalarni puxta egallaydi.

1.2-§. Oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari

Ma'lumki, hozirgi iqtisodiy islohotlar sharoitida ta'limni boshqarish ta'lim ehtiyojlarini to'laqonli qondirish, fuqarolar uchun ta'limning barcha darajalaridan foydalanish tengligi hamda ta'lim sifatini oshirish va uning relevantligiga, ya'ni talab ehtiyojlariga muvofiqligiga erishishni ta'minlash³¹.

“Ta'limni boshqarish davlat organlari va o'quv yurtlari o'rtasida kadrlar tayyorlashga oid shartnomalar tizimini rivojlantirish, ushbu shartnomalarda ta'lim sifatiga oid talablar belgilanishi hamda mazkur talablar bajarilishi ustidan nazorat yuritish tizimi mavjud bo'lishini nazarda tutadi. O'zbekistonda ta'lim xizmatlari sifatiga oid talablar davlat ta'lim standartlarini rivojlantirish orqali belgilanadi. Asosiy

³¹ Saloxitdinov Sh.F. Xududlarda oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari. / «Hududiy rivojlanish: tendensiyalar, xatarlar va strategiyalar» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman // Toshkent. 2024-228-233 b.

ta'lim dasturlari mazmunining majburiy minimumi, o'quv yuklamasi hajmi, bitiruvchilarning tayyorgarligi darajasiga oid talablar belgilanadigan ushbu standartlar yangi ta'lim tizimida olingan ta'lim darajasini, uning sifatini belgilash negizi bo'lib qolmoqda³²”.

Oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash ta'lim muassasalarini litsenziyalash, attestatsiya va akkreditatsiyalash hamda yuqori sifatli ta'lim xizmatlarini taqdim qiladigan ta'lim muassasalarini tanlash imkoniyatlarini tanlashni ta'minlash bilan belgilanadi. Bu tizimni rivojlantirish esa ta'limni boshqarishda o'ta dolzarb vazifalardan biri hisoblandi.

Olimlarning fikricha “Ta'limni boshqarishda davlat organlari quyidagi asosiy funksiyalarni bajarib kelmoqda:

- ta'lim sohasida maqsadli va umumdavlat va xalqaro dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;
- davlat ta'lim standartlarini tayyorlash;
- ta'lim muassasalarini akkreditatsiyalash;
- pedagog kadrlarni attestatsiyalash tartibini va ularga qo'yiladigan talablarni belgilash;
- ta'lim tizimi strukturasi shakllantirish;
- kasblar, yo'nalishlar va mutaxassisliklar ro'yxatlarini ishlab chiqish;
- o'zlari ta'sis etgan ta'lim muassasalarining faoliyatini to'g'ridan-to'g'ri moliyalash;
- ta'lim muassasalarini moliyalashga, ta'lim jarayonining moddiy-texnikaviy jihozlanishiga oid davlat normativlarini ishlab chiqish;
- ta'lim muassasalari tarmog'i rivojlanishini bashorat qilish;
- ta'lim sifatini nazorat qilib borish”³³.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash ta'lim tizimidagi bozor munosabatlarini rivojlantirish mazkur xizmatlar sifatidagi o'zgarishlar bilan ifodalanadi. Bu bilimning inson kapitali darajasida belgilanishi, davlatning boshqaruvchanlik rolidagi o'zgarishlar, sifatli ta'lim

³² Abdurahmonov O.Mehnat bozorini boshqarishda ta'lim tizimining o'rni.I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan diss. T.: 2005. -35 b.

³³ Ш.Қурбонов,Э.Сейтхалилов. Управление качеством образования. Монография. Т.: Шарқ, 2004.-171 б.


xizmatlarini belgilovchi baholash reyting ko'rsatkichlari mazkur jarayonning asosini tashkil qiladi.

Zamonaviy ta'lim tizimini shakllantirishda ta'lim tizimidagi yangi iqtisodiy mexanizmlar alohida o'rin egallaydi. Bu jarayon yangi iqtisodiy mexanizm vositalarini jumladan, davlat tomonidan ta'lim tizimini moliyalashtirishning yangi mexanizmlari, korxona va tashkilotlar tomonidan moliyalashtirish, ta'lim xizmatlari sifati va samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan investitsiyalar, ta'lim oluvchilarning o'z-o'zini mablag' bilan qoplashi va boshqalar.

Mamlakatimizda mehnat bozorini boshqarish va oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholashni tartibga solishda milliy ta'lim tizimining milliy va xalqaro darajadagi raqobatbardoshligini oshirish, ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini reyting tizimi asosida baholashning sifat ko'rsatkichlarini hisobga olgan holda asoslangan. Bunda ta'lim oluvchilar ta'limi sifati yakuniy natijaga ta'sir etuvchi eng asosiy va muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Ta'lim sifatini oshirish bir qancha mezonlarga bog'liq bo'lib, talabalar bilimni nazorat qilish va baholash shulardan biridir. O'zbekistonda OTM xizmatlari sifatini baholash mezonlari 1.2-rasmda keltiriladi.

1.2-rasmda OTM xizmatlari sifatini baholash mezonlari guruhlangan, unga ko'ra baholash usullari va ta'sir vositalari, boshqarish mexanizmi, ta'lim muassasasini baholash mezonlari o'zaro bog'liq vositalar bo'lib, birinchi eng asosiy o'rinni oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish egallaydi.

Mazkur iqtisodiy ko'rsatkich mehnat bozoriga kiruvchi bitiruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish, kasbiy mahoratini ro'yobga chiqarish maqsadida murakkab mehnat munosabatlariga yo'naltirish, zamonaviy, bilimdon oliy ma'lumotli kasbiy layoqati yuqori bo'lgan yoshlarning bandligini ta'minlashga asos bo'lishi nuqtai nazaridan ahamiyatli hisoblanadi. OTM faoliyatining sifat ko'rsatkichlari esa bitiruvchilarning sifat tayyorgarligi indikatorini hisoblash metodikasidan bevosita samaradorlik darajasini baholash uchun qo'llash ta'lim muassasasining salohiyati, reytingi, moddiy-texnik salohiyat reytingi, ijtimoiy-madaniy salohiyat reytingi kabilarni aniqlash bo'yicha amalga oshiriladi.



1.2-rasm. O'zbekistonda OTM xizmatlari sifatini baholash mezonlari³⁴

Mazkur ketma-ketlik esa professor-o'qituvchilar bilimni baholashning zamonaviy tizimini takomillashtirishni talab qiladi, chunki bitiruvchilarning sifati oliy ta'lim muassasasi etarli darajadagi ilmiy-pedagogik salohiyatga ega ekanligi, professor-o'qituvchilarning sifat tarkibini yaxshilash orqali erishish mumkinligini ifodalaydi.

³⁴Mavjud ma'lumotlar asosida muallif tomonidan guruhlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi”da professor-o‘qituvchilarning faoliyati, bilimi va kasbiy ko‘nikmasini baholashning zamonaviy tizimini takomillashtirish uchun oliy ta’lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish professor-o‘qituvchilar tarkibining ilmiy daraja va unvonlarga ega xodimlar yoshi nuqtai nazaridan optimal nisbatiga erishish vazifasi belgilab berilgan³⁵.

Ta’kidlash lozimki, “davlat mezonlar va ko‘rsatkichlar to‘plami orqali ta’lim tizimi va oliy ta’lim muassasalarining faoliyatini baholab, muaxsus usullar vositasida uni tartibga soladi va shu bilan birga, oliy o‘quv yurtlarining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi”³⁶.

Shuningdek, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etishni baholash va ilm-fanning innovatsion infratuzilmasini shakllantirishni baholash mezonlari ham bevosita OTMlarning rolini kengayib borishi va hududiy infratuzilma ishtirokchisi sifatidagi ahamiyatini tobora oshirmoqda.

“Ta’lim va kadrlarni kasbiy tayyorlash ta’lim sifatining asosiy yakuniy sifatidir, bu quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- insonlar: professor-u‘qituvchilar tarkibi, ta’lim oluvchilar, o‘quv-yordamchi faoliyat xodimlari, ma’muriy xodimlar va boshqalar;
- texnologiyalar: pedagogik, tarbiyaviy, informatsiyaviy, boshqaruv, nazorat qiluvchi va boshqalar;
- moddiy-texnikaviy taminot: binolar , jihozlar, laboratoriya va amaliyot bazasi va boshqalar;
- me’yoriy-xuquqiy va o‘quv-metodik ta’minot,
- rag‘batlantirishlar va asoslar;
- tashqi ta’sirlar: bozor iqtisodiyoti talablari, korxonalar, jamiyat va davlat”³⁷.

³⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi 2019 yil 8 oktyabrda PF-5847-son farmoniga 1-Ilova. Lex.uz. <https://lex.uz/docs/-4545884>

³⁶ <https://cyberleninka.ru/article/n/talim-hizmatlari-bozorida-oliy-talim-muassasalari-ra-obatbardoshligini-oshirish-ning-ahamiyati-va-tamoyillari>

³⁷ Перегудов Л.В., Saidov M.X. Oliy ta’lim menejmenti va iqtisodiyoti. T.: «Moliya» nashriyoti, 2002 y. 51 b.

Hozirgi kunda mamlakatimizda ta'lim tizimini, xususan, oliy ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha keng qamrovli islohotlar natijasini qo'shni davlatlar bilan taqqoslaganda O'zbekistonda sezilarli o'zgarishlar kuzatiladi. Masalan, Qozog'iston Respublikasida OTM lar soni 130 ta, Qirg'izistonda esa 64 ta, Turkmaniston Respublikasida 25 ta, Tojikistonda 40 tani tashkil qilib, qamrov darajasi ham bu ko'rsatkichlarga mos. Mamlakatimizda keyingi bir necha yillarda yoshlarning oliy ta'limga qamrov darajasini oshib borayotganligini davlat OTM lari bilan teng raqobatlasha oladigan xorijiy, xususi, nodavlat oliy ta'lim dargohlarining yo'lga qo'yilganligi bilan, ularga ham teng darajada erkinliklar berilayotganligi va bu jarayon OTMlar sonining oshib borayotganligini ko'rsatadi (1.1-jadval)³⁸.

Ta'lim sifati hozirgi kunda mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida eng ko'p bahs-munozaralarga duch kelayotgan va davlat hamda jamiyat tomonidan alohida e'tibor qaratilayotgan muammolardan biridir. Chunki mutaxassislarni tayyorlash sifatining past yoki yuqoriligi doimo ish beruvchilar, talabalar, ularning ota-onalari, umuman olganda, butun jamiyat a'zolarining diqqat markazida turadigan masala sanaladi.

1.1-jadval

O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan OTM soni o'zgarishi salmog'i³⁹ (o'quv yili boshiga)

Ko'rsatkichlar nomi	O'quv yili boshiga						2021-2022 o'quv yili 2015-2016 o'quv yilga nisbatan o'sish, foiz
	2017/2018	2018/2019	2019/2020	2020/2021	2021/2022	2022/2023	
Oliy ta'lim muassasalari soni, birlik	72	98	119	127	154	191	2,7 marta
Ularda talabalar, ming kishi	297,7	360,2	441,0	571,5	808,4	1042,1	3,5 marta

³⁸ Saloxitdinov Sh.F. Xududlarda oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari. / «Hududiy rivojlanish: tendensiyalar, xatarlar va strategiyalash» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman // Toshkent. 2024-228-233 b.

³⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Shu jumladan bo'limlarda o'qiydiganlar, ming kishi: kunduzgi bo'limda	287,5	313,0	360,1	441,9	553,9	622,6	2,2 marta
sirtqi bo'limda	10,2	46,0	73,6	118,1	228,0	381,8	37,4 marta
kechki ta'lim	-	1,2	7,3	11,5	26,5	37,7	31,4 marta
10000 aholiga to'g'ri keladigan talabalar soni, birlikda	93	110	130	165	229	289	3,1 marta
Qabul qilingan talabalar soni, ming kishi	63,0	114,5	138,1	174,9	235,9	282,4	4,5 marta
Bakalavriatga qabul qilingan talabalar soni, ming kishi	80,8	108,7	128,7	165,0	220,1	275,5	3,4 marta
Bitirgan mutaxassislar soni, ming kishi	67,4	70,0	70,9	83,4	104,2	104,1	157 %
10000 aholiga nisbatan bitirgan mutaxassislar	20	19	20	19	24	29,6	141 %

Ta'lim sifati hozirgi kunda mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida eng ko'p bahs-munozaralarga duch kelayotgan va davlat hamda jamiyat tomonidan alohida e'tibor qaratilayotgan muammolardan biridir. Chunki mutaxassislarni tayyorlash sifatining past yoki yuqoriligi doimo ish beruvchilar, talabalar, ularning ota-onalari, umuman olganda, butun jamiyat a'zolarining diqqat markazida turadigan masala sanaladi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash tizimini rivojlanishiga hududiy ta'lim tizimi rivojlanishi jihatlarini ham tadqiq qilib uni quyidagicha guruhladi:

Birinchi guruh - hududlarning mehnat bozori va mehnat potensialiga mos kadrlarga ehtiyojlarini aniqlash tizimini joriy qilish, erkin iqtisodiy zonalar faoliyatida rivojlangan xorij davlatlarining tajribalari bo'yicha ta'limning barcha bo'g'inlarini tashkil qilish imkoniyatini yaratish va shu asosda ta'limni raqobatdoshligini oshirish.

Ikkinchi guruh – Mamlakatimizda oliy ta'limning yoki Shanxay hamkorlik tashkilotlari va mustaqil davlatlar hamdo'stligi davlatlari uchun yagona ta'lim kelishuvlariga boqichma-bosqich jarayon orqali

o'tish imkoniyatlarini ta'minlash hamda ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish orqali ta'limning hamma bo'g'inlari mutanosibligiga e'tibor qaratish darkor.

Uchinchi guruh - Har bir hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari indikatorlariga ta'limga tegishli ko'rsatkichlarni kiritish va baholash natijalarini an'anaviy tarzda rasmiy e'lon qilishga erishish va fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish asosida maxsus fondlarni tashkil etish.

Bu borada S.Fisherning qo'yidagi so'zlariga e'tibor qaratamiz: "Inson kapitali insonda mujassamlashgan daromad keltirish qobiliyati mezonidir. Inson kapitali tug'ma qobiliyat va iste'dod, shuningdek olingan ta'lim va malakadan iborat"⁴⁰.

Mehnat bozorini boshqarish va oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash yondashuvi ta'lim tizimining milliy va xalqaro darajadagi raqobatbardoshligida bitiruvchilar sifat tayyorgarligi individualligini e'tiborga olgan holda takomillashtirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Chunki ta'lim tizimining milliy va xalqaro darajadagi raqobatbardoshligida OTM bitiruvchisi sifat tayyorgarligi alohida qiyosiy ustuvor jihatlar yig'indisi hisoblandi. Bu borada raqobatbardoshlik darajasini baholovchi mezonlar, ko'rsatkichlar mehnat bozori konyukturasiga mos tarzda o'zgarib boradi. Bitiruvchilar sifat tayyorgarligi individualligini esa mehnat bozorida bitiruvchilarning aniq harakatlari va kurash jarayonidagi urinishlari, yangi imkoniyatlarga ega bo'lish, raqobatbardoshlik xususiyatlarini ruyobga chiqarishga bog'liq bo'ladi. Mehnat bozori talablari va ish beruvchi tashkilotlarning bevosita kadrlar tarkibi dasturiy rejalariga mos kelishi, mehnat faoliyatini kasbiy nuqtai nazardan bajarishga qodir bo'lishidek jamiyat ehtiyojlarini qondirishi kerak bo'ladi.

Shuning uchun mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimi, jumladan oliy ta'lim tizimini sifat jihatdan rivojlantirish borasida ta'lim sifatini yuksaltirish, kadrlar salohiyatini oshirish, OTM raqobatbardoshligini baholovchi integral ko'rsatkichlar va ta'lim xizmatlari sifatini baholash

⁴⁰ Фишер С., Дорнбуш Р., Шмалензи Р. Экономическая теория. – М.: Юнити, 2002. – с.

mezonlari, ko'rsatkichlarini aniqlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish obektiv zaruriyat hisoblanadi (1.2-jadval).

Olimlarning fikricha "Inson potensialini rivojlantirish indeksi bevosita davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosati samaradorligining asosiy mezoni sifatida ko'riladi. Boshqacha qilib aytganda, davlat shunchaki yalpi ichki mahsulotni ko'paytirishga intilib qolmasdan Inson potensialini rivojlantirish indeksida o'z ifodasini topadigan fuqarolarning turmush sifatini oshirish choralarini ko'rishi kerak⁴¹.

Global va milliy darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'siri natijasida OTM boshqaruv tizimida transformatsion jarayonlar kuchayib bormoqda. Ushbu transformatsion jarayonlar faqat boshqaruv tizimi bilan cheklanmasdan, OTMlarning barcha funksional faoliyat yo'nalishlarini qamrab olayotganligini e'tiborga oladigan bo'lsak, bugungi kunda OTMlar faoliyatini tashkil etish modellarida jiddiy o'zgarishlar yuz bermoqda, degan xulosaga kelish mumkin.

1.2-jadval

Ta'lim tizimining milliy va xalqaro darajadagi raqobatbardoshligida bitiruvchilar sifat tayyorgarligini baholovchi ko'rsatkichlar tizimi⁴²

OTM raqobatbardoshligini baholovchi integral ko'rsatkichlar guruhi	OTM raqobatbardoshligini baholovchi xususiy ko'rsatkichlarning tavsiflanishi
Xalqaro doiradagi ilm-fan sohasida ko'rsatkichlar	Xalqaro doirada Skopus ma'lumotlariga asosan, TOP-25 % ga kiritilgan nashrlar soni
	Oliy ta'lim muassasining iqtiboslari bo'yicha TOP-25 %dagi iqtiboslik
	Xalqaro darajada tan olingan Web of Science, Scopus bazalarida keltirilgan har bir professor-o'qituvchilarga to'g'ri keladigan nashrlar soni
Ta'lim tizimida davlat grantlari va bitiruvchilar bilan ishlash	Davlat granti asosida bakalavriat ta'lim yo'nalishiga o'qishga qabul qilinganlarning o'rtacha bali
	Davlat granti asosida magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrant, doktorantlarning o'rtacha ulushi
	Oliy ta'lim muassasida tahsil olgan xorijiy

⁴¹ Abduraxmonova G.Q., Rustamov D.J. "Inson kapitalini raqamli iqtisodiyot asosida rivojlantirish yo'nalishlari". Monografiya. – Beau Bassin: "GlobeEdit" Publisher, 2020. – 38 b.


⁴² Oliy ta'limga tegishli ma'lumotlar asosida muallif tomonidan ishlangan.

	talabalar salmog'i
Oliy ta'lim muassasida kadrlar siyosatining samaradorlik ko'rsatkichi	Oliy ta'lim muassasida xorijiy ilmiy-pedagogik kadrlarning ulushi
	Faoliyat yuritayotgan jami pedagoglar salmog'i tarkibida ilmiy-pedagogik xodimlarning ulushi darajasi
	Jami pedagoglar tarkibida milliy sertifikat va IELTSga ega bo'lgan professor-o'qituvchilarning salmog'i
OTMning xalqaro darajada tan olinishini belgilovchi ko'rsatkichlar	Academic Ranking of World Universities darajasidagi reytingda OTMning holati.
	The Times Higher Education World University Rankings xalqaro darajasida OTMning egallagan reytingi.
	Oliy ta'limda tahsil olayotgan xorijiy talabalar salmog'i, ulushi
Oliy ta'lim muassasining ta'lim faoliyatiga tegishli ko'rsatkichlar	Kunduzgi ta'lim shaklida tahsil olayotgan bakalavrlar va magistrnlarning umumiy soni
	OTMda sirtqi ta'lim shakli bo'yicha bakalavrlar va magistrnlarning umumiy soni
	OTMda tayanch doktoronturada tahsil oluvchilarning salmog'i
	Ta'lim yo'nalishlari bo'yicha I kursga kirgan talabalarning o'rtacha balli
OTMning ilmiy-tadqiqot yo'nalishi bo'yicha faoliyat ko'rsatkichlari	Web of Scienceda iqtiboslar holati (har 100 ta ilmiy pedagogik xodimga nisbatan)
	OTMda har 100 ta ilmiy-pedagog xodimga hisoblangan Scopus bazasida iqtiboslari soni
	OTMda milliy iqtiboslari indeksatsiyalash darajasi
	Professor-o'qituvchilar tarkibida ilmiy darajaga ega bo'lganlarning salmog'i
	Oliy ta'lim muassasida xorijiy, mahalliy grantlar va xo'jalik shartnomalarning bajarilishi salmog'i

Hozirgi sharoitda oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash mezonlari va ko'rsatkichlarining asosiy jihatlari va yo'nalishlari quyidagilardan iborat bo'lishi zarur:

- mutaxassisliklar va kasblar bo'yicha pedagogik kadrlar bilan ta'minlanganligini o'rganish va unga baho berish;
- oliy ta'limda innovatsion faoliyatni tashkil etish borasida samarali huquqiy bazaning mavjudligiga erishish;
- o'quv jarayoni samaradorligining to'g'ri hisoblanganini, uning o'quv normalarida to'g'ri aks etganini aniqlash;

- ta'lim muassasalarida innovatsiyalarni yaratish va ishlab chiqarishga joriy etishda korxona va tashkilotlar qiziqishini hisobga olish;
- oliy ta'lim muassasalari faoliyatida o'quv jarayonini tashkil etish holati va uning darajasiga baho berish;
- ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilar mehnatini rag'batlantirish va o'quv jarayoni bilan bog'liq psixologik vaziyatga odilona baho berish;
- sohada mutaxassisliklar bo'yicha pedagogik kadrlar zaxiralarini aniqlash, ulardan yanada to'laroq va samaraliroq foydalanish choralarini ishlab chiqish dolzarb muammolardan biridir (1.3-rasm).



1.3-rasm. Kadrlar tayyorlash davlat buyurtmasining ta'lim sifatiga ta'siri⁴³

Global va milliy darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'siri natijasida OTM boshqaruv tizimida transformatsion jarayonlar kuchayib bormoqda. Ushbu transformatsion jarayonlar faqat boshqaruv tizimi bilan cheklanmasdan, OTMlarning barcha funksional faoliyat

⁴³ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

yo‘nalishlarini qamrab olayotganligini e‘tiborga oladigan bo‘lsak, bugungi kunda OTMlar faoliyatini tashkil etish modellarida jiddiy o‘zgarishlar yuz bermoqda, degan xulosaga kelish mumkin.

Oliy ta‘lim muassasalarini boshqarishni takomillashtirishda quyidagi bosqichlardan iborat vazifalarga alohida e‘tibor qaratish lozim:

1-bosqich. Oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan strategik maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda OTM missiyasi va uzoq muddatli maqsadlarni belgilab olish. Bunda, mehnat bozori talablari doirasida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash sifatini oshirish, ilmiy tadqiqotlarning istiqbolli yo‘nalishlarini aniqlash va ilmiy natijalarni tijoratlashtirish mexanizmlarini ishlab chiqishga e‘tibor qaratilishi lozim.

2-bosqich. Belgilangan missiya va uzoq muddatli maqsadlarni amalga oshirish imkoniyatini yaratuvchi faoliyatni tashkil etish modelini tanlash. Bunda, OTMning tarixiy an‘analari, uning ixtiyoridagi moddiy va nomoddiy resurslarni ob‘ektiv baholanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

3-bosqich. Belgilangan missiya va uzoq muddatli maqsadlarni qo‘shimcha moliyaviy qo‘yilmalar, tashkiliy o‘zgarishlarni talab etmagan holda amalga oshirish imkoniyatini beruvchi boshqaruv tuzilmasi tashkil qilinadi.

4-bosqich. OTM boshqaruv tizimining samarali faoliyatini tashkil etish uchun gorizontal, vertikal hamda teskari aloqa mexanizmlarini tartibga soluvchi me‘yoriy-huquqiy hujjatlar majmuasi ishlab chiqiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida oliy o‘quv yurtlari uchun milliy iqtisodiyotga zarur bo‘lgan oliy malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun zarur bo‘lgan darajada kadrlar tayyorlashni ob‘ektiv shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda davlat tomonidan belgilab berilishi zarur bo‘lsa, kontrakt to‘lovlari asosida esa oliy ta‘lim tizimidagi oliy o‘quv yurtlariga qabul qilish kvotasini shakllantirish darajasi ular tomonidan belgilanishi zarur deb hisoblaymiz.

1.3-§. Xorijiy mamlakatlarda ta‘lim xizmatlarini baholashning zamonaviy tajribalari

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasidagi davlat siyosatining mazmuni ta’lim taraqqiyotini yuqori bosqichlar eng ilg‘or xorijiy mamlakatlar ta’limi darajasiga ko‘tarish, jahon tajribasini o‘rganish asosida barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga etkazishdan iboratdir. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ta’kidlaganidek, bizga miqdor emas, sifat kerak. Bunga erishish uchun esa xorij tajribasini yaxshilab o‘rganish zarur. Qaysi davlat kadrlar tayyorlashga alohida e’tibor qaratsa, o‘sha yutadi. Ilmiy asoslangan tajriba asosida kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish eng muhim vazifamizdir.

“Jahon hamjamiyati ta’lim olish huquqini insonning asosiy huquqlaridan biri deb e’tirof qilgan. Bu huquq ko‘plab davlatlarning konstitutsiyalarida, qator xalqaro shartnomalarda aks ettirilgan halqaro prinsilarga muvofiq ravishda belgilab qo‘yilgan. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt, ta’lim sohasidagi kamsitishga qarshi kurash to‘g‘risidagi konvetsiya, ayollarga nisbatan kamsitishlarning barcha shakllarini tugatish to‘g‘risidagi konvensiya, bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya shular jumlasiga kiradi. Ushbu hujjatlar aslida ta’lim sohasidagi xalqaro standartlardir, ularning amaliy ahamiyati esa jahonda, jumladan, O‘zbekistonda kechayotgan demokratiyalashtirish jarayonlari bilan belgilanadi”⁴⁴.

Mamlakatimizda ta’lim sohasidagi davlat siyosati yuqorida nomlari keltirilgan xalqaro standartlar, me’yoriy-huquqiy hujjatlarga asosan tashkil qilinadi. Shuningdek, milliy qonunchilik hujjatlarida ham ta’lim olish huquqi tizimlilik, uzviylik nuqtai-nazardan xalqaro standartlar darajasida tashkil qilish belgilangan. BMT Rivojlanish dasutri, UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan inson taraqqiyotiga konseptual yondashuv va “Uzluksiz ta’lim Konsepsiyasi”da belgilangan ta’lim tizimi insonlarning kasb egallashi, bilim olishi tizimini yanada mustahkamlashga asos hisoblanadi. Xorijiy va mahalliy tajribalar asosida oliy ta’lim xizmatlari sifatini baholash va uning asosiy mazmuni OTM xizmatlari bozori haqida umumiy ma’lumotlar to‘plashga imkoniyat yaratadi (1.4-rasm).

⁴⁴ Abduraxmonov O. Mehnat bozorini boshqarishda ta’lim tizimining o‘rni. i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan diss. Toshkent. 2005 y. - 44 b.

Xorijiy va mahalliy tajribalar asosida oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash	1. Ta'lim tizimini boshqarish maqsadlarini aniqlash. 2. Oliy ta'lim tizimi aniq vazifalarining ta'rifi 3. Oliy ta'lim xizmatlari bozorini tahlil qilish (turli nomutanosibliklar, tendensiyalar) 4. Tadqiqot natijalarini umumlashtirish 5. O'rganish natijalarini umumlashtirish, istiqbollashtirish
---	---

1.4-rasm. Xorijiy va mahalliy tajribalar asosida oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash⁴⁵

Oliy ta'lim xizmatlari va mehnat bozorlarini samarali rivojlanishi oliy ta'lim xizmatlari sub'ektlari bo'lgan oliy o'quv yurtlari tomonidan tayyorlanadigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash bilan bog'liq. Chunki bozor munosabatlari sharoitida erkin raqobatga asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida innovatsiya yangiliklarini kiritish asosidagina mamlakatni jahon xo'jaligi bozorida raqobatbardoshligini ta'minlash respublikamizni ilmiy salohiyatidan foydalanish darajasiga bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonida "Oliy ta'lim muassasalari faoliyati samaradorligini baholash va takomillashtirish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish asosida ularni respublika oliy ta'lim muassasalari sharoitida qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish" alohida ko'rsatib berilgan⁴⁶.

Shuningdek mazkur farmonda oliy ta'lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va boshqaruv faoliyatini takomillashtirish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi funksiyalarini xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, bunda ta'lim sifatini baholashning yangi mexanizmlarini joriy etish, kadrlar buyurtmachilari va talabalar o'rtasida o'tkazilgan milliy so'rov natijalarini chuqur tadqiq qilish orqali muammolarni bartaraf etish, davlat va nodavlat ta'lim

⁴⁵ Ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi

⁴⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 17 martdagi PF-89-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 18.03.2022 y., 06/22/89/0227-son. <https://lex.uz/docs/-5914998>

muassasalarida ta'lim sifatini ta'sirchan instrumentlar yordamida nazorat qilib borish, bitiruvchilar sifati va ularning ixtisosligi bo'yicha ishga joylashish masalalariga e'tibor qaratish chora-tadbirlariga ham alohida e'tibor qaratilgan⁴⁷.

O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotini rivojlantirish uchun intellektual oliy malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash oliy o'quv yurtlarida malakali professor va o'qituvchilar tomonidan berilgan va talabalar, magistrlar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlar hamda ta'lim xizmatlarini baholash oliy ta'lim sifatini oshirish, uni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan jahon xo'jaligi bozorida raqobatdoshligini ta'minlaydi. Bu esa, ta'lim tizimini innovatsiyalashtirish natijasida mamlakatimizni rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqishning iqtisodiy vositalaridan biri hisoblanadi, buni eng rivojlangan xorijiy davlatlar misolida ko'rish mumkin.

Olimlarning fikricha davlat siyosatining inson kapitaliga yo'naltirilganligining mamlakat iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etadi⁴⁸. Inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan siyosat orqali mamlakat aholi hayoti turmush sifati va darajasi yaxshilanadi deb hisoblanadi.

“Xorijiy rivojlangan mamlakatlarda oliy ta'lim tizimini rivojlantirish ikki xususiyatga markaziy boshqaruvga va oliy o'quv yurtlarida mutaxassislar tayyorlashni bozor munosabatlari talablaridan kelib chiqqan holda ularni diversifikatsiyalashtirishga asoslanadi. Markazlashtirilgan holda oliy o'quv yurtlarini boshqarishni amalga oshirilishining sababi oliy ta'limni har bir mamlakat milliy iqtisodiyotini raqobatbardoshligini jahon bozorida ta'minlashdan iborat⁴⁹.

Oliy ta'lim sifati muammolariga doir ingliz tilidagi nashrlarda

⁴⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 17 martdagi PF-89-son “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 18.03.2022 y., 06/22/89/0227-son. <https://lex.uz/docs/-5914998>

⁴⁸ Мухтарова К.С. Распределение доходов и бедность в переходной экономике. — Алматы, 2001 г. — 223 с.

⁴⁹ X.Rejapov. Oliy ta'lim tizimida xorij tajribasi va ulardan foydalanish imkoniyatlari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2017 yil № 2, 2017 www.iqtisodiyot.uz.

qator bosqichlardan (rejalashtirish, baholash va monitoring, tahlil va boshqa bosqichlar) iborat ham tashqi, ham ichki baholashni – keng ma’nodagi sifatni baholash tizimini anglatuvchi «quality assessment» atamasi ko‘proq ishlatiladi. Tor ma’noda sifatni baholash protseduralarini belgilashda «quality evaluation», «quality audit», «quality judgement» kabi atamalar qo‘llaniladi.

Shuningdek, Evropada sifatni ta’minlash yoki sifat kafolati tarzida tarjima qilinishi mumkin bo‘lgan «quality assurance» atamasi ham ishlatiladi. Sifatni ta’minlash tizimi baholash bilan bog‘liq bo‘lgan bosqichlardan tashqari ularni joriy etish bosqichlarini takomillashtirishga doir izlanish va qaror qabul qilish bosqichlarini ham qamrab oladi. Sifatni ta’minlash tizimining eng muhim xususiyati uning davriyligi va takomillashib borishga moyilligidir.

“Ta’lim sifatini baholash muammosi hamma vaqt dolzarb bo‘lgan, faqat keyingi yillarda bu masala echimiga tizimli majmuaviy tarzda yondashila boshlandi. Chet el olimlari va amaliyotchilari ta’lim sifatini tadqiq qilish doirasida ta’lim sifati tushunchasining o‘zini aniqlashtirmoqdalar, baholash mezonlarini ishlab chiqmoqdalar, yuqori sifatni ta’minlovchi omillarni tasniflamoqdalar, ta’lim sifatini boshqarish va monitoringi muammolarini o‘rganmoqdalar”⁵⁰. Rivojlangan mamlakatlarda jumladan, Evropa mamlakatlarida ta’lim xizmatlarini baholash tizimlarini joriy etish orqali taqqoslash imkonini beruvchi ta’lim sifatini ta’minlash yagona ta’lim makonini shakllantirishda alohida o‘rin egallaydi. Ta’lim xizmatlarini baholash tizimlarining amaliyotda qo‘llanilishiga qarab ikki modelga bo‘lish mumkin:

1) Oliy ta’lim muassasasining mas’uliyatini attestatsiya, akkreditatsiya va nazorat qilish vositasida tashqi baholashga asoslangan «fransuzcha» modeli. Mazkur baholash Skandinaviya mamlakatlari, Chexiya, Latviya, Estoniya, Belorussiya va boshqa mamlakatlarda keng qo‘llaniladi. Mazkur davlatlarning ta’lim xizmatlarini baholashning maqsadi shakllantiriladi, uning eng muhim jihatlari belgilanadi, ta’lim jarayonini tashkil etishga doir qarorlar qabul qilinadi. Bunday

⁵⁰Мотова Г.Н., Наводнов В.Г. Системы аккредитации за рубежом: Научное издание. – Йошкар-Ола: Центр государственной аккредитации, 2004. – с. 58.

baholashda ko‘proq e‘tibor tashqi baholanishga qaratilganligi sababli, ta‘lim muassasasi tomonidan o‘zini-o‘zi baholashga, monitoring o‘tkazishga to‘liq e‘tibor qaratilmaydi va yuzaki baholanadi.

Ta‘lim muassasalarida tashqi nazorat me‘yoriy va ilmiy jihatdan ta‘minlanish borasida tizimli nazoratlarga erishgan bo‘lsada, miqdoriy ko‘rsatkichlarni aniqlashga asoslangani sababli mavjud muammo va yutuqlarni aniqlash, ta‘lim sifatini oshirishni rejalashtirish imkonini bermaydi.

2) Oliy ta‘lim sifatini baholashning «inglizcha» modelining asosini ta‘lim muassasasi tomonidan o‘zini-o‘zi baholash tashkil qiladi. Mazkur model amaliyotda Fransiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, AQSH, Lotin Amerikasi, Janubiy-G‘arbiy Osiyo mamlakatlarida keng qo‘llaniladi. Inglizcha model qo‘llaniladigan mamlakatlarda ham bir-biri bilan farqlanadi, shu jumladan, Fransiyada oliy ta‘lim muassasasi faoliyatining tashqi nazorati OTMlarni baholash bo‘yicha Milliy qo‘mita tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu boshqaruv va tahlil qo‘mitasining asosiy vazifasi muayyan OTMlar va mamlakatdagi oliy ta‘limning holati ko‘rsatkichlarini davriy ravishda xolis baholashdan iborat. Baholash natijalari axborot va tavsiyaviy xarakterga ega bo‘lib, dastlab davlat va hukumatga, keng jamoatchilik e‘tiboriga ommaviy nashrlar orqali yoritiladigan yillik hisobotlar tarzida bayon etiladi.

Mazkur modelni amaliyotda qo‘llaydigan Germaniya va Buyuk Britaniyada ta‘lim sifatini ta‘minlashdagi bosh rol o‘quv muassasalari va bo‘linmalarining rahbarlari va o‘qituvchilar tarkibining kompetentligi va mas‘uliyatiga asoslangan ichki nazoratga ajratilgan edi. Germaniyaning oliy ta‘lim muassasalarida ichki nazorat asosan fakultetlar, aniqrog‘i ulardagi o‘quv jarayoniga javob beruvchi maxsus komissiyalar tomonidan olib borilar edi. Germaniyada davlat darajasida akkreditatsiya qilish yo‘lga qo‘yilmagan bo‘lib, davlatga tegishli OTMlar avtomat tarzida akkreditatsiyaga ega bo‘lardi.

“OTM boshqaruv tizimida e‘tiborga olinishi lozim bo‘lgan quyidagi uch asosiy trendni qayd etish mumkin:

1. Iqtisodiy o‘sishning bosh omili bo‘lgan inson kapitalini rivojlantirishda oliy ta‘lim muassasalari ahamiyatining oshib borishi.

2. To‘xtovsiz va bir umrlik ta‘limga bo‘lgan ehtiyojning

ko'payishi.

3. Iqtidorli yoshlar uchun raqobat kurashining keskinlashuvi. Shu o'rinda qayd etish lozimki, yaqin istiqbolda ta'lim muassasalari, korporatsiyalar va hatto mamlakatlar miqyosida ham yosh iqtidor egalari uchun raqobatlashish ustuvorlik kasb etadi"⁵¹.

Xorijiy tajribalarda oliy ta'lim sifatini baholashning umume'tirof etilgan uslubi yaratilmagan, ta'lim muassasalari reytinglarining bir necha davlatlar jumladan, Shanxay universiteti reytingi, Britaniya Kengashining TSL Education Ltd va boshqa universitetlar reyting baholash tizimi amaliyotda qo'llaniladi. Lekin, ularda ham bir nechta kamchiliklar kuzatiladi, reyting tizimi ko'rsatkichlarining mukammal emasligi, sub'ektivizm, oxirgi natijalarni taqqoslashdagi chalkashliklar va boshqalardan xoli emaslik. Bolonya deklaratsiyasiga Rossiya Federatsiyasining kirishi jarayonida sifatni ta'minlash jarayonining xalqaro ko'rsatkichlariga sifatni baholash, akkreditatsiya va sifat auditi tizimiga alohida e'tibor qaratilgan.

Xorijiy tajribalarga asosan, oliy ta'lim sifatini baholash tahlili ikki guruhga bo'linadi: ta'lim muassasini akkreditatsiya qilish va amalda qo'llaniladigan modellar. Shuningdek, OTM akkreditatsiya qilishning uchta asosiy modeli mavjud - AQSH modeli, Germaniya modeli, Avstraliya modeli.

Rivojlangan davlatlar tajribasiga ko'ra, oliy ta'lim muassasalarini baholash sifatini tahlil qilish milliy va xalqaro reytinglarda oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirish uchun milliy va xalqaro reytinglarda quyidagi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni amalga oshirish lozim akademik hamda moliyaviy mustaqillikni ta'minlash, oliy ta'lim sifatini baholash mezonlaridan foydalanish, mehnat bozori uchun raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, mehnat bozorida ta'lim dasturlari mobilligini ta'minlash va boshqalar.

Demak, xulosa qilish mumkinki, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti yo'lida raqobatbardosh, keng bilimli mutaxassis kadrlarni tayyorlab berish oliy ta'limning birlamchi vazifasi ekan, bu maqsadga

⁵¹Umarova X.U. Oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy boshqaruv tizimining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishning kontseptual asoslari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. №5, 2021 yil - 149 b. <http://iqtisodiyot.tsue.uz>

ta'lim xizmatlarini baholashning zamonaviy tajribalari, ta'lim berishning xalqaro tan olingan usul va vositalaridan unumli foydalanib izchil ravishda muttasil oshirib borish, ta'lim tizimining asosiy bo'g'ini bo'lgan professor-o'qituvchilarga mehnat faoliyatlarida o'sish imkoniyatlarini yaratib berish orqali erishish mumkin.

Kasbiy rivojlanish va o'qitishning xorij tajribasini o'rganish va tadbiq qilish o'z navbatida mamlakatdagi korxonalarda xodimlarning ish faoliyati va ishlab chiqarishning o'sishiga sabab bo'ladi. Xorijning yetakchi tashkilotlari ish haqi fondining 2%dan 10% gacha xodimlarning kasbiy rivojlanishi va ishlab chiqarish sohasiga tayyorlashga ajratadi. Rivojlangan mamlakatlarda xodimlarni kasbiy o'qitish davomiyligi 3 yildan ko'p bo'lmagan muddatda amalga oshiriladi.

AQSh, Yaponiya va Frantsiya xodimlarni kasbiy rivojlantirish sohasida katta va bir vaqtning o'zida o'xshash tajribaga ega mamlakatlar hisoblanadi (1.3-jadval).

1.3-jadval

Rivojlangan mamlakatlarda kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini tashkil etish⁵²

Mamlakatlar	Kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini tashkil etish
Germaniya, Gollandiya, Daniya Finlyandiya, Shvetsiya, Xitoy	Malaka oshirish kurslari uchun odatda ish joyida vaqt ajratiladi yoki ish joyi o'zgartiriladi
Belgiya, Buyuk Britaniya, Malta, Finlyandiya va Shvetsiya	Ish joyini o'zgartirmasdan malaka oshiriladi
Islandiya, Ispaniya, Lyuksemburg	Kasbiy rivojlanish ijodiy ta'til orqali bajariladi
AQSh, Yaponiya, Frantsiya	O'quv yuklamalari va boshqa majburiyatlari ko'pligi sabab ular kurs uchun vaqt ajrata olmaydalar, qisqa kurslar tashkil qilinadi va qat'iy davlat nazoratida

Olimlarning fikricha⁵³ “Kadrlar salohiyatini innovatsion rivojlantirish borasidagi yapon tajribasi diqqatga sazovor.

⁵²Muallif ishlanmasi

⁵³Вотякова И. В. Инновационное развитие кадрового потенциала организации в условиях реструктуризации // Ж. Экономика строительства. – 2011. - № 2 (8). – С.23

Yaponiyaning mehnat unumdorligi borasida dunyoda eng yuqori ko'rsatkichlardan biriga erishishi, innovatsion mahsulotlar sifatining yuqoriligi, yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda yetakchilik qilishi, mamlakat yalpi ichki mahsulotining hajmi bo'yicha dunyoda uchinchi o'rinni egallashi buning natijasi hisoblanadi". Yapon korporatsiyalarida kadrlar salohiyatini innovatsion rivojlantirish yo'nalishlarini uch guruh bilan ifodalash mumkin (1.4-jadval).

1.4-jadval

Yapon korporatsiyalarida kadrlar salohiyatini innovatsion rivojlantirish yo'nalishlari⁵⁴

Kasbiy rivojlanish imkoniyatlari	Kasbiy rivojlanishning mohiyati
Kasbiy rivojlanishning ijtimoiy-siyosiy jihatlari	Davlat tomonidan boshqaruvning mohiyati, xalqaro va ichki munosabatlardagi manfaatdorlik xususiyatlari bilan belgilanadi.
Kasbiy rivojlanishning tarkibiy-funksional jihatlari	Boshqaruv tizimi tuzilishi, vazifalari va maqsadi, real faoliyat jarayonida faoliyat yuritish tartibi bilan belgilanadi.
Rahbarning boshqaruv faoliyatini takomillashtirish	Yapon korporatsiyalarida kasbiy rivojlanishning normativ hujjatlar va uslubiy tavsiyalarda innovatsion jihatlari ifodalaydi va boshqaruvning me'yoriy-huquqiy asoslari, boshqaruv faoliyatining motivatsiyalash va rag'batlantirishning o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi.

“Kadrlar salohiyatini innovatsion rivojlantirish doirasida inson resurslarini boshqarish har qanday ijtimoiy-iqtisodiy tizimga xos bo'lgan eng asosiy funktsiyalardan hisoblanadi. Masalan, Yaponiyada kadrlar salohiyatini innovatsion rivojlantirish sharoitlarini shakllantirish uchun zarur bo'lgan rahbarning quyidagi o'n ikki qoidasi juda ommalashgan⁵⁵:

1. Rahbar haydovchi bo'lmazligi lozim. Haydovchi oldiga solib haydaydi, rahbar esa o'z ortidan ergashtiradi. Haydovchi o'z hokimligiga, rahbar esa unga ergashuvchilar yordami va ko'magiga

⁵⁴ Muallif ishlanmasi

⁵⁵ Akbarov A.M.Shakirova N.A. Kadrlar salohiyatini innovatsion rivojlantirish modeli (Yaponiya tajribasi misolida) “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2019 yil 12/2019 (№ 00040) www.iqtisodiyot.uz. 7 B.

tayanadi. Haydovchi qo‘l ostidagi xodimlarni mish-mishlar, taxminlar, farazlar va fikr-mulohazalar olamida yashashga majbur qiladi. Rahbar vaziyat bilan tanishtiradi, turli muammolarni hal etishga jalb qiladi.

2. Rahbar o‘z ishiga ishonishi, jasur, sobitqadam, dadil bo‘lishi va bu xislatlarni qo‘l ostidagi xodimlarga ko‘rsata olishi lozim. To‘g‘ri va dadil qadam tashlash, boshni tik tutish o‘ziga ishonch hissini shakllantirishga yordam beradi.

3. Rahbar boshqarish haqidagi fanni bilishi lozim.

4. U qo‘l ostidagi xodimlar vaqtini qadrlashga o‘rganishi lozim.

5. Rahbar jiddiy va talabchan bo‘lishi lozim. Lekin jiddiylik va talabchanlik hech qachon qo‘pollik, injiqlik va tirnoq ostidan kir izlashga aylanib ketmasligi lozim.

6. Tanqid qila olish va tanqidni qabul qilish.

7. Jazolay olish va kechira olish. Bunda birinchi hayfsan yolg‘iz holda e‘lon qilinishi lozim.

8. Rahbar xushmuomala va ochiq ko‘ngil bo‘lishi lozim.

Hozirgi davrda Yaponiya ilmiy tadqiqotlarga ketgan sarmoya miqdori bo‘yicha dunyoda 2-o‘rinda turadi. Yaponiya ta’limining shakllanishi 1867-1868 yillarda boshlangan. Yaponiya o‘z oldiga 2 vazifani: 1-boyish, 2-g‘arb texnologiyalarini Yaponiya ishlab chiqarishiga kiritish masalasini qo‘ydi va bu ishni amalga oshirish uchun birinchi galda ta’lim tizimini tubdan o‘zgartirish kerakligini angladi.

Birinchi bob bo'yicha xulosa

1. "Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish sharoitida oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash tizimi rivojlanishining nazariy asoslari" mavzusidagi birinchi bobni yoritishda oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash tizimining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, mazmuni va nazariy yondashuvlar tadqiq etilgan. Ta'lim sifati – bu hozirgi kunda mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida eng ko'p bahs-munozaralarga duch kelayotgan va davlat hamda jamiyat tomonidan alohida e'tibor qaratilayotgan muammolardan biridir. Chunki, mutaxassislarni tayyorlash sifatining past yoki yuqoriligi doimo ish beruv-chilar, talabalar, ularning ota-onalari umuman olganda butun jamiyat a'zolarining diqqat markazida turadigan masala sanaladi.

2. Monografiyada "Oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash" kategoriyalarining mohiyati, mazmuniga muvofiq olimlar tomonidan o'rganilgan nazariy yondashuvlarga asoslanib, mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan. Muallifning fikricha oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash – oliy ma'lumotli mutaxassislar buyurtmachilarining talablari asosida yuqori malakali kadrlarning zamonaviy va eng oxirgi bilimlarni egallashlari, oliy ta'lim tizimini ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot istiqbollari va jamiyat ehtiyojiga mosligini ta'minlaydigan, sohani nazariy bilimlar bilan mutanosib ravishda amaliyotga moslashtiradigan oliy ta'lim tizimining sifatini baholashning yangi mexanizmlarini joriy etishdir.

3. Oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash mezonlari va ko'rsatkichlariga ta'sir ko'rsatuvchi omillar oliy ta'lim tizimini sifat jihatdan rivojlantirish zamonaviy talablar asosida uning sifatini oshirish, OTM larning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bevosita ta'lim sifatiga ta'sir ko'rsatadi. Bizningcha oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash ta'lim muassasalarini litsenziyalash, attestatsiya va akkreditatsiyadan o'tkazish, sifatli ta'lim xizmatlari ko'rsatish imkoniyatlarini tanlashni ta'minlash bilan belgilanadi. Oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash tizimining o'rni ko'p jihatdan ta'lim sifati, iste'molchilarning bilimni baholash, kasbiy sifatlarini rivojlantirish munosabatlariga bog'liq. Ta'lim sifatining mohiyati, ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, uning bosqichlari, tamoyillari mamlakatning innovatsion

rivojlanish yo‘liga o‘tishi va ko‘p jihatdan ta’lim tizimining zamonaviy holati va jamiyatning ilmiy-tadqiqot salohiyatiga ta’sir ko‘rsatadi, shu nuqtai nazardan oliy ta’lim xizmatlarini sifatini baholovchi ko‘rsatkichlar tizimi mazkur sohaga tegishli me’yoriy-huquqiy hujjatlar va boshqa manbalar asosida muallif tomonidan guruhlangan.

4. Mazkur bobda muallif tomonidan xorijiy va mahalliy tajribalar asosida oliy ta’lim xizmatlari sifatini baholash asosida uning asosiy mazmuni OTM xizmatlari bozori haqida umumiy ma’lumotlar to‘plandi, rivojlangan mamlakatlarda jumladan, Evropa mamlakatlarida ta’lim xizmatlarini baholash tizimlarini joriy etish orqali taqqoslash imkonini beruvchi ta’lim sifatini ta’minlash yagona ta’lim makonini shakllantirishda alohida o‘rin egallaydi. Shu nuqtai-nazardan ta’lim xizmatlarini baholash tizimlarining amaliyotda qo‘llanilishining ikki xil modeli tadqiq qilindi, jumladan, fransuzcha va inglizcha modelning farqli tomonlari ushbu modellarning amaliyotda qo‘llaydigan davlatlarda ta’lim sifatini ta’minlashdagi asosiy e’tibor o‘quv muassasalari va bo‘linmalarining rahbarlari va o‘qituvchilar tarkibining kompetentligi va mas’uliyatiga asoslangan ichki nazoratning o‘ziga xos afzal tomonlari tadqiq qilindi. Xorijiy tajribalaraga asosan, OTM baholash sifatini tahlil qilish milliy va xalqaro reytinglarda oliy ta’lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirish uchun akademik hamda moliyaviy mustaqillikni ta’minlash, oliy ta’lim sifatini baholash mezonlaridan foydalanish, mehnat bozori uchun raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, mehnat bozorida ta’lim dasturlari mobilligini ta’minlashni kengaytirib borish ijobiy samara beradi.

II BOB. OLIY TA'LIM XIZMATLARI SIFATINI BAHOLASH TIZIMIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI OMILLAR VA ULARNING TAHLILI

2.1-§. Oliy ta'lim xizmatlari raqobatbardoshlik darajasi tahlili va ta'lim xizmatlari sifati darajasini baholashga uslubiy yondashuvlar

Mamlakatimizda ta'lim xizmatlarining rivojlanib borayotganligi va ijtimoy-iqtisodiy siyosatda uning etakchi o'rinlardan birini egallaganligi hamda boshqa tarmoqlar, sohalar bilan o'zaro mutanosibliigi ta'lim xizmatlari faoliyatining murakkablashuvi bu boradagi muammoli vazifalarni hal qilish borasida turlicha yondashuvlarni yuzaga keltirmoqda. Hozirgi ta'lim tizimini ayniqsa, oliy ta'limni tanqidiy tahlil qilish asosida zamonaviy yangi ta'lim tizimining kadrlar talab va ehtiyojlari asosida tashkil qilish turlicha g'oyalar, qarashlar oldinga surilmoqda.

Zero respublikamizning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun zarur, "jahon mehnat bozorida raqobatbardosh va yuqori malakali mutaxassislarni etakchi xorijiy ta'lim muassasalari hamda O'zbekistonda tayyorlash va malakasini oshirish orqali kadrlar bilan ta'minlash aniq maqsadlari belgilab berilgan"⁵⁶.

Ta'lim xizmatlari sifatini baholashning umumiy tuzilmasi tarkibiga kiradi va uning samaradorligi ta'limning umumiy boshqaruvini oshishini, ta'limda raqobatbardoshlikni ta'minlashi mumkin bo'lgan tuzilma hisoblanadi. SHuning uchun ham ta'lim sifati menejmenti ta'lim tizimidagi boshqaruv faoliyatining mavjud nazariyasi va amaliyotini muhim elementlar bilan to'ldiradi va samarali natijaviyligini ta'minlaydi.

Respublikamizda "Ta'lim sifati" tushunchasi birinchi marta 1997 yilda O'zbekiston Respublikasi me'yoriy-huquqiy hujjatlarining ta'lim sifati ustidan davlat nazoratiga bag'ishlangan modda va bo'limlarida rasman qayd qilingan bo'lib, keyingi yillarda ta'lim sifatini

⁵⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 25 sentyabr PF-5545-sonli "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo'yicha "El-yurt umidi" jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni.

ta'minlashga doir qator nazariy va amaliy ishlanmalarning yaratilishiga turtki bo'lmoqda.

Mamlakatimizda olib borilayotgan ta'lim sohasidagi o'zgarishlarga asosan, ko'pgina yangi tashkil etilgan oliy ta'lim muassasalari faqatgina Toshkent shahrida emas, balki viloyatlarda ham tashkil etilayotganligi yoshlar uchun ta'lim olishning qulayligini yanada oshiradi (2.1-jadval).

2.1-jadval

O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim muassasalari soni (o'quv yili boshiga, birlik) ⁵⁷

Viloyatlar	O'quv yillari						2017-2023 y.y. o'sish, %
	2017/ 2018	2018/ 2019	2019/ 2020	2020/ 2021	2021/ 2022	2022/ 2023	
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2	6	9	9	10	11	5,0 marta
viloyatlar:							
Andijon	4	4	5	6	8	10	2,0 marta
Buxoro	4	5	5	5	6	8	2,0 marta
Jizzax	2	2	3	3	4	5	2,5 marta
Qashqadaryo	2	3	6	6	6	7	3,0 marta
Navoiy	2	2	2	2	2	4	100,0
Namangan	3	3	3	3	3	10	100,0
Samarqand	6	8	11	12	14	14	2,3 marta
Surxondaryo	1	7	7	7	7	4	7,0 marta
Sirdaryo	1	1	2	2	2	2	2,0 marta
Toshkent	2	5	5	8	8	11	8,0 marta
Farg'ona	3	7	10	10	11	8	3,7 marta
Xorazm	1	3	3	3	6	7	6,0 marta
Toshkent sh.	39	42	48	51	67	90	172,0
Respublika bo'yicha jami	72	98	119	127	154	191	2,6 marta

2.1-jadvalda hududlarda faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim muassasalari salmog'ining o'zgarishi keltirilgan bo'lib, respublika bo'yicha bu ko'rsatkich o'sib borgan, tadqiqot ob'ekti hsoblanagan Jizzax viloyatida esa bu ko'rsatkich 2017 yilga nisbatan 2,5 martaga oshib borgan.

Oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash ko'rsatkichlari ta'lim

⁵⁷O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

muassasasi faoliyatining samaradorligi sohasini tezkor belgilashga imkon yaratadi. Oliy ta'lim sohasidagi adabiyotlarda qayd etilishicha "Oliy ta'lim sohasidagi sifat, uning quyidagi funksiyalari va faoliyat turlarini qamrab oluvchi ko'p o'lchamli konsepsiya hisoblanadi: o'quv va akademik programmalar, ilmiy tadqiqotlar va stipendiyalar, kadrlar bilan taminlash, o'quvchilar, bino, moddiy-texnikaviy asos va jihozlar, jamiyat farovonligi yo'lidagi ishlar. Sifat muammosini hal etishda unga tasir etuvchi omillarni butun majmuini ular o'zaro bog'liqligi va o'zaro harakatida boshqarish lozim, ya'nii tizimli yondashishdan foydalanishi kerak"⁵⁸.

Mazkur yondoshuvni o'rganishdan avval uzluksiz ta'limning maqsadini yana bir bor izohlash lozim. "Uzluksiz ta'limning maqsadi bilimlar iqtisodiyotining innovatsion rivojlanish bo'g'inining ajralmas bo'g'ini sifatida insonning o'zgarishlarga va iqtisodiyotni modernizatsiyalashga, kasbiy hayot, madaniyat, jamiyat va hokazolarga moslashish qobiliyatini mustahkamlash sifatida namoyon bo'ladi"⁵⁹.

Olimlarning ta'kidlashicha "hozirgi davrda har bir mamlakat raqobatbardoshligi avvalo, uning ta'lim va fan darajasiga bog'liq. Iqtisodiyot va jamiyat rivojlanishining zamonaviy holati inson faoliyatining kasbiy va kasbiy tayyorgarlik sifati darajasiga har qachongidan ham ko'proq talablar qo'ymoqda. Zamonaviy xodimning ma'lum bir ish faoliyatiga moslik darajasini baholash borasidagi talablar doimiy ravishda o'zgarib va kuchayib bormoqda. Bunda "Kasbiy kompetentlik" sifatida uning nafaqat kasbiy bilimlari, malaka va ko'nikmalari, balki mantiqiy fikrlashi, tashabbuskorligi, uddaburonligi, guruhda ishlash va hamkorlik qilishga bo'lgan qobiliyati, ma'lumotlilik va boshqa sifatlari muhim ahamiyat kasb etadi"⁶⁰.

Ta'lim sifati nazorati ichki va tashqi baholashdan iborat bo'lib,

⁵⁸ Перегудов Л.В., Saidov M.X. Oliy ta'lim menejmenti va iqtisodiyoti. T.: «Moliya» nashriyoti, 2002 y. - 60 b.

⁵⁹ Никитенко Л.И. Самостоятельная работа в системе индивидуального образовательного маршрута студента// Устойчивое развитие науки и образования. 2016. №3. С.17

⁶⁰ Nurimbetov R.I. Abduraxmonova G.Q. Raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda uzluksiz ta'lim tizimining o'rni va ahamiyati. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2018 yil 2/2018, -9 b. (№ 00034) www.iqtisodiyot.uz

mazkur baholashlarning mexanizmlari turlicha bo'lishi va ta'lim sifatini ta'minlashda ichki baholash hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Bugungi kunda jahon oliy ta'lim tizimida 10 dan ortiq ta'lim sifati menejmenti modellari qo'llanilib kelinmoqda va bu modellar oliy ta'lim muassasalarining sifat bo'yicha talab qilingan natijalariga erishiga qaratilgan faoliyat jarayonlari va jihatlariga nisbatan belgilangan talablar va ko'rsatkichlar, tamoyillar, metodlar hamda ushbu jarayonlarning takomillashuv darajasini belgilab beruvchi mezonlar, ularni baholash yo'llari yig'indisi deb tushuniladi. Sifatni baholashga asoslangan modellar tizimli ravishda o'z-o'zini baholash, SWOT –tahlili vastasida OTM faoliyatining kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlash va kamchiliklarni bartaraf etishni nazarda tutadi.

Oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholashga uslubiy yondashuvlarni yoritishda xizmatlar tushunchasining iqtisodiy mohiyatini kengroq yoritish maqsadga muvofiq. Bu borada F.Kotlarning fikriga e'tibor qaratamiz, "Xizmat bu – bir tomon ikkinchi tomonga taklif etishi mumkin bo'lgan, asosan sezilmaydigan va biror narsaga egalik hissini bermaydigan istalgan chora-tadbirlar yoki harakatli foyda"⁶¹.

Mahalliy olimlardan M.Q.Pardaev ko'rsatishicha, "Xizmat deyilganda, insoniyat, xo'jalik yurituvchi sub'ektning, davlatning va jamiyatning ma'lum bir ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan kishilarning naf keltiradigan xizmat jarayoni bilan bog'liq ongli faoliyati tushuniladi. Ta'lim xizmati shu xizmatlarning bir yo'nalishi bo'lib, o'ziga xos xususiyatlarga ega"⁶².

"Mehnat bozori bilan oliy ta'lim xizmatlari bozorlari o'rtasidagi munosabat oliy ta'lim bozori talablarini e'tiborga olgan oliy ta'lim xizmatlari tizimi tomonidan tayyorlangan oliy malakali mutaxassislariga bo'lgan jami taklifga bog'liq. Oliy ta'lim xizmatlari tizimida tayyorlangan oliy malakali mutaxassislar va iqtisodiy faollikda band bo'lgan oliy malakali mutaxassislar oliy ta'lim bozorida jami taklifni ifodalasa jami talab oliy malakali mutaxassislariga bo'lgan talab ifoda

⁶¹ Котлер Ф. Маркетинг-менеджмент. Экспресс-курс. 2-е изд / Пер. С англ.: под ред. С.Г. Божук. – СПб.: Питер, 2005. – С. 301.

⁶² Pardaev M.Q. va boshqalar. Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyotinig ayrim muammolari. Monografiya. – T.: "Navro'z" nashriyoti, 2014. – B.11.

etadi”⁶³.

Yuqoridagi fikrlarga qo‘shilgan holda mamlakatimizda ta’lim xizmati ta’lim beruvchi tashkilot va undagi professor-o‘qituvchilar tomonidan davlatning hamda jamiyatning rivojlanishi uchun ma’lum belgilangan ehtiyojini qondirishga yo‘naltirilgan, inson kapitalini shakllantirishga xizmatlarni ko‘rsatishdir.


Olib borilgan tadqiqotlarga asoslanib ta’kidlash lozimki, oliy ta’lim xizmatlari sifatiga ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlar – bu ta’limni boshqarish va tashkil etish elementlarini o‘z ichiga oluvchi vositalarning o‘zaro integratsiyalashgan tizimidir. Turli usullar va vositalarni qo‘llash asosida ta’lim xizmatlarining ishlab chiqaruvchilari va uning iste’molchilari faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarga alohida e’tibor qaratish lozim.

Xalqaro mehnat bozoriga bitiruvchilarni yo‘naltirish hamda ta’lim mahsulotini yakuniy iste’molchisi sifatida milliy iqtisodiyot tarmoqlari bilan uning aloqasini kuchaytirish oliy ta’lim xizmatlari sifatini baholashning eng muhim yo‘nalishi bo‘lishi maqsadga muvofiq. Oliy ta’lim sifati tushunchasi manfaatdor guruhlar va turli vakolatli tashkilotlar tomonidan turlicha qabul qilingan. Xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan manbalarda uning uch komponenti haqida ma’lumotlar uchraydi: ta’lim sub’ektlari; ta’limning me’yoriy hujjatlari; ta’lim muhiti⁶⁴.

Iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashda hamda viloyatning mehnat bozori va muayyan tashkilot (korxonalari) da bandlik holatini belgilashda oliy ta’lim muassasalarining bitiruvchilari alohida o‘rin egallaydi (2.1-rasm).

⁶³ Rejapov X.X., Mehnat va oliy ta’lim xizmatlari bozorini tartibga solish mexanizmi. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2016 yil –B.1 www.iqtisodiyot.uz

⁶⁴ Наймушин А.И. Структура системы управления качеством образования: основные направления развития// Ж. Инновационная технология. – 2004, № 1. С. 7.



2.1-rasm. Jizzax viloyati OTM larini bitirgan mutaxassislar soni⁶⁵

Yuqoridagi diagrammada keyingi yillarda Jizzax viloyati oliy ta'lim muassasalarini bitirgan mutaxassislarning o'zgarishi keltirilgan bo'lib, ularning soni yildan yilga ortib borayotganligini ko'rish mumkin, jumladan, 2023 yilda ularning soni bakalavriat 4519 nafar va magistratura 1098 nafarga yetganini ko'rish mumkin.

Olib borilgan tadqiqotlarga asoslanib ta'kidlash lozimki, Jizzax viloyatida bitiruvchilarning 27,5 % foizi o'z mutaxassisliklari bo'yicha faoliyat yuritmayotganligi aniqlandi. Bunday holatga bitiruvchilarning tanlagan mutahassisliklari bo'yicha ish tanlashlariga turli xil omillarning bevosita ta'siri aniqlanib uni quyidagiga guruhlab chiqdik:

Birinchi guruh – bitiruvchilarning OTM ga kirishiga bo'lgan maktab, litsey, kollej, kasb-hunar egallash markazlari, korxona, tashkilotlardagi faoliyati.

Ikkinchi guruh – oliy ta'limda tahsil olish jarayonida malakaviy amaliyotlarning takshil etilish holati, ish beruvchilarning qiziqishlari va mehnat yarmakalarini tashkil etilishining sifat darajasi.

Chunki, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishga, Respublikada amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, ijtimoiy va iqtisodiy sohalaridagi yangilanishlarda ushbu muassasalarning faol ishtirokini ta'minlashga to'siq bo'layotgan bir qator muammolar saqlanib qolmoqda, xususan:

⁶⁵ Jizzax viloyat Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

oliy ta'lim tizimida o'qitishni tashkil etish jarayoni, ta'lim olayotgan talabalar bilimni baholash tizimi bugungi kun talablariga javob bermayapti;

professor-o'qituvchilarning faoliyatini, bilimni va pedagogik ko'nikmasini baholashning zamonaviy tizimi mavjud emasligi ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda;

oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim jarayoni ustidan samarali jamoatchilik nazoratining o'rnatilmaganligi ushbu sohada ko'plab muammolarning, eng avvalo, korrupsiya holatlarining saqlanib qolishiga sabab bo'lmoqda;

oliy ta'lim muassasalarining mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli va tizimli o'zgarishlardagi ishtiroki hamda tashabbuskorligi sezilmayapti, ularning ushbu yo'nalishdagi faoliyati hanuzgacha qoniqarsiz bo'lib qolmoqda;

Respublikamizda olib borilayotgan tub islohotlarning mazmuni va mohiyatini ommaviy axborot vositalari orqali xalqimizga, keng jamoatchilikka tushuntirishda oliy ta'lim muassasalarining faol ishtiroki yo'lga qo'yilmagan;

oliy ta'lim muassasalari innovatsion va texnologik g'oyalar bilan fikr almashadigan muloqot markazlariga aylanmagan, tegishli sohalarda mavjud muammo va kamchiliklarni tizimli o'rganish, tahlil qilish va ularning yechimi bo'yicha taklif kiritish borasida professor-o'qituvchilar, yosh olimlar va talabalarning tashabbus ko'rsatishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmagan.

Bu borada olimlar tomonidan ilgari surilgan bir qator metodikalarga to'xtalib o'tamiz. Jumladan, "talabalarni tayyorlash kelajak kasbiy faoliyatni samarali olib borish uchun zarur malaka va ko'nikmalarni shakllantirishni taqozo qiladi. Bu vazifa OTM zimmasiga yuklatilgan, ish beruvchi esa qisman nazoratchi rolini ijro etadi. Korxona esa buyurtmachi sifatida o'quv dasturlari, o'quv-uslubiy majmualarni ishlab chiqish, maxsus fanlarni o'qitish jarayonida bevosita ishtirok etishi zarur"⁶⁶. Mazkur jarayonni samarali tashkil etish uchun oliy ta'lim muassasasi bitiruvchilari raqobatbardoshligi integral

⁶⁶ Annakulov K.X.Mehnat bozorida oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari raqobatbardoshligini oshirish. I.f.f.diss.avtoreferati.T.2023 y. 25 b.

ko'rsatkichini hisoblash metodikasi ilgari surilgan bo'lib, unda tarmoq OTM – korxona – ish beruvchi o'rtasida o'zaro bog'liq tizim faoliyatining samarali mexanizmini takomillashtirish tavsiya qilingan.

Bu borada oliy ta'lim sifatini faqat yagona bir ko'rsatkich bilan ifodalab bo'lmaydi yoki bir nechta ko'rsatkichlarni umumlashtirish zarur. "Iqtisodiy diagnostikaning "Qora quti"ga kiruvchi oqimlar (resurslar) va chiquvchi oqimlar yoki natijalar mavjud⁶⁷. "Qora quti" ichida sodir bo'layotgan jarayonlarni esa tahlil qilish imoniyati mavjud emas, deb qaraladi. Iqtisodiy diagnostika orqali kiruvchi oqimlar qanchalik darajada chiquvchi oqimlarga aylanayotgani yoki jalb etilayotgan resurslarni qanchalik darajada natija berayotgani baholanadi" deb hisoblanib, "Qora quti" modeli ilgari surilgan. Mazkur model orqali ta'lim sifati darajalarini alohida birinchi o'ringa qo'ygan holda qaror qabul qilishga imkon berib, professor-o'qituvchining akademik guruhlarida o'quv mashg'ulotini o'tkazishi ta'lim jarayoni sifatida qabul qilinadi hamda ta'lim oluvchilar soni va sifati (oliy ta'limgacha bilim darajasi), professor-o'qituvchilar soni, sifati va o'quv yuklamalari, mavjud moddiy texnik-baza (o'quv va yordamchi binolar, laboratoriyalar, o'quv maqsadlaridagi texnik vositalar, materiallar), axborot-kommunikatsion ta'minot, moliyaviy resurslar maydonga chiqadi. Jalb etilgan resurslardan foydalangan holda OTM oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlaydi va ilmiy tadqiqotlar olib boradi. Oliy ta'lim sifatini oshirishga ta'sir ko'rsatuvchi chora-tadbirlar oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash maqsadlarini shakllantirish ta'lim sifatini oshirishga ta'sir ko'rsatuvchi quyidagi chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi 2.2-rasm.

Oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash maqsadlarini shakllantirish	Oliy ta'lim sifatini oshirishga ta'sir ko'rsatuvchi chora-tadbirlar
	1. Ta'lim oluvchilarning raqobatbardoshligini shakllantirish mexanizmi mazmunini belgilash
	2. Ta'lim va tarbiya raqobatbardoshligiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlashtirish
	3. Bitiruvchining raqobatbardoshligi OTMda o'qish jarayonida shakllanishi asosida Bitiruvchi talabalarni

⁶⁷ Sotvoldiev N.J. Oliy ta'lim sifati iqtisodiy diagnostikasi va uning modellashtirish asoslari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2018 yil, - 4 b.

	tayyorlash sifati tahlili
	4. Ish topish, ish o'rnini egallash va raqobatbardosh imkoniyatlari egallash uchun mehnat bozoridagi vaziyat tahlil qilish
	5. Mehnat faoliyatining ehtimoliy variantlarini aniqlash va bitiruvchilar bandligiga ko'maklashish tahlili
	6. Raqobatbardoshlikni kompleks baholash uchun ko'rsatkichlar tizimini modellashtirish
	7. Bitiruvchilar raqobatbardoshligi darajasiga muvofiq tavsiyalar ishlab chiqish
	8. Oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash raqobatbardoshligini baholash uslubiyotini takomillashtirish
	9. Ilm-fanning sifatli va miqdoriy rivojlanishini o'rganish
	10. Ilmiy infratuzilmani modernizatsiya qilish ishlarini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish sur'atlarini oshirishga erishish.

2.2-rasm. Oliy ta'lim sifatini oshirishga ta'sir ko'rsatuvchi chora-tadbirlar⁶⁸

Mazkur metodikani ishlab chiqishda O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari asos sifatida olindi.

Oliy ta'lim xizmatlari sifatini belgilovchi omillardan biri bo'lgan bitiruvchilarning raqobat darajasi alohida ahamiyat kasb etadi. "Raqobatbardoshlik darajasini tahlil qilish OTMlari uchun ilmiy asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish, strategiyani ishlab chiqish hamda rivojlantirishning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash uchun zarurdir"⁶⁹.

Biz tomonimizdan olib borilgan tadqiqotlar asosida oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholashning uslubiy yondoshuvlar va raqobatbardoshlikni baholash uslublari, mazkur sohada umumlashtirilgan kompleks baholashning zaruriyatini keltirib chiqardi. Tadqiqotda oliy ta'lim xizmatlari sifatini kompleks baholashning keng

⁶⁸Muallif tomonidan guruhlangan

⁶⁹<https://www.dissercat.com/content/formirovanie-mekhanizma-povysheniya-konkurentosposobnosti-organizatsii-vysshego-obrazovaniya>

qamrovli metodologiyasini ishlab chiqishni zarur deb topdik va buni bajarishda sifatga ta'sir qiluvchi ichki va tashqi omillar, korxona talablari ta'sirini tahlil qilish orqali yondoshishni maqsadga muvofiq hisoblaymiz.

Biz olib borilgan tadqiqotlarga asoslanib, O'zbekistondagi ta'lim xizmatlari sifatini oshirish tendensiyalari, oliy ta'lim tizimini boshqarish va uning mehnat bozorini tartibga solishdagi aloqalarining sifatini oshirish va ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishga doir iqtisodiy asoslangan tavsiyanomalar ishlab chiqish uchun mehnat faoliyatini endi boshlagan OTMning sobiq bitiruvchilari ishtirokida sotsiologik so'rovnoma o'tkazildi (1-Ilova).

1. Siz OTM bitiruvchisi sifatida ijtimoiy-mehnat munosabatlari sub'ekti sifatida ishga joylashish jarayonida qanday kasbiy sifatlarni ko'rsatish kerak deb hisoblaysiz? degan savolga har uchinchi ishtirokchi (34,0%) oliy ta'lim tizimida ta'lim xizmatlari sifati darajasi va raqobatbardoshlik salohiyatini shakllantirishni oshirish zarurligini bildirdilar.

2. Siz oliy ta'lim xizmatlari sifatini qanday baholaysiz? degan savolga esa respondentlarning kattagina qismi (39,5 %) yaxshi, (23,2 %) qismi qoniqarli deb javob berganlar.

3. Siz xodimlarni qaysi bir sifat belgisiga qarab ishga yollanishini hoxlaysiz?

Mehnat faoliyatini boshlashga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy mezonlarni ishtirokchilarning har beshinchi ishtirokchi (20 %) malaka darajasi deb hisoblaydilar.

Sotsiologik so'rovnoma asosida hosil qilingan axborotlar bankiga asoslanib, biz quyidagi quyidagi yo'nalishlarini ilgari suramiz:

- ta'lim va tarbiya raqobatbardoshligiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash, talabalarni tayyorlash sifati tahlili, mehnat bozoridagi vaziyat, raqobatbardoshlikni kompleks baholash uchun ko'rsatkichlar tizimining samaradorligini oshirish;

- OTM bitiruvchilari raqobatbardoshligini shakllantirishda oliy ta'lim xizmatlari sifatini oshirish va bitiruvchilar raqobatbardoshligi darajasiga muvofiq tavsiyalar ishlab chiqish;

- ta'lim sifatini oshirish va mehnat bozori uchun istiqbol mutaxassisliklar tayorlashning zamonaviy tendensiyalarini davlatning tartibga solish funksiyasidan samarali foydalanish asosida takomillashtirish.

2.2-§. Oliy ta'lim xizmatlarining istiqbol maqsadlari va samarali rivojlantirishning prognoz parametrlari modellashtirish

Mamlakatimizda oliy ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil etish va boshqarish, oliy ta'lim sohasida tadbirkorlikni yanada rivojlantirish hamda raqamlashtirish raqamli iqtisodiyot sharoitida ayniqsa muhim hisoblanadi va ta'lim sohasida matematik modellarni qo'llash orqali unga ta'sir etuvchi omillarni hisobga olgan holda optimal darajada to'g'ri prognozlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida oliy ta'lim sohasining rivojlanishi yildan-yilga o'sish tendensiyasiga ega. Ayniqsa, oliy ta'lim sohasini raqamlashtirish orqali ta'limda xizmatlar hajmini yanada oshirish, xususiyl ta'lim tashkilotlariga keng yo'l ochib berish, bitiruvchilarni to'liq ish bilan ta'minlash juda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida "Tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq 5 mingga yaqin normativ-huquqiy hujjatlar qayta ko'rib chiqilib, ularning soni qisqartiriladi hamda Tadbirkorlik kodeksi ishlab chiqiladi. Xabaringiz bor, bundan 4 yil oldin tadbirkorlik sub'ektlarida tekshirishlar o'tkazishga moratoriy e'lon qilgan edik. Buning natijasida o'tgan davrda tadbirkorlar soni 2 barobar ko'payib, 400 mingtaga etdi. Shuning uchun moratoriy muddatini yana bir yilga uzaytirishni taklif etaman. Shu bilan birga, Hukumat tomonidan bozorda teng raqobat muhitini yaratish va halol-pok tadbirkorlarni – takror aytaman – zamonaviy texnologiyalar asosida ishlayotgan vijdonli tadbirkorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida "yashirin iqtisodiyot"ni qisqartirishga qaratilgan mexanizmlar joriy etiladi"⁷⁰.

Oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash tizimining rivojlanishiga

⁷⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi 2021 y. 29 dekabr. Lex.uz.

ta'sir ko'rsatuvchi omillar va ularning korrelyasion, regression tahlilini amalga oshirish iqtisodiy ko'rsatkichlarni matematik modellar orqali prognozashtirishga bag'ishlangan ilmiy asarlarini o'rgangan holda, oliy ta'lim hajmi o'sishiga ta'sir etuvchi omillar kelgusi etti yilga ekonometrik modellar orqali ilmiy prognozlash amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash tizimining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar ta'sirini baholash uchun mazkur sohaga aloqador ko'rsatkichlarni modellashtirish yo'nalishida keyingi bir necha yillarda ko'plab olimlar tomonidan o'rganib kelinmoqda. Oliy ta'lim hajmining omillar ta'sirida o'zgarish holatini ekonometrik modellar yordamida prognozlash masalalari rossiyalik olimlardan Rezinkina S.G., Kostyuk L.V., Rusina A.N., Karpicheva O., o'zbekistonlik olimlardan Salimov B.T., Arabov N.U., Mahmudov N., Ernazarov O.E., Xodiev B.YU., Zokirova N.K.lar tomonidan tadqiq etilgan.

Jizzax viloyatida oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash tizimi va bitiruvchilarni ish bilan ta'minlashni e'tiborga olgan holda tizimni rivojlantirishning 2030 yilgacha bo'lgan davrdagi prognoz parametrlari ishlab chiqildi. Oliy ta'lim xizmatlari sifati istiqbol maqsadlari va samarali rivojlantirishning prognoz parametrlari PEST tahlili bo'yicha korrelyasion-regression usullardan foydalanish bo'yicha, regression modellarni tuzish asosida ishlab chiqildi. Tadqiqotda korrelyasion-regression tahlil asosida ajratib olingan omillar ta'sirida oliy ta'lim hajmining o'zgarish ssenariylarini aniqlash imkonini beruvchi ekonometrik model hamda prognoz ko'rsatkichlar aniqlandi. Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida tadqiqot metodologiyasi sifatida PEST tahlil, ekspert baholash, analiz va sintez usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot davomida oliy ta'limiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar quyidagicha guruhlandi:

- Mikromuhit – ta'lim sifati, bitiruvchilarning ish bilan ta'minlanganligi;
- Makromuhit – ta'lim muassasalari o'rtasidagi raqobat, jamiyat holati.

PEST tahlili – bu tashkilot faoliyatiga ta'sir ko'rsatadigan makro muhitning barcha omillarini yagona tizimga to'plashning oddiy usuli

hisoblanadi. Bu usul uzoq muddatli rejalashtirish uchun alohida yoki SWOT tahlili bilan birgalikda ishlatiladi va ish natijalari SWOT jadvalidagi tahdid va imkoniyatlarning asosini tashkil etadi.

PEST tahlil omillari to'rtta omil guruhining qisqartmasi hisoblanadi: P - siyosiy; E - iqtisodiy; S - ijtimoiy-madaniy; T - texnologik. P harfi siyosiy va huquqiy sektorning barcha hodisalariga ishora qiladi. Ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun tadbirkorlik sub'ektining faoliyati amaldagi rejim va qonunchilikka, siyosiy barqarorlikka qanday bog'liqligini tushunish kerak. Odatda, oliy ta'lim tashkiloti faoliyatiga tovarlarga ustama qo'shimchani, soliqqa tortishni, tovarlarni sertifikatlashni, mijozlarni jalb qilish usullarini tartibga soluvchi qonunlar ta'sir qiladi. O'zgaruvchan qonunchilikdan tashqari, davlat biznesga boshqa vositalar yordamida ta'sir qilishi mumkin. SHuning uchun siyosiy omillarni tahlil qilishda mintaqadagi va sanoatdagi korrupsiya darajasi, davlatning xalqaro tashkilotlar va boshqa mamlakatlar bilan munosabatlarini hisobga olish tavsiya etiladi. Masalan, agar oliy ta'lim tashkiloti boshqa mamlakatdan tovar ishlab chiqarish uchun xom ashyo buyurtma qilsa, unda munosabatlarni hisobga olish kerak. E harfi oliy ta'limning iqtisodiy holatiga ishora qiladi. Bozorni iloji boricha tavsiflovchi oltita asosiy parametrlar mavjud:

- iqtisodiy rivojlanish: uning pasayishi, turg'unligi yoki o'sishi;
- valyuta kurslarining tebranishlari va shu bilan bog'liq bo'lgan pul zaxiralari qiymatining o'zgarishi;
- ishsiz fuqarolarning ulushi va ushbu ko'rsatkichning dinamikasi;
- iqtisodiyotning globallashtirish darajasi;
- sohada ish haqining o'sishi;
- xom ashyoning yuqori narxi;
- maqsadli auditoriya daromadlarining o'sishi;
- bank tendensiyalari.

S harfi ijtimoiy-madaniy omillarga ishora qiladi. Ularni tahlil qilish uchun demografik o'sishni kuzatib borish muhimdir (aholi sonining ko'payishi yoki kamayishi).

Biznesning rivojlanishi uchun unga professional xodimlar kerak, shuning uchun potensial kadrlar – sohada ishlayotgan va unga aloqador odamlar malakasi darajasi to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lish zarur.

Oliy ta‘lim xizmatlarga bo‘lgan talabni boshqarish uchun iste‘molchilarning o‘ziga xos mentaliteti, madaniy, qadriyatlarini yoki didini o‘ziga jalb qilishi kerak. Agar odamlar mahsulot yoki xizmatga oid afsonalar, stereotiplarga ega bo‘lsa, unda tahlillar davomida ularni tekshirish kerak.

T harfi texnologik omillarga ishora bo‘lib, sohadagi texnologik taraqqiyotni tavsiflaydi va quyidagi ko‘rstakichlarga e‘tibor qaratish kerak:

xizmatni yaratish va targ‘ib qilishda foydalaniladigan asosiy texnologiyalardagi o‘zgarishlarning mavjudligi. Ushbu guruhga nafaqat jihozlarni takomillashtirish, balki biznes yuritishning yangi usullarini joriy etish, ijtimoiy tarmoqlarda targ‘ib qilish, shuningdek xizmat resurslaridan oqilona foydalanish kiradi;

internet va mobil qurilmalarning xizmat va bozor rivojlanishiga ta‘siri darajasi;

ta‘lim tashkilotlarining samarali raqobatlashishiga imkon beradigan IT-yangiliklar.

Ba‘zi hollarda PESTEL tahlilidan foydalaniladi. Tahlil doirasida tabiiy yoki ekologik omillar (E - ekologik), agar ular oliy ta‘lim tashkiloti faoliyatiga ta‘sir ko‘rsatsa, qo‘shimcha ravishda o‘rganiladi. Masalan, omillar quyidagilar bo‘lishi mumkin: mintaqadagi iqlimning xususiyatlari, ob –havo, ekologik vaziyat va aholining sotib olish qobiliyati o‘rtasidagi bog‘liqlik. Shuningdek, mintaqaning asosiy daromad guruhi foydali qazilmalarni qazib olish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini etishtirishga to‘g‘ri keladigan bo‘lsa, PESTEL tahlilini o‘tkazish tavsiya etiladi. Bunday holda, potensial mijozlar va ularning daromadlari iqlim va ekologiyaga bog‘liq. PESTEL tahlili doirasida yuridik omillar (L – huquqiy) siyosiy omillarning katta guruhidan alohida ajralib turadi. Ushbu kichik guruh mehnat qonunchiligi, iste‘molchilar huquqlarini himoya qilishni o‘z ichiga oladi.

PESTELdan foydalanish sizga aniqroq strategiyani ishlab chiqishga imkon beradi. Atrof-muhit jihatlarini maqsadli auditoriyaning

aniq portretini yaratishga yordam beradi va huquqiy jihatlar xatarlar ehtimolini kamaytiradi. PESTEL tahlili xizmat omillarini alohida toifaga ajratishni nazarda tutadi. Bu ma'lum bir sohaga xos bo'lgan omillar. Bundan tashqari, ekologik va huquqiy omillar ham o'rganiladi.

Oliy ta'lim sub'ektlarining rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni korrelyasion-regression usullardan orqali, regression modellarni tuzish yo'li bilan rivojlanish istiqbolini bashorat qilish maqsadga muvofiq. Mazkur uslubiy yondashuvni aniqlash uchun birinchi navbatda sanoat tarmog'i sub'ektlari faoliyatining rivojlanishiga ta'sir etuvchi barcha omillarni aniqlash va korrelyasion-regression usullardan foydalanib, ulardan eng asosiylarini tanlab olishdan boshlanadi. Tadqiqot ob'ekti hisoblangan Jizzax viloyati bo'yicha Oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash tizimi rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar ekonometrik modelini tuzish uchun unga ta'sir etuvchi asosiy omillar tanlab olinadi.

Tadqiqot ishida ko'p omilli ekonometrik modeldagi qatnashadigan omillar sifatida – natijaviy omil etib, 10000 aholiga nisbatan bitirgan mutaxassislar soni (kishi), oliy ta'lim tashkilotlari soni (dona), oliy ta'limdagi talabalar soni (ming kishi), 10000 aholiga to'g'ri keladigan talabalar soni (kishi), oliy ta'limga qabul qilingan talabalar soni (ming kishi), bakalavriatga qabul qilinganlar soni (ming kishi), oliy ta'limni bitirgan mutaxassislar soni (ming kishi), bitirgan mutaxassislarning ishga joylashishi (foizda), jami 7 ta omil tanlab olindi.

Jizzax viloyati bo'yicha Oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash tizimi rivojlanishi ekonometrik modelini tuzish uchun unga ta'sir etuvchi omillar belgilanishlari amalga oshirildi (2.2-jadval).

2.2-jadval

Jizzax viloyati bo'yicha Oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash tizimi rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar⁷¹

Natijaviy ko'rsatkich: 10000 aholiga nisbatan bitirgan mutaxassislar soni, kishi – Y	
Omillar	Belgi
oliy ta'lim tashkilotlari soni (dona)	X ₁

⁷¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

oliy ta'limdagi talabalar soni (ming kishi)	X ₂
10000 aholiga to'g'ri keladigan talabalar soni (kishi)	X ₃
oliy ta'limga qabul qilingan talabalar soni (ming kishi)	X ₄
bakalavriatga qabul qilinganlar soni (ming kishi)	X ₅
oliy ta'limni bitirgan mutaxassislar soni (ming kishi)	X ₆
bitirgan mutaxassislarning ishga joylashishi (foizda)	X ₇

Ushbu omillarning natijaviy omilga ta'sirini aniqlash uchun korrelyasion-regression tahlil usullaridan foydalanish mumkin. Bu esa juft korrelyasiya koeffitsientlarini hisoblash yo'li bilan aniqlanadi. Bu usul, bizga, bir-birini takrorlaydigan va natijaviy omil bilan kuchsizroq bog'lanishda bo'lgan omillarni tuzilayotgan ekonometrik modelga kiritmaslik imkonini beradi (2.3-jadval).

So'ngra korrelyasion-regression usullar yordamida ko'p omilli ekonometrik model tuziladi. Omillar bog'liqligining ekonometrik modelini aniqlash uchun ko'p omilli korrelyasion-regression tahlil usulidan foydalaniladi. Ishda samaradorlik ko'rsatkichlarini tahlil qilish uchun quyidagi ekonometrik modeldan (ko'p omilli regressiya tenglamasidan) foydalanildi:

$$y = \beta_0 + \sum_{i=1}^m (\beta_i x_i), \quad (2.1)$$

Chiziqli model;

Bunda,

β_0 – ozod had;

y – 10000 aholiga nisbatan bitirgan mutaxassislar soni;

x_i –ta'sir etuvchi omillar;

β_i – ko'p omilli model parametrlari; ($i= 1,2,3....m$);

m – tanlangan omillar soni.

Berilgan $y=f(x_1, x_2, ..., x_n)$ bog'liqlikni topish zarur. Ushbu bog'liqlikdagi parametrlarni aniqlashda eng kichik kvadratlar usulidan foydalanamiz.

2.3-jadval

Korrelyasion-regression statistik taxlil uchun tanlab olingan natijaviy va ta'sir etuvchi omillar⁷²

	Y(t)	X ₁	X ₂	X ₃	X ₄	X ₅	X ₆	X ₇
2013	16	2	10,4	80	2,3	2,2	1,9	92
2014	17	2	10,5	82	2,3	2,2	2	91
2015	17	2	10,5	82	2,3	2,3	2,1	92
2016	18	2	10,9	84	2,4	2,3	2,3	93
2017	21	2	10,9	95	3,7	2,4	2,2	94
2018	21	2	14,7	109	4,9	5,1	2,8	96
2019	21	3	18,0	130	6,0	5,2	3,9	96
2020	28	3	23,3	166	8,3	6,5	3,9	97
2021	25	4	30,0	208	9,3	8,3	3,6	98
2022	26	5	37,0	250	8,6	8,4	3,8	81

Ko'p omilli korrelyasion bog'lanishning xususiyati shundaki, uning regressiya tenglamasida bir necha muhim va mohiyatli omillar ishtirok etadi. Bu omillardan eng mohiyatlisini to'g'ri tanlash va ularni regressiya tenglamasiga kiritish katta ahamiyatga egadir (2.4-jadval).

Omillarni tanlash va sifat jihatdan nazariy tahlil qilishga asoslanadi va uch bosqichda o'tkaziladi. Birinchi bosqichda (dastlabki tahlilda) omillar hech qanday shart qo'yilmasdan tanlanadi. Ikkinchi bosqichda ular juft korrelyasiya koeffitsentlaridan foydalangan holda tahlil qilinadi. Buning uchun belgilar $u_1, x_1, x_2, \dots, x_n$ o'rtasidagi juft korrelyasiya koeffitsentlarining matritsasi tuziladi. Omillarni tahlil qilishning uchinchi bosqichida regressiya tenglamasi aniqlanadi va uning parametrlarining mohiyatli bo'lishi yoki bo'lmasligi maxsus mezonlar bilan baholanadi.

2.4-jadval

Ko'p omilli regression tahlilda foydalanilgan belgilar⁷³

№	Nomi	Ifodalanishi
1.	Konstanta, ozod had	β_0
2.	Ko'p omilli korrelyasiya koeffitsienti	R^2
3.	Ko'p omilli regressiya	$\beta_1, \beta_2, \dots, \beta_k$

⁷² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

⁷³ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

	tenglamasining noma'lum parametrlari	
4.	Baholashning standart xatosi	Qiymati qancha kichik bo'lsa model shuncha ahamiyatli hisoblanadi
5.	Determinatsiya koeffitsienti	Qiymati qanchalik 1 sonida yaqin model adekvat hisoblanadi
6.	F – Fisher koeffitsienti	$F_{haq} > F_{tabl}$ bo'lsa, determinatsiya koeffitsienti ahamiyatli hisoblanadi
7.	P-qiymat	(«nolli» gepotezaning ahamiyatliligini ko'rsatuvchi mezon) 0,05 dan kichik ko'rsatkich tegishli model ahamiyatli hisoblanadi

Ushbu omillarning natijaviy belgiga ta'sirini aniqlash uchun korrelyasion tahlil usullaridan foydalanish mumkin. Bunda juft korrelyasiya koeffitsienti quyidagicha aniqlanadi:

$$r_{ij} = \frac{(\sum x_i x_j - \sum x_i \times \sum x_j / n)}{\sqrt{(\sum x_i^2 - (\sum x_i)^2 / n)(\sum x_j^2 - (\sum x_j)^2 / n)}}, \quad (2.2)$$

Qaysi omillarni regressiya tenglamasiga kiritish lozimligini aniqlash uchun omillar o'rtasidagi juft korrelyasion koeffitsientlar matritsasini tuzamiz (2.5-jadval).

2.5-jadval

Ta'sir qiluvchi omillarning o'zaro juft korrelyasion koeffitsientlar matritsasi⁷⁴

	Y(t)	X ₁	X ₂	X ₃	X ₄	X ₅	X ₆	X ₇
Y(t)	1							
X ₁	0,7558	1						
X ₂	0,84	0,9814	1					
X ₃	0,8578	0,9783	0,9984	1				
X ₄	0,944	0,8663	0,9254	0,9335	1			
X ₅	0,8826	0,9028	0,9573	0,9564	0,9759	1		
X ₆	0,8705	0,7909	0,8268	0,8275	0,9228	0,8979	1	
X ₇	0,0276	-0,413	-0,324	-0,309	0,0297	-0,079	0,0619	1

2.5-jadval ma'lumotlaridan shuni aytish mumkinki, juft korrelyasiya koeffitsientlari, ya'ni 10000 aholiga nisbatan bitirgan mutaxassislar soni (Y) bilan unga ta'sir etuvchi omillar bilan o'rtasida

⁷⁴ Manba: muallif hisob-kitoblari asosida hisoblangan.

kuchli to'g'ri bog'liqlik mavjud. r_{ij} x_i va x_j omillar o'rtasidagi juft korrelyasiya koeffitsientidir. Ma'lumki, ko'p omilli regressiya tenglamasida o'zaro kuchli chiziqli korrelyasion bog'langan omillar bir vaqtda ishtirok etmasligi kerak. Jadvaldan ko'rinib turibdiki ba'zi omillarning o'zaro (z_i va z_j) juft korrelyasiya koeffitsienti (r_{ij}) mutlaq qiymati bo'yicha uning kritik qiymatidan kichik, ya'ni $|r_{ij}| < r_{kr}$. Shuning uchun ishda barcha omillardan to'rttasini ekonometrik modelga kiritilishi rejalashtirildi, bunda korrelyasiya koeffitsientining kritik qiymati sifatida $r_{kr} = 0,85$ olindi.

Kritik qiymatdan r_{kr} kichik bo'lgan o'zaro kuchsiz bog'langan omillarning mavjudligidan guvoh bo'lamiz. Shu sababli x_1 , x_2 , x_7 omillarni regressiya tenglamasidan chiqarishni lozim topdik. Korrelyasiya-regressiya tahlili usuli yordamida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni tahlil qilishning eng muhim bosqichi natijaviy ko'rsatkichning tanlab olingan omillarga bog'liqligini tavsiflovchi ekonometrik ifodani tanlashdan iboratdir. Tuzilgan ekonometrik ifodaning sifati, ahamiyatliligi va ishonchliligi quyidagi mezonlar asosida baholanadi: ekonometrik modelning umumiy sifati ko'p omilli korrelyasiya koeffitsienti va determinatsiya koeffitsienti yordamida baholanadi; ekonometrik modellarning ahamiyati Fisher mezoni va approksimatsiya xatoligi yordamida baholanadi; ekonometrik model parametrlarining ahamiyati Student mezoni yordamida baholanadi.

Aniqlangan regressiya tenglamasining umumiy sifatini aniqlashda determinatsiya koeffitsientidan (R^2) foydalanilib, mazkur ko'rsatkich quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$R^2 = 1 - \frac{\sum_{i=1}^n (y_i - \hat{y}_i)^2}{\sum_{i=1}^n (y_i - \bar{y})^2}, \quad (2.3)$$

y_i - natijaviy ko'rsatkichning kuzatilgan miqdorlari;

$\bar{y}$ - natijaviy ko'rsatkichning o'rtacha arifmetik qiymati;

$\hat{y}$ - natijaviy ko'rsatkichning aniqlangan, prognozlashtirilgan, tekislangan miqdorlari ya'ni nazariy qiymatlari;

n - kuzatuvlar soni.

Determinatsiya koeffitsienti aniqlangan model, ya'ni ko'rilayotgan omillarning ta'siri bilan tushuntiriladigan natijaviy o'zgaruvchi dispersiyasining ulushini ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkich "0" va "1" oralig'idagi qiymatlarni qabul qiladi. Uning miqdori "1" qiymatiga qanchalik yaqin bo'lsa, shunchalik regressiya tenglamasiga kiritilgan omillar natijaviy ko'rsatkichning harakatlarini asoslab beradi.

Aniqlangan model ahamiyatliligining tahlili «nolga teng gipoteza»ni tekshirish orqali amalga oshiriladi. «Nolga teng gipoteza» $H_0: \beta_1' = \beta_2' = \dots = \beta_k' = 0$ tarzida aks ettirilib, regressiya koeffitsientining umumiy ahamiyatini ifodalaydi. Agar tahlil natijalari «nolga teng gipoteza»ni rad etmasa, u holda: " $x_1, x_2, \dots, x_k$ omillarning natijaviy ko'rsatkich «y»ga ta'siri ahamiyatsiz, regressiya tenglamasining umumiy sifati past", – deb xulosa qilinadi. «Nolga teng gipoteza»ni tekshirish dispersion tahlil yordamida amalga oshiriladi, hamda «nolga teng gipoteza» $N_0: D_{\text{fakt}} = D_{\text{qold}}$ ga qarshi alternativ gipoteza $N_1: D_{\text{fakt}} > D_{\text{qold}}$ tarzida ifodalanadi. Ushbu gipotezalarni tekshirish uchun F- Fisher mezonidan foydalaniladi.

Bunda mezonning haqiqiy qiymati quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$F = \frac{\sum_{i=1}^n (\hat{y}_i - \bar{y})^2 / k}{\sum_{i=1}^n (y_i - \hat{y}_i)^2 / (n-k-1)} = \frac{R^2}{1-R^2} * \frac{(n-k-1)}{k}, \quad (2.4)$$

Bu erda;

$\sum_{i=1}^n (\hat{y}_i - \bar{y})^2 / k$ – bitta erkinlik darajasiga to'g'ri keluvchi omilli dispersiya (erkinlik darajalari soni $\gamma_1 = k$);

$\sum_{i=1}^n (y_i - \hat{y}_i)^2 / (n-k-1)$ – bitta erkinlik darajasiga to'g'ri keluvchi qoldiq dispersiya (erkinlik darajalari soni $\gamma_1 = n-k-1$);

n – kuzatuvlar soni;

k - ko'p omilli regressiya tenglamasidagi omillar (parametrlar) soni.

F- Fisher mezonining haqiqiy qiymati (F_{haqiqiy}) mezonning kritik ($F_{\text{jadv}}(\alpha; k; n-k-1)$) qiymati bilan taqqoslanadi. Agar $F_{\text{haqiqiy}} > F_{\text{jadv}}$ bo'lsa,

u holda aniqlangan model ahamiyatli hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida raqamli xizmatlar hajmiga ta’sir etuvchi omillar tahlili orqali ishlab chiqilgan modelda F- Fisher mezonining haqiqiy qiymati $F_{\text{haqiqiy}}=15$. Shuningdek erkinlik darajalari soni surat bo‘yicha $k_1=4$ va maxraj bo‘yicha $k_2=10$ ga teng bo‘lganda, Fisher mezonining jadval qiymati (mohiyatlik darajasi $p=0,96$ da) uchun $F_{\text{jadval}}=3,48$. Demak, hosil qilingan ko‘p omilli regressiya tenglamamiz ahamiyatli hisoblanadi (2.6-jadval).

2.6-jadval

Modelning sifati va ahamiyatini tekshirish mezonlari⁷⁵

Ko‘p omilli korrelyasiya koeffitsienti R	Ko‘p omilli determinatsiya koeffitsienti R-kvadrat	Korrektla shtirilgan R-kvadrat	Baholash ning standart xatosi	F-haqiqiy	P-qiymat	DW
0,962	0,25	0,864	1,53	15	0,96	15

Tahlilda ko‘p omilli regressiya alohida parametrlarining ahamiyati St’yudent mezoni (T-statistika) yordamida baholanadi. Bunda mezonning haqiqiy qiymati quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$t_{b_j} = \frac{b_j}{m_{b_j}} \quad \left(\text{yoki } t_a = \frac{a}{m_a} \right), \quad (2.5)$$

Bu erda;

$b_j(a)$ – regressiyaning koeffitsientlari (parametrlari);

$m_{b_j}(m_{a_j})$ – bu $b_j(a)$ parametrlarning standart xatosi.

2.5-ifoda orqali regressiya tenglamasining tegishli parametrlari uchun aniqlangan t-statistika St’yudent taqsimoti kritik nuqtasi $t(\alpha; n-k-1)$ bilan taqqoslanadi. Agar $|t| > t(\alpha; n-p-1)$ bo‘lsa, tegishli parametr ahamiyatli hamda $N_0: b_j=0$ yoki $N_0: a=0$ tarzida ifodalanadigan “nolga teng gipoteza” rad etiladi.

Bundan tashqari regressiya tenglamasining parametrlarining ahamiyatliligini quyidagi oddiy taqqoslama tahlil orqali baholash mumkin:

⁷⁵ Manba: muallif hisob-kitoblari asosida hisoblangan.

- agar $|t| \leq 1$ bo'lsa, regresssiya koeffitsienti statistik jihatdan ahamiyatsiz;
- agar $1 < |t| \leq 2$ bo'lsa, regresssiya koeffitsienti statistik jihatdan nisbatan ahamiyatli;
- agar $2 < |t| \leq 3$ bo'lsa, regresssiya koeffitsienti statistik jihatdan ahamiyatli;
- agar $|t| > 3$ bo'lsa, regresssiya koeffitsienti statistik jihatdan yuqori ahamiyatli hisoblanadi. Ushbu fikr $(n-p-1) > 20$ va $\alpha \geq 0,05$ holatlarda amal qiladi.

Demak, regressiya tenglamasiga kiritilgan omillar yuqori ahamiyatli, ahamiyatli, nisbatan ahamiyatli va ahamiyatsiz hisoblanadi. Tahlil natijalaridan kelib chiqib, modelimizga kiritilgan yuqori ahamiyatli va ahamiyatli omillarni alohida ajratib ko'rsatdik (2.7-jadval).

2.7-jadval

Chiziqli regression modelga kiritilgan ahamiyatli omillar⁷⁶

	Standartlashtirilma- gan koeffitsientlar		Standartlash- tirilgan koeffitsientlar	t-mezon	P-miqdor
	b	Standart xato	Beta		
(Konstanta)	13,8	2,92	0,04	4,74	0,005
X ₃	0,01	0,03	1,31	0,37	0,724
X ₄	2,5	0,95	1,42	2,65	0,046
X ₅	-1,57	1,13	0,23	-1,38	0,225
X ₆	0,08	1,62	0,03	0,05	0,963

2.7-jadvalni tahlil qilsak, x₃ va x₆ omillar statistik jihatdan ahamiyatli, x₄ va x₅ omillar esa yuqori ahamiyatli ekanligini ko'rish mumkin.

Ko'p omilli ekonometrik model bo'yicha natijaviy omilning qoldiqlarida avtokorrelyasiyani tekshirish uchun Darbin-Uotson (DW) mezonidan foydalanamiz.

⁷⁶ Manba: muallif hisob-kitoblari asosida hisoblangan.

$$DW = \frac{\sum_{t=2}^T (e_t - e_{t-1})^2}{\sum_{t=1}^T e_t^2} = \frac{\sum_{t=2}^T e_t^2 + \sum_{t=2}^T e_{t-1}^2 - 2 \sum_{t=2}^T e_t e_{t-1}}{\sum_{t=1}^T e_t^2} =$$

$$= 1 - \frac{\sum_{t=2}^T e_t e_{t-1}}{\sum_{t=1}^T e_t^2} \approx 1 - \rho_1, \quad (2.6)$$

Bu erda ρ_1 - birinchi tartibdagi korrelyasiya koeffitsienti.

Natijaviy omil qoldiqlari qatorida avtokorrelyasiya mavjud bo'lmasa, $DW=1$, musbat avtokorrelyasiyada DW nolga intiladi, manfiy avtokorrelyasiyada esa 6 ga intiladi.

$$\begin{cases} \rho_1 = 0 \rightarrow DW = 1; \\ \rho_1 = 1 \rightarrow DW = 0; \\ \rho_1 = -1 \rightarrow DW = 6. \end{cases}, \quad (2.7)$$

Hisoblangan DW jadvaldagi DW bilan solishtiriladi.

Agar natijaviy omilning qoldiqlarida avtokorrelyasiya mavjud bo'lmasa, u holda hisoblangan DW mezonining qiymat 1 atrofida bo'ladi. Bizning misolda hisoblangan DW mezonining qiymati 6 ga teng. Bu esa natijaviy omil qoldiqlaridan avtokorrelyasiya mavjud emasligini ko'rsatadi.

2.7-jadval ma'lumotlaridan foydalanib, ekonometrik modelning ko'rinishini quyidagi ko'rinishda yozamiz:

$$Y = 138 + 0,01 \cdot x_3 + 2,5 \cdot x_4 - 1,57 \cdot x_5 + 0,08 \cdot x_6 \quad (2.8)$$

Shunday qilib, natijaviy ko'rsatkich «10000 aholiga nisbatan bitirgan mutaxassislar soni»ga «10000 aholiga to'g'ri keladigan talabalar soni», «oliy ta'limga qabul qilingan talabalar soni», «bakalavriatga qabul qilinganlar soni», «oliy ta'limni bitirgan mutaxassislar soni» kabi omillarning ta'siri ahamiyatlidir. Mazkur omillarning natijaviy ko'rsatkichga ta'sirini quyidagicha izohlash mumkin:

1. 10000 aholiga to'g'ri keladigan talabalar soni (kishi)(X_3)ning bir birlikka oshishi birlikka oshishi 10000 aholiga nisbatan bitirgan mutaxassislar soni(Y)ning 0,01 birlikka oshishiga olib keladi;

2. Oliy ta'limga qabul qilingan talabalar soni (ming kishi)(X_4)ning bir birlikka oshishi 10000 aholiga nisbatan bitirgan mutaxassislar soni(Y)ning 2 ming 500 kishiga oshishiga olib keladi;

3. Bakalavriatga qabul qilinganlar soni (ming kishi)(X_5)ning bir birlikka oshishi 10000 aholiga nisbatan bitirgan mutaxassislar soni(Y)ning 1,57 mingga kamayishiga olib keladi;

4. Oliy ta'limni bitirgan mutaxassislar soni (ming kishi)(X_6)ning bir birlikka oshishi 10000 aholiga nisbatan bitirgan mutaxassislar soni(Y)ning 80 kishiga oshishiga olib keladi.

Yuqorida keltirilgan ekonometrik model (3.8) yordamida istiqbol funksiyalarini tuzishda Jizzax viloyati bo'yicha 2013-2022 yillardagi statistik ma'lumotlardan foydalanib, Jizzax viloyati bo'yicha Oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash tizimi rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar X_3, X_4, X_5 va X_6 uchun istiqbol modellari ro'yxatini hosil qildik.

2.8-jadval

Jizzax viloyati bo'yicha Oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash tizimi rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha istiqbol modellari⁷⁷

№	Model ko'rinishi	F – Fisher mezonining hisoblangan qiymati
1.	$x_4 = 2,1 + 1,02 \cdot t + 0,05 \cdot t^2$	3,15
2.	$x_5 = 0,045 + 1,23 \cdot t + 0,2 \cdot t^2$	4,25
3.	$x_6 = 2,03 + 0,18 \cdot t + 1,3 \cdot t^2$	5,47
4.	$x_7 = 4,81 + 0,2 \cdot t - 1,12 \cdot t^2$	2,65
5.	$x_9 = 1,1 + 0,36 \cdot t + 0,54 \cdot t^2$	5,12

Prognoz natijalaridan ko'rinib turibdiki, 2030 yilda 2022 yilga nisbatan 10000 aholiga nisbatan bitirgan mutaxassislar soni 42,3 %, 10000 aholiga to'g'ri keladigan talabalar soni 42 %, oliy ta'limga qabul qilingan talabalar soni 88,4 %, bakalavriatga qabul qilinganlar soni 71,4 % va oliy ta'limni bitirgan mutaxassislar soni 60,5 % oshishiga

⁷⁷ Manba: muallif hisob-kitoblari asosida hisoblangan.

erishiladi (2.9-jadval).

2.9-jadval

Jizzax viloyati bo'yicha Oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash tizimi rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar prognozi⁷⁸

	Y(t)	X ₃	X ₄	X ₅	X ₆
2013	16	80	2,3	2,2	1,9
2014	17	82	2,3	2,2	2
2015	17	82	2,3	2,3	2,1
2016	18	84	2,4	2,3	2,3
2017	21	95	3,7	2,4	2,2
2018	21	109	4,9	5,1	2,8
2019	21	130	6	5,2	3,9
2020	28	166	8,3	6,5	3,9
2021	25	208	9,3	8,3	3,6
2022	26	250	8,6	8,4	3,8
2023	28	228	9,9	8,9	4,3
2024	29	246	10,8	9,6	4,5
2025	31	264	11,7	10,4	4,8
2026	32	282	12,6	11,2	5
2027	33	300	13,5	12	5,3
2028	34	318	14,4	12,8	5,6
2029	36	337	15,3	13,6	5,8
2030	37	355	16,2	14,4	6,1

Tadqiqot ishida Jizzax viloyatida 2030 yilga qadar Oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash tizimi rivojlanishiga asoslangan prognoz parametrlari ishlab chiqilgan. Qo'llangan yuqori adekvatlikka ega ekonometrik modellar va ularga tegishli amaliy dasturlar paketlari asosida tanlab olingan ob'ektda oliy ta'lim hajmi qisqa muddatli prognozi aniqlandi. Mazkur prognoz parametrlariga erishish uchun quyidagi asosiy tadbirlarni amalga oshirish zarur: investitsiyalarni jalb qilish hisobiga yangi ish o'rinlarini yaratish va ularni yaratishni mahalliy byudjet mablag'lari hisobiga subsidiyalash, tarmoqlarning rivojlanish xususiyatlariga ko'ra raqamli oliy ta'lim tarmoqlarda ishlab chiqarishni tashkil etishda hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish, mahallalarda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash hamda

⁷⁸ Manba: muallif hisob-kitoblari asosida hisoblangan.

tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash orqali ishlab chiqarish jarayonini kengaytirish, ta’lim xizmati eksportini mustaqil jarayonga aylantirish, oliy ta’limi rivojlantirishga to‘siq va muammolarni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish, amalga oshirish. O‘zbekistonda Oliy ta’lim xizmatlarining zamonaviy shakllarini rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari takomillashtirilgan.

2.10-jadval

**Jizzax viloyati bo'yicha Oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash tizimi rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar
prognozi⁷⁹**

Yil- lar	10000 aholiga nisbatan bitirgan mutaxassislar soni (kishi)	Oliy ta'lim tashkilotlari soni (dona)	Oliy ta'limdagi talabalar soni (ming kishi)	10000 aholiga to'g'ri keladigan talabalar soni (kishi)	Oliy ta'limga qabul qilingan talabalar soni (ming kishi)	Bakalavriatg a qabul qilinganlar soni (ming kishi)	Oliy ta'limni bitirgan mutaxassislar soni (ming kishi)	Bitirgan mutaxassislar ning ishga joylashishi (foizda)
	Y(t)	X ₁	X ₂	X ₃	X ₄	X ₅	X ₆	X ₇
2023	28	4	33,1	228	9,9	8,9	4,3	93
2024	29	5	35,9	246	10,8	9,6	4,5	92
2025	31	5	38,8	264	11,7	10,4	4,8	92
2026	32	5	41,6	282	12,6	11,2	5	92
2027	33	6	44,4	300	13,5	12	5,3	92
2028	34	6	47,2	318	14,4	12,8	5,6	92
2029	36	6	50	337	15,3	13,6	5,8	92
2030	37	6	52,8	355	16,2	14,4	6,1	92

⁷⁹ Manba: muallif hisob-kitoblari asosida hisoblangan.

Tuzilgan modellar orqali oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash tizimi rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning 2.10-jadvalda prognoz varianti ishlab chiqildi.

Prognoz variantlarini ishlab chiqish uchun modeldagi $X_1, X_2, X_3, X_4, X_5, X_6, X_7$ o'zgaruvchilarning trend tenglamalarini aniqlashda MS Excel dasturidan foydalanildi. Trend modellari asosida modeldagi mustaqil o'zgaruvchilarning o'rta muddatga prognoz qiymatlari aniqlandi.

2.10 - jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 10000 aholiga nisbatan bitirgan mutaxassislar soni 2030 yilga borib, 37 kishi bo'lishi, yoki 2022 yilga nisbatan 43,3 foizga oshishi kutilmoqda. 2030 yilda oliy ta'lim tashkilotlari soni 6 ta, oliy ta'limdagi talabalar soni 52 ming 800 kishi, 10000 aholiga to'g'ri keladigan talabalar soni 355 kishi, oliy ta'limga qabul qilinadigan talabalar soni 16 ming 200 kishi, bakalavriatga qabul qilinadiganlar soni 14 ming 400 kishi, oliy ta'limni bitiradigan mutaxassislar soni 6 ming 100 kishi, bitirgan mutaxassislarning ishga joylashishi 92 foiz bo'lishi kutilmoqda.

2.3-§. Mehnat bozoriga oliy ta'lim muassasalari tomonidan bitiruvchilarni tayyorlashni tartibga solishning institutsional asoslari

Mehnat bozoriga oliy ta'lim muassasalari tomonidan bitiruvchilarni tayyorlashni tartibga solishning institutsional asoslari quyidagi qonunchilik hujjatlarida mustahkamlangan: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020 yil 6 noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmonlari, 2020 yil 23 sentyabrdagi Ta'lim to'g'risidagi Qonuni, 2019 yil 11 iyuldagi PQ-4391-son «Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori. Shuningdek, ta'lim sohasida davlat xususiy sherikchilikni qo'llab-quvvatlash borasidagi bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar 2018 yil 20 oktyabrdagi PQ-3980-son "Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishning

huquqiy va institutsional bazasini yaratish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida" qaror, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 11 avgustdagi "Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirish va ularni moliyalashtirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020 yil 26 apreldagi «Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish tartibini takomillashtirish to'g'risida»gi qarorlari ta'lim xizmatlari sifati va samaradorligini ta'minlash, davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil qilingan ta'lim muassasalari faoliyatini namoyon etishning institutsional asoslari hisoblanadi.

Mazkur qonunchilik hujjalari mehnat bozorida kadrlarning o'z munosib o'rnini egallashlariga ham asos bo'lib, mehnat bozori talab va takliflarini o'rganish, bashoratlash va tahlil qilish asosida kadrlarni tayyorlash bo'yicha davlat buyurtmalarini shakllantirishga xizmta qiladi.

Xalqaro Mehnat Tashkilotining ma'lumotiga ko'ra, dunyo bo'yicha ish bilan band bo'lgan 430 millionga yaqin yoshlarning 55 millionga yaqini (13 foizi) kam ish xaqi to'lanadigan (kuniga 1.9 AQSH dollaridan kam) ish o'rinlarida ishlamoqda⁸⁰. Bunday holat esa esa zamonaviy mehnat bozori talab qiladigan har tomonlama raqobadbardosh kadrlar tayyorlash masalasini alohida kun tartibiga olib chiqadi.

O'zbekiston Respublikasida mehnat bozoriga oliy ta'lim muassasalari tomonidan bitiruvchilarni tayyorlashda asosiy e'tibor oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, uni yangi bosqichga ko'tarishda kreativ fikrlaydigan raqobatbardosh yuqori malakali kadrlarni tayyorlashdir. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlanganidek, "Kadrlar malakasini xalqaro mehnat bozori talablariga moslashtirish maqsadida milliy malaka tizimi ishlab chiqiladi. Ushbu tizim 9 mingga yaqin kasblar bo'yicha kadrlar tayyorlash imkonini beradi. Oliy ma'lumot olaman, o'z ustimda ishlab, ilmi bo'laman, degan, yuragida o'ti bor, jo'shqin yoshlarimizning tahsil olishi uchun hamma qulayliklarni yaratishimiz shart. Shuning

⁸⁰ Global Employment Trends for Youth 2020: Technology and the future of jobs International Labour Office –Geneva: ILO, 2020

uchun maktab bitiruvchilarini oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini 2020 yilda kamida 25 foizga va kelgusida 50-60 foizga etkazamiz”⁸¹.

Oliy ta'lim sohasida bitiruvchilar raqobatbardoshlik darajasini oshirish ta'lim tizimi va mehnat bozori o'rtasidagi o'zaro asosiy ijtimoiy-iqtisodiy omil ekanligi bilan izohlanadi. Bu borada ilmiy tadqiqot olib borgan olimlardan U.V.Maksimovning fikricha “bitiruvchining raqobatbardoshligi - bu asosiy kompetensiyalar majmuini, muhim, qimmatli yo‘nalishlarini namoyon etib, shaxsga jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatishiga imkoniyat yaratib beradigan, shaxsning umumiy, ajralmas sifatleri”⁸².

Shu bilan bir qatorda, oliy ta'lim muassasalari tomonidan bitiruvchilarni tayyorlashni tartibga solishda boshqaruv tizimida e'tiborga olinishi lozim bo'lgan quyidagi uch asosiy trendni qayd etish mumkin:

1. Iqtisodiy o'sishning bosh omili bo'lgan inson kapitalini rivojlantirishda oliy ta'lim muassasalari ahamiyatining oshib borishi.

2. To'xtovsiz va bir umrlik ta'limga bo'lgan ehtiyojning ko'payishi.

3. Iqtidorli yoshlar uchun raqobat kurashining keskinlashuvi. Shu o'rinda qayd etish lozimki, yaqin istiqbolda ta'lim muassasalari, korporatsiyalar va hatto mamlakatlar miqyosida ham yosh iqtidor egalari uchun raqobatlashish ustuvorlik kasb etadi⁸³.

Olib borilgan tadqiqotlarga asoslanib, bitiruvchilar raqobatbardoshligining o'ziga xos xususiyatlari uchta yirik guruhga ajratiladi:

Birinchi guruh - kasbiy malakasi darajasi ular uchun raqatbardoshlik bazaviy asosi hisoblanadi, ta'lim dasturi darajasi va murakkabligini, tayyorgarlik sifati, bilimlarni o'zlashtirish va boshqa

⁸¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent, “Xalq so'zi” gazetasi, 2020 yil 25 yanvar. Manba: [www. press-servise.uz](http://www.press-servise.uz).

⁸² Максимова Е.В. Развитие конкурентоспособности студента в образовательном процессе университета: автореф.дис.канд.пед.наук. Оренбург, 2005. 14-16 с.

⁸³ X.U.Umarova Oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy boshqaruv tizimining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishning kontseptual asoslari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr, 2021 yil 5/2021 (№ 00055), 149 <http://iqtisodiyot.tsue.uz>

jihatlarni aks ettiradi. (Bunda diplomlar, sertifikatlar, o‘qishning ta’lim shakli, mutaxassislik bo‘yicha diplomlar asosiy natijalardir).

Ikkinchi guruh- Raqobatbardosh bitiruvchining salohiyati, kasbiy xususiyatlariga xos bo‘lgan ambitsiyalarining namoyon bo‘lishi, o‘z imkoniyatlari darajasining bahosi va fazilatlari.

Uchinchi guruh – Har bir bitiruvchining mehnat bozorida egallagan o‘rni va marketing salohiyati, o‘zi tomonidan karera rejalari, kelajakda ishga joylashish jarayonidagi qat’iyati o‘ziga xos bo‘lgan nuqtai nazari, yondashuvi.

Bu borada tadqiqot olib borgan D.A. Konoplyanskiy oliy ta’lim muassasasi bitiruvchisining raqobatbardoshligini shakllantirishga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillar mavjud deb hisoblaydi (2.3-rasm).

Shuningdek, bitiruvchi talaba raqobatbardoshlik darajasini talab darajasida shakllantirishi va rivojlantirishiga qaratilgan xatti-harakatlarida quyidagi ba’zi bir bevosita omillarni ham nazarda tutishi kerakki, bu ichki va tashqi omillar bilan birga har bir bitiruvchi talabaning o‘ziga bog‘liq bo‘lgan xususiyatlarda ifodalanadi:

Tashqi omillar:	Institutsional (ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, demografik, texnologik). Mehnat bozoridagi talab va taklif munosabatlari. Oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarini raqobatda ustunlik tomonlarini shakllantirishda real ishlab chiqarish bilan, ya’ni, davlat-xususiy sektor hamkorligi, ijtimoiy sherikchilik, strategik hamkorlik munosabatlari. Oliy ta’lim muassasasining mustaqilligi.
Ichki omillar:	Oliy ta’lim muassasasining innovatsion va investitsion faolligi. Oliy ta’lim muassasasining moslashuvchanlik darajasi. Oliy ta’lim muassasasining nufuzi (imidj) darajasi va raqobatbardoshligi. Oliy ta’lim muassasasining raqobatbardosh bitiruvchisini shakllantirishda aniq belgilab olingan pedagogik strategiyasining mavjudligi.

2.3- rasm.Oliy ta’lim muassasasi bitiruvchisining raqobatbardoshligini shakllantirishga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillar⁸⁴

⁸⁴ Коноплянский Д.А. Формирование конкурентоспособности выпускника ВУЗа в процессе обучение: роль государственно-частного партнерства. Вестник КемГУКИ 33/2015.-179 с.

Birinchi omilga mehnat bozorida talabanning tadbirkorlik-strategik xatti-harakatlari ifodalanib, raqobat kurashida individual o'ziga xos ustunlik pozitsiyasiga olib chiqishga yo'naltirilgan istiqboldagi samarali xatti-harakatlari, kasbiy harakatchanlik, kasbiy faoliyatini o'zlashtirishga intilishning o'ziga xosligi, ishchanlik qobiliyati va imkoniyatlarini etarli darajada namoyish eta olish darajasi, etakchilik qobiliyatini o'stirib borishi va h.k.

Ikkinchi omilga esa talabanning ta'lim olishdagi joriy xatti-harakatlari e'tiborga olinib, o'zining birlamchi belgilab olingan strategik maqsadlariga erishishda oliy ta'lim o'quv dasturi talablari asosida jadal o'zlashtirib borishi, o'zining hayoti va tahsil olish jarayonida to'g'ri rejalashtirish tizimidan foydalanishi, tayyorgarlik jarayonida doimiy monitoring va h.k.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yildagi 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 5847-sonli farmonida "O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish vazifalari belgilangan". Shuningdek, oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish ko'rsatilgan⁸⁵, bu borada OTMlarni bitirgan mutaxassislarning salmog'ini ko'rib o'tish lozim (2.11-jadval).

⁸⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yildagi 8 oktyabrdagi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi farmoni. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son; 30.04.2020 y., 06/20/5987/0521-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.11.2021 y., 06/21/3/1037-son, 18.03.2022 y., 06/22/89/0227-son; 04.07.2023 y., 06/23/107/0441-son)

2.11-jadval

Hududlarda oliy ta'lim muassasalarini bitirgan mutaxassislar sonining ozgarishi, (ming kishi) ⁸⁶

Hududlar	O'quv yillari						2016-2022 y.y. o'sish, %
	2017/2018	2018/2019	2019/2020	2020/2021	2021/2022	2022/2023	
Qoraqalpog'iston Respublikasi	4358	4484	4312	5475	6475	6545	1,7
viloyatlar:							
Andijon	4209	4791	4293	4622	6403	4963	1,6
Buxoro	3409	3523	3770	4784	6214	6017	1,8
Jizzax	2732	2462	3003	3445	3941	5617	1,6
Qashqadaryo	3559	3842	3908	5193	5909	5896	1,9
Navoiy	2197	2300	2374	3107	3895	3253	1,9
Namangan	2948	3004	3218	4113	5524	5508	2,0
Samarqand	6417	6869	6842	7165	8528	8962	1,4
Sirdaryo	986	1014	1045	1632	2190	1938	2,2
Surxondaryo	1891	1962	2086	3329	3583	3962	2,1
Toshkent	1745	2710	2787	4041	3694	4049	2,1
Farg'ona	4769	4557	4778	5833	9266	8289	2,0
Xorazm	2163	2229	2426	3229	4216	4046	2,1
Toshkent sh.	26065	26168	26104	27520	34440	35131	1,3
Respublika bo'yicha	67448	69915	70946	83488	104278	104176	1,6

Mamlakatimizda keyingi bir necha yillarda OTMni bitirayotgan mutaxassislar soni muntazam o'sib borib, 2018 yilda bitiruvchilar soni 67,4 ming kishini, 2023 yilda esa 104,2 ming nafarni tashkil qilgan bo'lsa Jizzax viloyatida esa bu ko'rsatkich tahlil qilingan yillarda 1,5 martaga oshib borganligini ko'rish mumkin.

O'zbekiston Respublikasida yoshlarining oliy ma'lumot darajasini qo'lga kiritishlari uchun tanlov imkoniyatlari kengayib borayotganligini ko'rish mumkin. Mazkur jarayonda davlat OTMlari bilan birlagikda xorijiy, nodavlat va xususiy oliy ta'lim muassasalari sonining ham ortib borayotganligi bilan asoslash mumkin.

⁸⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi davlat Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida 2026 yilga borib, nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari sonini kamida 50 taga, jami oliy ta'lim muassasalari sonini 200 taga etkazish, oliy ta'limga qamrov darajasini esa 50 foizga etkazish asosiy vazifalardan sifatida belgilanganligi⁸⁷ strategiyani amalga oshirishning dastlabki yillaridayoq ta'lim sohasidaga institutsional o'zgarishlarni boshlab berdi.

Tadqiqot ob'ekti hisoblanagan Jizzax viloyatida ham 1 ta nodavlat, xorijiy OTM lar bilan birgalikda 1 ta, 3ta davlat oliy ta'lim muassasalari faoliyat yuritmoqda, 2022-2023 o'quv yilida ularda jami 5617 talabalar bitirib hozirgi kunda iqtisodiyot tarmoqlarida mehnat qilmoqda. Aynan ta'lim muassasalarini iqtisodiyot tarmoqlari uchun yuqori malakali ishchi kuchi etkazib berishda alohida o'rnini ta'kidlash lozimki, bu ham ijtimoiy xususiyat kasb etib, mamlakatning rivojlanish istiqbollari, shuningdek, har bir hudud yoshlarining ish bilan bandlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida keyingi yillarda Oliy ta'limda o'qib bitirgan bitiruvchilarning soni oshib borayotganligini ko'rish mumkin, jumladan, bakalavriat ta'lim yo'nalishi va magistratura mutaxassisligini bitirganlar soni 2017 yilda 67,4 ming kishidan 2023 yilda 104,2 ming kishiga teng bo'lgan, yoki bu ko'rsatkich deyarli 1,5 barobarga ortgan. Bu ko'rsatkichdan bakalavriat ta'lim yo'nalishini tugatganlar 70,8 foizga, magistratura mutaxassisligi bitiruvchilari soni esa 2 barobarga oshgan.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, Jizzax viloyatida OTM bitiruvchilarning 25,8 foizi deyarli bir yil davomida ishga joylasha olmaganlari aniqlandi, mazkur ko'rsatkichlar bo'yicha asosiy natijalar qo'yidagi 2.12-jadvalda keltiriladi.

⁸⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi farmoni.<https://lex.uz/docs/5841063>

2.12-jadval

Jizzax viloyatida oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining ishga joylashish salmog'ining o'zgarishi⁸⁸

Ko'rsatkichlar	O'quv yillari				
	2018-2019	2019-2020	2020-2021	2021-2022	2022-2023
Oliy ta'limning bakalavriat bosqichini tugatganlar soni	2375	2913	3177	3635	4519
Bitiruvchilarning ishga joylashish darajasi, %	99,2	98,69	98,28	95,6	94,2
Oliy ta'limning magistratura mutaxassisligini tugatganlar soni	87	90	268	306	1098
Bitiruvchi magistrnlarning ishga joylashish darajasi, %	97,70	97,77	98,24	98,98	99,04

2.12-jadvalda Jizzax viloyatida oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining ishga joylashish salmog'ining o'zgarishini kuzatadigan bo'lsak, bakalavriat bosqichini tugatganlarning ishga joylashishi darajasi keyingi ikki yilda 95,6, 94,2 % ni tashkil qilgan bo'lsa, bitiruvchi magistrnlarning ishga joylashish darajasi 2022-2023 yilda 99,04 % ni tashkil qilmoqda.

Lekin, bitiruvchilarning ishga joylashishi jarayonida OTM o'z kadrlarini to'liq 100 foiz ish bilan ta'minlanishiga erisha olmaydi, chunki mehnat bozoridagi ishchi kuchiga talab va taklif nomuvofiqligi kuzatiladi. Ayniqsa bu masala yiliga ko'p ming talaba bitiradigan OTMlarda murakkab jarayon bo'lib, hamma bitiruvchilarni to'liq egallagan mutaxassisligi bo'yicha ish bilan ta'minlanishi qiyin masaladir.

Olib borilgan tadqiqot ishi uzoq muddatli prognoz davri

⁸⁸Jizzax viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

parametrlariga erishishda, jumladan investitsiyalar hisobiga yangi ish o‘rinlarini yaratish, mahalliy byudjet mablag‘laridan subsidiyalash amaliyotini kengaytirish va tadbirkorlikni mahallalarda qo‘llab-quvvatlash borasidagi keng ko‘lamli ishlarga ko‘ra ishlab chiqarishni kengaytirishni aniqlashtirish imkonini berdi.


Investitsiyalarni jalb qilish hisobiga yangi ish o‘rinlarini yaratish va ularni yaratishni mahalliy byudjet mablag‘lari hisobiga subsidiyalash, tarmoqlarning rivojlanish xususiyatlariga ko‘ra qayta ishlash sanoati, qishloq xo‘jaligi, xizmat ko‘rsatish va boshqa tarmoqlarda yangi ish o‘rinlari tashkil etishda hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish, mahallalarda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash hamda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash orqali aholi bandligini ta‘minlash, mahallalarda tadbirkorlik munosabatlarini rivojlantirishga to‘siq va muammolarni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Yoshlar uchun yangi ish o‘rinlarini istiqbolli yo‘nalishlarda kichik biznes subyektlari va oilaviy tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda mahallalarda “drayver” loyihalarni Jizzax viloyatida kichik biznes subyektlari, oilaviy tadbirkorlik yo‘nalishlarining tadbiriq etilishi natijasida sanoat, xizmat ko‘rsatish sohasiga bir mingdan ortiq mahalliy yoshlarni mehnat faoliyatiga keng jalb etishga albatta, yaxshi samara beradi.

Jizzax viloyatida mehnat bozoriga ilk kirib keluvchilar keyingi ikki yilda 30 mingdan ziyodni tashkil kilib, 2023 yilda yaratiladigan ish o‘rinlarining tarmoqlar bo‘yicha farqlanishi quyida keltiriladi (2.4-rasm).

2.4- rasmda 2023 yilda yaratiladigan ish o‘rinlari soni jami, 188 918 nafarni tashkil qilib, uning 57,6 % qishloq xo‘jaligida, 30,6 % xizmat ko‘rsatish va tadbirkorlikda, 5,3 % investitsiya loyihalari hisobiga va boshqa sohalarda tashkil qilinishi rejalashtirilgan.

So‘nggi besh yilda Jizzaxda 5 milliard dollar investitsiya, shu jumladan 3 milliard dollar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya jalb qilinib, 2,5 mingta yangi korxona ishga tushdi.



2.4-rasm. Jizzax viloyatida 2023 yilda tarmoqlar kesimida yaratiladigan ish o'rinlarining salmog'i⁸⁹.

Investitsiyalar hisobiga yangi ish o'rinlarini yaratish, mahalliy byudjet mablag'laridan subsidiyalash amaliyotini kengaytirish va investitsiyalar samaradorligining tadbirkorlik sohasida aholi ish bilan bandligini oshirish imkoniyatlari, tadbirkorlikni mahallalarda qo'llab-quvvatlash borasida viloyatda o'ziga xos imkoniyatlar yuqori bo'lib, uni quyidagicha guruhlash mumkin:

Birinchi guruh – Jizzax shahri, Zarbdor, Do'stlik, Sharof Rashidov tumanlari - kimyo, energetika, elektrotexnika, mashinasozlik, to'qimachilik, farmatsevtika qurilish materiallari, asalarichilik va baliqchilik, issiqxonalarni tashkil etish.

Ikkinchi guruh - Baxmal, G'allaorol, Forish, Mirzacho'l tumanlari - Chorvachilik, bog'dorchilik, qurilish meva-sabzavot yetishtirish materiallari, bazalt tolasidan armatura ishlab chiqarish ishlab chiqarish.

Uchinchi guruh- Arnasoy, Zomin, Yangiobod, Zafarobod, Paxtakor tumanlari - oziq-ovqat, yengil sanoat, baliqchilik, turizmni rivojlantirish, elektrotexnika, meva-sabzavot, chorvachilik, bog'dorchilik, farmatsevtika, yengil sanoatni rivojlantirish.

⁸⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

2.13-Jadval

Jizzax viloyatida bitiruvchilarning iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari bo'yicha ishga joylashishi salmog'i⁹⁰

Bitiruvchilarning iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari bo'yicha ishga joylashishi, shu jumladan:																
№	O'quv yillari	Jami bitiruvchilar soni	Ta'lim va fan sohasi	Sanoat ishlab chiqarishida	Qishloq, suv va o'rmon xo'jaligida	Qurilishda	Transport va aloqada	Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot tizimida	Madaniyat va san'atda	Bank, soliq, sug'urta va moliya organlarida	Davlat boshqaruvi organlarida	Jamoat tashkilotlarida	Servis, xizmat ko'rsatish sohasida	Tadbirkorlik va xususiy sektorda	Boshqa soha va tarmoqlarda	Jami bandligi ta'minlangan soni
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17
Bakalavriat																
1	2018/2019	2375	1256	263	139	98	62	10	5	42	21	26	141	76	217	2356
2	2019/2020	2913	1538	372	155	142	76	9	3	29	34	20	167	88	242	2875
3	2020/2021	3177	1607	418	174	162	82	11	3	27	38	21	181	93	287	3104
4	2021/2022	3635	1862	231	163	231	63	18	12	31	36	24	376	87	341	3475
5	2022/2023	4519	2764	512	103	183	32	17	34	23	13	17	287	118	230	4333
Magistratura																
1	2018/2019	87	56	2	2	3	1	2	1	2	3	1	6	1	5	85
2	2019/2020	90	64	3	1	2	2	1	0	1	2	3	4	2	3	88
3	2020/2021	268	218	7	2	6	5	1	1		5	2	7	4	5	263
4	2021/2022	306	264	5	1	9	2	0	1	2	3	1	6	3	6	303
5	2022/2023	1098	972	13	8	11	1	3	2	2	5	3	15	17	21	1073

⁹⁰ Jizzax viloyati Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Zamonaviy mehnat bozorida bitiruvchilar raqobatbardoshligini oshirishni tartibga solish, ularda kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish, har bir hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, darajasidan kelib chiqqan holda, oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish maqsadga muvofiq (2.13- jadval).

2.13-jadvalda Jizzax viloyatida bitiruvchilarning iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari bo'yicha ishga joylashishi salmog'i keltirilgan, jami bitiruvchilar soni 2022/2023 o'quv yilida 5683 nafarni tashkil qilib, bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 144,1 % ni tashkil qilgan. Shu jumladan magistratura bitiruvchilari soni ham mutanosib tarzda o'sib borib hisobot yilida 1083 nafarni tashkil qilgan. Mehnat bozorida sanoat ishlab chiqarishida, servis, xizmat ko'rsatish sohasida, qishloq, suv va o'rmon xo'jaligida bitiruvchilaraning bandligi nisbatan o'sib borgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda ham aholini ish bilan bandligini ta'minlash bo'yicha amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, tadbirkorlik va kichik biznesni, oilaviy tadbirkorlikni va o'z-o'zini band qilishni har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda ularning rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berish orqali yangi ish o'rinlarini yaratish asosida aholi bandligini oshirish shular jumlasidandir. 2023 yil 1-yanvar holatiga ko'ra, mamlakatimizda aholi soni 36,1 mln. nafarni tashkil etib, shundan 18,5 mln. nafari shaharlarda va 17,6 mln. nafari qishloq joylarda istiqomat qiladi. Aholi zichligi esa respublika bo'yicha 1 kv.km ga 77 ming kishi to'g'ri keladi. Ammo, hududlar bo'yicha aholi joylashuvi keskin farq qiladi, xususan Qoraqalpog'iston Respublikasida 1 kv.km ga 11,5 ming kishi to'g'ri kelsa, Andijonda 741,4 ming, Buxoroda 48,4 ming, Jizzaxda 66,5 ming, Qashqadaryoda 116,7 ming, Navoiyda 9,1 ming, Namanganda 385,4 ming, Samarqandda 235,4 ming, Surxondaryoda 133,4 ming, Sirdaryoda 201,2 ming, Toshkentda 196,3 ming, Farg'onada 565,1 ming, Xorazmda 312,9 ming va Toshkent shahrida esa 7874,1 ming

kishini tashkil etadi. Bu esa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi turli darajada bo'lgan hududlar bo'yicha ichki mehnat migratsiyasining kuchliligini bildiradi⁹¹.

Jami mehnat resurslarining 77,4 foizi yoki 14,9 mln. nafari iqtisodiy faol aholi hisoblanadi. Shuningdek, 13,5 mln. kishi yoki mehnat resurslarining 69,9 foizi iqtisodiyotda band aholidir, bu ko'rsatkich Jizzax viloyatida esa 2021 yilda mehnat resurslarining 78,2 foizi yoki 612,6 ming nafari iqtisodiy faol aholini tashkil etganligi, shundan 550,7 ming kishi yoki 70,4 foizi iqtisodiyotda band aholini tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin (2.14-jadval)⁹².

2.14-jadval

O'zbekiston Respublikasida 2022 yilda mehnat resurslari va aholi bandligi o'zgarishining salmog'i⁹³ (ming kishi hisobida)

Hududlar	Soni		
	Mehnat resurslari	Iqtisodiy faol aholi	Iqtisodiy bandlar soni
O'zbekiston Respublikasi, shu jumladan:	19334,9	14980,7	13538,9
Qoraqalpog'iston	1066,1	781,5	702,7
Andijon	1745,3	1403,1	1264,3
Buxoro	1072,3	862,2	777,3
Jizzax	782,6	612,6	550,7
Qashqadaryo	1811,0	1339,5	1202,5
Navoiy	564,5	450,2	410,4
Namangan	1586,1	1224,0	1104,8
Samarqand	2122,0	1599,7	1441,3
Surxondaryo	1464,6	1115,8	1001,9
Sirdaryo	489,5	372,1	334,1
Toshkent	1622,5	1348,6	1222,1
Farg'ona	2083,9	1648,8	1483,3
Xorazm	1047,1	806,4	726,4
Toshkent shahri	1877,5	1416,1	1317,2

⁹¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat Statistika agentligining rasmiy sayti. www.stat.uz

⁹² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat Statistika agentligining rasmiy sayti. www.stat.uz

⁹³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat Statistika agentligining rasmiy sayti. www.stat.uz

2022 yil O‘zbekistonda aholi soni 712,4 ming kishiga ko‘payib, jami 35271,3 ming kishini tashkil etdi. Aholining 49,9 foizi ayollar, 50,1 foizi esa erkaklar hisobiga to‘g‘ri kelgan. Hududlar kesimida eng ko‘p aholi Samarqand viloyatida (4 mln.dan ortiq kishi), Jizzax viloyatida esa (1,4 mln. kishi) yashashi qayd etildi. O‘zbekiston aholisining mehnatga layoqatli qatlami aholi umumiy sonining 57,8 foizini, ya’ni 20 mln.kishidan ko‘proqni tashkil etgani, shundan mehnat yoshigacha bo‘lganlar 31,1 foiz, mehnat yoshidan kattalar esa 11,1 foizni tashkil etgan. Yuqoridagi jadvaldan xulosa qilish mumkinki, Jizzax viloyati mehnat bozori uchun kadrlar ehtiyoji kengroq tadqiq qilish mutaxassisliklar kesimida mehnat bozorida talab va taklif muvozanatiga ta’sir ko‘rsatadi.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda biznesni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish borasida amalga oshirilayotgan izchil tadbirlar, qabul qilinayotgan qator dasturiy yo‘nalishlar ushbu sohaning rivojlanishiga olib kelmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kichik tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish to‘g‘risida” Farmoni (2003-yil 23-dekabr, №3367), “Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni (2005- yil14-iyun, №3619), “Tadbirkorlik maqsadlarida foydalanish uchun davlat mulki obyektlarini sotishni jadallashtirish va uning tartib-taomillarini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni (2017-yil 17-yanvar), “Biznesning qonuniy manfaatlari davlat tomonidan muhofaza qilinishi va tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni (2017-yil 24-may), “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunning yangi tahriri (2012 yil), “Tadbirkorlik subyektlari va keng aholi qatlamiga mikrocreditlar ajratish tizimini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2017-yil 17-mart) hamda “Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarolari (2017-yil 17-avgust) kichik biznes va tadbirkorlikda mehnat munosabatlarini takomillashtirishni joriy etish imkoniyatlarining huquqiy asoslarini tashkil etadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, yalpi milliy mahsulot tarkibida xususiy sektorning ulushi va moliyalashtirish nisbatidagi nomuvofiqlik davlat va tadbirkorlik munosabatlari tizimida milliy iqtisodiyot uchun malakali kadrlar tayyorlash sohasida mavjud nomutanosiblikni yuzaga keltiradi⁹⁴.

Malakali kadrlarga talabni qondirish va mutaxassisliklar bo'yicha kadrlarni tayyorlash darajasini zamonaviy texnologiyana mosligini ta'minlash tadbirkorlik tuzilmalarining asosiy maqsadi hisoblandi. OTM raqobatbardoshligini shakllantirish vositasi sifatida biznes va ta'limning o'zaro munosabatini o'zaro muvofiqlik darajasini oshirish muhim hisoblanadi. Iqtisodiy munosabatlar sub'ektlari OTMlar o'rtasida bevosita aloqalarni o'rnatilishi ta'lim dasturlarini moslashtirish, ixtisosliklarni shakllantirish, milliy iqtisodiyotning real ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda amaliy tayyorgarlik ko'rish va ixtisoslashuvni amalga oshirish imkonini beradi⁹⁵.

Ish bilan band bo'lmagan fuqarolarning biznes bo'yicha intilishlariga shart-sharoit yaratish asosida ish o'rinlarini saqlash, yangi ish joylarini yaratish tizimi hududiy jihatdan guruhlanib, mehnat faoliyatini baholashning uslubiy yondashuvlari takomillashtirilgan. Mazkur ilmiy yangilikni asoslashda, avvalo, yalpi ichki mahsulot va uning tarkibida kichik biznesning ulushini tahlil qilish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti (YAIM) hajmi joriy narxlarda) 888,34 trln. so'mga yetti, bu ko'rsatkich 2021-yilda 734,6 trln. so'mni tashkil etgan, va o'tgan davr bilan taqqoslaganda, 5,7% ga o'sgan. Uning tarkibida kichik biznesning ulushi hududlar kesimida tahlil qilindi (2.15-jadval).

⁹⁴ <https://cyberleninka.ru/article/n/talim-hizmatlari-bozorida-oliy-talim-muassasalari-ra-obatbardoshligini-oshirish-ning-a-amiyati-va-tamoyillari>

⁹⁵ <https://cyberleninka.ru/article/n/talim-hizmatlari-bozorida-oliy-talim-muassasalari-ra-obatbardoshligini-oshirish-ning-a-amiyati-va-tamoyillari>

2.15-jadval

O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha kichik tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, (%) ⁹⁶

T/ r	Hudud nomi	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2021-2020 Nisbatan (+, -) %	
								+, -	%
1	O‘zbekiston Respublikasi	56,2	63,6	60,2	56,7	54,2	54,0	-0,2	99,6
2	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	53,0	54,3	55,8	54,4	54,6	57,0	2,4	104,2
3	Andijon	77,5	73,4	79,9	71,4	69,1	71,2	2,1	103
4	Buxoro	70,8	79,8	79,2	75,7	76,9	75,4	-1,5	98
5	Jizzax	74,5	84,3	84,4	84,1	83,2	81,2	-2	97,6
6	Qashqadaryo	54,1	64,3	65,1	60,1	69,0	72,0	3	104,3
7	Navoiy	41,2	42,4	47,9	31,3	23,8	27,1	3,3	113,9
8	Namangan	71,0	79,0	79,9	79,2	74,6	77,5	2,9	103,9
9	Samarqand	72,2	80,0	81,8	77,5	75,4	77,5	2,1	102,8
10	Surxondaryo	70,9	79,4	78,7	78,2	76,0	77,3	1,3	101,7
11	Sirdaryo	66,5	76,9	76,5	73,2	72,6	73,9	1,3	101,8
12	Toshkent	58,3	57,9	63,6	52,7	49,8	46,8	-3	94,0
13	Farg‘ona	64,7	69,8	70,6	67,0	65,1	69,0	3,9	106,0
14	Xorazm	70,2	75,9	78,3	75,3	73,6	74,5	0,9	101,2
15	Toshkent sh.	62,4	63,4	64,2	60,4	77,5	79,0	1,5	101,9

Yuqoridagi jadvalga ko‘ra, kichik tadbirkorlik ulushi, hududlarda yalpi ichki mahsulot tarkibida 2016-yilda-56,2 % ni, 2017-yilda-63,6 % va mutanosib ravishda, 2020-yilda 54,2% ni tashkil qilgan, 2021-yilda-54,0 % ni tashkil qilgan, viloyatlar kesimida eng yuqori ko‘rsatkich: Jizzax (81,2 %), Buxoro (75,49), Surxandaryo (77,3 %), Samarqand (77,5 %), Xorazm (74, 5 %) viloyatlarda yuqori ko‘rstakich kuzatilmoqda, bu borada biznes tuzilmalarini kengaytirish ham yaxshi samara beradi deb hisoblaymiz.

Biznes tuzilmalari – ish bilan ta’minlash va ta’lim muhitida biznesga ta’sir o‘tkazishning asosiy vositasi sifatida bitiruvchilarning kasbiy kompetensiyasi mazmuni va darajasiga talablarni shakllantiradi. Bitiruvchilarni tanlash va keyinchalik ish bilan ta’minlash, shuningdek ularning kasbiy kompetensiyasi mazmuni va darajasiga talablarni

⁹⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat Statistika agentligining rasmiy sayti. www.stat.uz ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

shakllantirish orqali tadbirkorlik muhiti bozorni ma'lum bir kasb va malaka mutaxassislariga, ularning raqobatbardoshligiga ta'sir ko'rsatadigan oliy o'quv yurtlari afzal ko'rgan ta'lim muassasalariga bo'lgan ehtiyojlari to'g'risida xabardor qiladi va bilvosita ta'lim reytingini shakllantiradi⁹⁷.

Shu sababli, hududiy OTMlari faoliyatini baholash va uni yanada rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishdan oldin, hududiy ta'lim xizmatlari bozorining raqobatbardoshligi tahlilini amalga oshirish va OTMning hududiy bozordagi raqobat ta'siridan maksimal darajada himoyalangan optimal o'rnini topishi zarur⁹⁸.

Ta'lim xizmatlari bozorida OTMlarining raqobatbardoshligini tahlil qilish bir qator bosqichlarni o'z ichiga oladi.

1. Raqobatbardoshlikni baholash oliy o'quv yurtlarining ro'yxatini shakllantirishga nisbatan amalga oshiriladi. Metodika OTMlarining maksimal soni bo'yicha cheklovlarni nazarda tutmaydi, ammo tajriba taqqoslashga asoslanganligi sababli ularning soni ikkitadan kam bo'lishi mumkin emas.

Biz, tomonimizdan taklif qilingan yondashuv O'zbekiston Respublikasidagi OTMning raqobatbardoshligini baholashga imkon beradi, chunki uning ko'rsatkichlari to'plami umumiy va ommabop hisoblanadi.

Baholash guruhi quyidagi mezonlarga muvofiq shakllanishi mumkin:

- joylashgan mintaq (hududiy yoki respublikaning muayyan sub'ekti doirasida baholashni talab qiladi);
- hududiy yoki milliy tadqiqot universitetlariga mansubligi;
- ixtisoslik (iqtisodiy, tibbiy yoki boshqa yo'nalish universitetlarining raqobatbardoshligini shu kabi o'quv yurtlari bilan taqqoslash imkonini beradi).

2. Raqobatbardoshlikning xususiy va yig'ma ko'rsatkichlari yig'indisini aniqlash, ularning guruhlarini shakllantirish.

Raqobatbardoshlikni baholash amalga oshiriladigan ko'rsatkichlar

⁹⁷ <https://www.dissercat.com/content/formirovanie-mekhanizma-povysheniya-konkurentosposobnosti-organizatsii-vysshego-obrazovaniya>

⁹⁸ <http://www.dslib.net/economika-xoziajstva/formirovanie-sistemy-ocenki-konkurentosposobnosti-vuza-na-rynke-obrazovatelnyh.html>

quyidagi funksional guruhlar bo'yicha guruhlanadi:

- xalqaro raqobatdoshlik ko'rsatkichlari;
- milliy raqobatbardoshlik ko'rsatkichlari;
- o'zlarini tekshirib ko'rish to'g'risidagi hisobotlarda rasmiylashtirilgan ta'lim muassasalari faoliyati ko'rsatkichlari.

Bugungi kunda iqtisodiy usul va uslublar hamda boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha yondashuvlar iqtisodiy o'sishni ta'minlash, inson kapitalini rivojlantirish orqali aholi farovonligi darajasini oshirish va sifatli ta'lim xizmatlari ko'rsatish natijasida OTMlari raqobat ustunligiga erishish kabi muammolar yechimiga erishish dolzarb bo'lib hisoblanmoqda.

Milliy oliy ta'lim tizimining raqobatbar-doshligi, mutaxassislarni tayyorlash tuzilmasi va hajmining iqtisodiyot ehtiyojlariga muvofiqligi hamda ularning malakasini davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiqligini ta'minlash butun mamlakat iqtisodiyotining innovasion rivojlanishi va raqobatbardoshligining asosi bo'lib hisoblanadi⁹⁹.

Mamlakatimiz OTMlarining raqobatbardoshligini ta'minlash metodologiyasi quyidagi bosqichlarni amalga oshirishni nazarda tutadi:

1. OTMning missiyasi, maqsad va vazifalarini jamiyat, iqtisodiyot va ta'lim xizmatlari mijozlari ehtiyojlariga muvofiqligini tadqiq qilish.
2. Raqobatbardoshlikni shakllantiruvchi OTMlarining tashqi va ichki muhit omillarini tahlil qilish.
3. Raqobatbardoshlikning erishilgan darajasini baholash.
4. OTMning raqobatbardoshlik ixtisosligini shakllantirish.

Dastlab, biz, tadqiqot ob'ekti sifatida Samarqand shahridagi OTMlarning missiyasi, maqsad va vazifalari haqida ma'lumot to'pladik. Ma'lumot manbai OTMlarining huquqiy hujjatlari (nizomlari) va rivojlanish dasturlari hamda alohida holatlarda OTMlarining rasmiy statistik ma'lumotlari va ularning veb-saytlarida joylashtirilgan axborotlardan foydalanildi. Shu bilan birga, hududiy OTMlarining maqsadlari va vazifalarini aniqlashda, ularning o'ziga xos ixtisoslashuvi xususiyatlari hisobga olindi.

⁹⁹ <https://cyberleninka.ru/article/n/talim-hizmatlari-bozorida-oliy-talim-muassasalari-raqobatbardoshligini-oshirish-ning-a-miyati-va-tamoyillari>

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda mehnat munosabatlarining rivojlanishi va uning ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish natijasida, bizningcha, quyidagi chora-tadbirlarning bajarilishiga alohida e'tibor qaratish lozim:

- KBXT sohasiga investitsiyalar, shu jumladan, chet el investitsiyalarini jalb etishni yanada oshirish;
- mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi bozor infratuzilmalarini kengaytirish va rivojlantirish;
- kichik biznes subyektlari, ayniqsa, oilaviy tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan iqtisodiy qo'llab-quvvatlash;
- Aholining, ayniqsa, yoshlarning tadbirkorlik tashabbuslarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash;
- "Har bir oila - tadbirkor" dasturi doirasida aholiga tadbirkorlik ko'nikmalarini o'rgatish uchun "Mahalla-oila-hokimiyat" tuzilmalarining tizimli ishlashiga shart-sharoitlar yaratish.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, KBXTni rivojlantirishning ijtimoiy jihatlarini siyosiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, ishsizlik darajasini pasaytirishga xizmat qilishi, mehnatga layoqatli kishilarning ish bilan band bo'lishlaridagi qulayligi, ayniqsa yoshlar orasida iqtisodiy jihatdan kamol topishga yo'naltirish nuqtayi nazaridan o'ziga xos o'rin egallaydi. Mehnat munosabatlarni o'rganish mazkur sohada boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari va mehnat munosabatlarini o'rganish zaruriyatini taqozo qiladi.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar

1. Monografiyaning "Oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash tizimining asosiy ko'rsatkichlarini kompleks tahlil etishning metodik asoslari" deb nomlangan ikkinchi bobida ta'lim xizmatlari raqobatbardoshlik darajasi tahlili va sifat darajasini baholashga uslubiy yondashuvlar tadqiq qilingan. Unga asosan, ta'lim sifati nazorati ichki va tashqi baholashdan iborat bo'lib, mazkur baholashlarning mexanizmlari turlicha bo'lishi va ta'lim sifatini ta'minlashda ichki baholash hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan muallif tomonidan oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholashga uslubiy yondashuvlarni yoritishda bir qator xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqotlarini o'rganish asosida oliy ta'lim muassasalarining sifat bo'yicha talab qilingan natijalariga erishishiga qaratilgan faoliyat jarayonlari va jihatlari nisbatan belgilangan talablar va ko'rsatkichlar, tamoyillar, metodlar hamda oliy ta'lim sifatini oshirishga ta'sir ko'rsatuvchi chora-tadbirlar ushbu jarayonlarning takomillashuv darajasini belgilab beruvchi mezonlar, ularni baholash yo'llari ko'rsatib berilgan.

2. Tadqiqotlarimizdan kelib chiqqan holda, oliy ta'lim xizmatlarining istiqbol maqsadlari va samarali rivojlantirishning prognoz parametrlari modellashtirilgan. Unga ko'ra, 10000 aholiga nisbatan bitirgan mutaxassislar soni 2030 yilga borib, 37 kishi bo'lishi, yoki 2022 yilga nisbatan 43,3 foizga oshishi kutilmoqda. 2030 yilda oliy ta'lim tashkilotlari soni 6 ta, oliy ta'limdagi talabalar soni 52 ming 800 kishi, 10000 aholiga to'g'ri keladigan talabalar soni 355 kishi, oliy ta'limga qabul qilinadigan talabalar soni 16 ming 200 kishi, bakalavriatga qabul qilinadiganlar soni 14 ming 400 kishi, oliy ta'limni bitiradigan mutaxassislar soni 6 ming 100 kishi, bitirgan mutaxassislarning ishga joylashishi 92 foiz bo'lishi kutilmoqda. Bu modellashtirish oliy ta'lim sifatini ta'minlashga yo'naltirish oliy ta'lim sifati va uning iqtisodiy diagnostikasini tavsiflovchi bir qancha iqtisodiy, matematik va modellashtirish usullaridan foydalanilgan va ta'lim xizmatlarining istiqbol maqsadlari belgilangan.

3. OTM bitiruvchilari raqobatbardoshligining o'ziga xos

xususiyatlari: kasbiy malakasi darajasi ular uchun raqatbardoshlik bazaviy asosi hisoblanadi, ta'lim dasturi darajasi va murakkabligini, tayyorgarlik sifati, bilimlarni o'zlashtirish va boshqa jihatlarni aks ettiradi. (Bunda diplomlar, sertifikatlar, o'qishning ta'lim shakli, mutaxassislik bo'yicha diplomlar asosiy natijalardir). Raqobatbardosh bitiruvchining salohiyati, kasbiy xususiyatlariga xos bo'lgan ambitsiyalarining namoyon bo'lishi, o'z imkoniyatlari darajasining bahosi va fazilatlari, har bir bitiruvchining mehnat bozorida egallagan o'rni va marketing salohiyati, o'zi tomonidan karera rejalari, kelajakda ishga joylashish jarayonidagi qat'iyati o'ziga xos bo'lgan nuqtai nazari, yondashuvi asoslangan.

III BOB. OLIY TA'LIM XIZMATLARI SIFATINI BAHOLASH TIZIMINING RIVOJLANISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

3.1-§. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim xizmatlari sifatining asosiy omillarini baholash

Jahonda ta'lim xizmatlarining qamrov ko'lami hamda sifat jihatidan o'zgarishi «inson omili»dan foydalanishda yangi bosqichga o'tishni namoyon etib, bu ko'plab mamlakatlar iqtisodiyotining rivojlanishida asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda. Jamiyat hayotini yangilovchi ilmiy-texnologik taraqqiyotning jadal o'sishi ta'lim xizmatlarining individuallasuvi, tor sohalar bo'yicha ixtisoslashuvi hamda ko'rsatilayotgan ta'lim xizmatlari sifatining buyurtmachilar talabi asosida ortib borishi mazkur o'zgarishlar bilan bog'liq holda yuz bermoqda.

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, “2020 yilda jahon yalpi ichki mahsulotining 19 foiziga teng miqdordagi mablag' ta'limning barcha bosqichlarini moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan”¹⁰⁰.

Bundan ko'rinadiki, ta'lim xizmatlari sifati va samaradorligini oshirishda mehnat bozori va kadrlar tayyorlash tizimining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

So'nggi davrda jahon mamlakatlarida hududlar iqtisodiyoti o'rtasidagi nomutanosibliklar kuchayib bormoqda. Ilg'or mamlakatlarda aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi real yalpi hududiy mahsulot hajmi bo'yicha rivojlanish darajasi jihatidan eng yuqori va eng past 10 foizlikka kiruvchi hududlar o'rtasidagi o'rtacha tafovut ortib borib, oxirgi o'n yillikda 1,7 martani, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa ushbu tafovut aytilgan davrda 3,2 martani tashkil etgan. Ba'zan iqtisodiy salohiyat bo'yicha mamlakatlar ichidagi hududlar o'rtasidagi farq mamlakatlar o'rtasidagi farqdan katta bo'lmoqda.

Ta'lim siyosatida mehnat bozori alohida sub'ekt sifatida uning

¹⁰⁰ <https://diatatopics.worldbank.org>.


vujudga kelishi, xodimlar va mutaxassislarning katta qismida o'z muaxassisligini o'zgartirish yoki malakasini oshirish ehtiyojlari yuzaga kelishi uzluksiz ta'lim tizimiga o'tish uchun real shart-sharoit yaratmoqda.

Hududiy mehnat bozori infratuzilmasi tarkibida kasbga yo'naltirish va kasbga tayyorlash tizimi quyidagilardan iborat: ishga joylashtirishga ko'maklashish davlat va nodavlat kasbiy maslahat bo'limlari; ish bilan bandlik xizmatining ta'lim muassasalari; mustaqil o'quv markazlari, korxonalar tarkibidagi o'quv markazlari; o'quv yurtlari. XMTning 1949 yildagi "Kasbga yo'naltirish to'g'risidagi" 87-sonli Tavsiyasida kasbga yo'naltirishning mohiyati yoritilgan, uni joriy etish sohasi, turli kategoriyadagi aholi uchun o'tkazish usullari, mazkur jarayonni boshqarish tamoyillari hamda uni amalga oshirish uchun personalni tayyorlash uslublari aniqlangan.

Oliy ta'lim xizmatlari sifati raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda ish beruvchilar, ishga yollanuvchilarning ham moddiy ham o'zaro manfaatdorliklariga bog'liq bo'lib, uni quyidagi ko'rinishda ifodalaymiz (3.1-rasm).

Oliy ta'lim xizmatlari sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini iqtisodiy taraqqiyot istiqbollarini va jamiyat ehtiyojiga mosligini ta'minlaydi, hamda sohani amaliyotga moslashtiradi va investitsion jozibadorligini oshiradi.

Tadqiqot ishida oliy ta'lim muassasasi sifat ko'rsatkichlarining xalqaro standartlar talablariga muvofiqlik darajasini baholash yondashuvi zamonaviy o'qitishni xalqaro talablarga moslashtirishga ko'ra tashkil qilish va talabalar bilimi sifatini samarali milliy ta'lim tizim mexanizmiga ko'ra baholashni hisobga olgan holda takomillashtirilgan.



**3.1-rasm. Oliy ta'lim xizmatlari sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi
ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlar¹⁰¹**

¹⁰¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

3.1-jadval

O‘zbekiston Respublikasida YAIM va ta’lim sohasidagi xizmatlarning 2010-2023 yillardagi dinamikasining qiyosiy tahlili¹⁰²

Yillar	Mamlakat YAIM, mlrd. so‘m.	YAIMning 2010-yilga nisbatan o‘sinh sur‘ati, %	Ta’lim sohasidagi xizmatlar hajmi, mlrd.so‘m.	Ta’lim sohasidagi xizmatlarning 2010-yilga nisbatan o‘sinh sur‘ati, %
2010	78 936,6	100,0	763,1	100,0
2011	103 232,6	130,7	1027,4	134,6
2012	127 590,2	161,6	1385,3	181,5
2015	221 350,9	280,4	2681,4	351,3
2016	255 421,9	323,5	3263,0	427,6
2017	317 476,4	402,2	4402,0	576,8
2018	426 641,0	540,4	5416,5	709,8
2019	532 712,5	674,8	7164,9	938,9
2020	605 514,9	767,1	9073,0	1189,0
2021	738 425,2	935,4	9845,7	1264,6
2022	896 617,9	1135,8	15858,4	2078,1
2023	1 066 569,0	1351,2	20418,4	2675,7

Tahlil natijalari bo‘yicha mamlakatimizda YAIM hajmi 2010 yilda 78936,6 milliard so‘mni, 2023 yilda esa 1 066 569,0 milliard so‘mni tashkil etgan. Xususan, YAIM hajmi 2010-2023 yillar davomida, mutanosib ravishda ta’lim sohasidagi xizmatlar hajmi ham salmoqli o‘shib 2010 yilda 763.1 milliard so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib 20 418,4 milliard so‘mni tashkil qildi.

O‘zbekiston Respublikasi dunyo davlatlari reytingida muhim va salmoqli o‘rinlarda qayd etilgan. Jumladan, ilmiy, texnikaviy rivojlanishni aks ettiruvchi: ilmiy tadqiqot faoligi, ta’lim darajasi bo‘yicha 82 (195), patentlar olish bo‘yicha 59 (103), internet tizimining joriy etilishi va uning tezligi bo‘yicha 114 (211) o‘rinlarni band qilgan. O‘zbekiston aholisining savodxonlik darajasi 96.9 % bilan 61 o‘rinda qayd etilgan.


Oliy ta’lim xizmatlari bozorini rivojlanishi va mehnat bozori bilan o‘zaro bog‘liqligi nafaqat u oliy ta’limga ega bo‘lgan mutaxassislarga to‘lanadigan ish xaqiga balki ishlab chiqarish

¹⁰² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

korxonalarida yaratilgan ishlab chiqarish infratuzilmalariga, ularni kelajakda mansab darajalarida rivojlanishi kafolatlanishiga hamda mehnat qilish uchun zarur muhit sharoitlarni borligiga bog‘liq.

Sh.Sh.Zoxidovanning fikricha “ta’lim xizmatlari va mehnat bozorlari aloqalari tizimining ajralmas qismlari hisoblanadi”¹⁰³ deb ta’kidlaydi. Mehnat bozori bilan oliy ta’lim xizmatlari bozorlari o‘rtasidagi munosabat oliy ta’lim bozori talablarini e’tiborga olgan oliy ta’lim xizmatlari tizimi tomonidan tayyorlangan oliy malakali mutaxassislariga bo‘lgan jami taklifga bog‘liq. Oliy ta’lim xizmatlari tizimida tayyorlangan oliy malakali mutaxassislar va iqtisodiy faollikda band bo‘lgan oliy malakali mutaxassislar oliy ta’lim bozorida jami taklifni ifodalasa jami talab oliy malakali mutaxassislariga bo‘lgan talab ifoda etadi. Bu quyidagi 3.2-rasmda ko‘rinishi mumkin.

Bozor mexanizmi harakati ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan ishchi va oliy malakali mutaxassislarni ta’lim xizmatlari tizimi asosida tayyorlab berish, mavjud ortiqcha bo‘lgan oliy ma’lumotli mutaxassislarni ish joylari bilan ta’minlash vazifalarini amalga oshiradi. Bozor mexanizmini yana bir yo‘nalishi mehnat bozorida ishchi kuchiga oliy ma’lumotli mutaxassislariga bo‘lgan talab va taklif kon’yunkturasini tashkil topishidir.



3.2-rasm. Umumlashgan mehnat va oliy ta’lim xizmatlari bozoridagi talab va taklif¹⁰⁴

¹⁰³ Zaxidova Sh.Sh. Oliy ta’lim xizmatlari bozorining amal qilish mexanizmi samaradorligini oshirish (O‘zbekiston materiallari asosida). i.f.n. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2012. - B. 27 b

¹⁰⁴ Ma’lumotlar asosida muallif ishlanmasi

Mehnat bozorini rivojlantirish ta'lim tizimidagi mehnat bozori va uni boshqarish darajasiga bog'liq bo'lib, quyida keltiriladigan omillar bu jarayonga ta'sir ko'rsatadi:

- bilimning asosiy kapital maqomini olganligi;
- ta'lim sohasida davlat rolining o'zgarganligi;
- axborot texnologiyalarining rivojlanganligi.

Bozor sharoiti mehnat resurslarini boshqarish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish oqibatida ulardan samarali foydalanish mumkin. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat va oliy ta'lim bozorini boshqarish tashkiliy iqtisodiy mexanizmga asoslangan bo'lib, ularning moddiy manfaatdorligidan kelib chiqqan holda mehnat munosabatlari shakllanadi.

Mehnat bozorida ish beruvchi tadbirkorning iqtisodiy manfaati ishga yollanuvchi yollanma ishchi kuchining iqtisodiy manfaatdorligi ishlab chiqaruvchi ya'ni ish beruvchi sub'ekt manfaatdorligida farq qiladi. Demak, mulk egalari bo'lib hisoblanadigan davlat va nodavlat mulkchiligi asosida tashkil topgan ishlab chiqarishni borqaror rivojlanishi ularda band bo'lgan mehnat qiluvchi sub'ektlarning shaxsiy manfaatdorligini ijtimoiy manfaatdorlik bilan bog'liq ravishda olib borish muammosi bozor iqtisodiyotining eng dolzarb muammosi hisoblanadi.

Bu muammoni hal etishning birdan-bir yo'li fikrimizcha, ularni moddiy rag'batlantirishni o'zaro muvofiqlashtirish asosida mehnat va oliy ta'lim bozorida ijtimoiy hamkor sub'ektlar tariqasida faoliyat olib borishi uchun zarur bo'lgan mexanizmni shakllantirish deb qarash lozim. Ijtimoiy munosabatlarni bozor iqtisodiyoti sharoitida turli mulkchilik shakllariga asoslangan ishlab chiqarish jarayonida mehnat va oliy ta'lim xizmatlari bozorida mehnat qilishga layoqatli ishchi kuchlarini taqsimlash, bandligini ta'minlash va ularni o'zaro bog'liqligi va umumiy taqsimotga va mehnat taqsimotiga ta'siri ishchi kuchi bandligining eng asosiy bog'lovchi qismidir.

Fikrimizcha, mehnat va oliy ta'lim bozori asosida mehnatga layoqatli ishchi kuchlarini ish joylari bilan ta'minlashni aniqlashda ijtimoiy hamkorlik mehnat sohalarini faqat mehnat bitimiga asoslangan mehnat munosabatlari tashkil etish bilan kifoyalanmay umumiy

ijtimoiy mehnat sohalarini qamrab olgan holdagina bu muammoni hal qilish mumkin.

Muammoni hal etishda davlat, yollanib ishlovchilar va ijtimoiy himoyaga muhtojlar fikr va mulohazalaridan kelib chiqqan holda umumiy xulosalarga kelish asosida xal etish zarur. To'g'ri bozor iqtisodiyotini davlat va nodavlat mulkchiligi sharoitida erkinlashtirilgan va erkin raqobatga asoslangan fuqarolar jamiyatini qurar ekanmiz bu muammoni birgalikda umum xulosada amalga oshirilishi zarur, aks holda bu muammoni hal etish javobsiz qolishi mumkin. Bu muammoni amalga oshirishda mehnat va oliy ta'lim bozori taalluqli barcha sub'ektlar davlatning bosh islohotchi ekanligini tan olgan holda birgalikda uni hal etish maqsadiga erishish mumkin.

Mehnat va oliy ta'lim bozorini tartibga solishni amalga oshirish uchun bu sub'ektlarni o'zaro bog'liqlikda bir-biriga bog'liq va bir biriga ta'sir etuvchi umumlashgan ya'ni yagona tashkiliy-iqtisodiy mexanizm tariqasida qarash to'g'ri bo'ladi. Chunki ishchi kuchi bo'yicha shakllanadigan iqtisodiy holat ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq. Demak ishlab chiqarish jarayoni tashkiliy jihatdan kengaytirish gorizontali yoki vertikal jihatdan ularga bo'lgan talab va taklifni shakllanishini optimal nisbatini tashkil topishiga olib keladi. Oliy ta'lim bozorining ham samarali bo'lishi tarmoq ishlab chiqarish sub'ektlaridan oliy malakali mutaxassislarga bo'lgan talab va taklif asosida shakllanadi. Oliy ta'limning asosiy vazifalaridan biri har bir yosh mutaxassisning tez o'zgaruvchan mehnat bozorida xaridorgir bo'lib qolishi, rivojlanib borayotgan innovatsion iqtisodiyotda to'laqonli ishtirok etishi va biznes sohasi talablariga javob beradigan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash hisobalandi.

OTM bitiruvchilari raqobatbardoshligini integral baholash mezonlari va ko'rsatkichlar tizimi to'laqonli bilimlar to'plamini yaratishda yordam beradigan va ko'plab o'zaro aloqador jihatlarni ichiga olgan asosiy sifatlarni aniqlashtirishga xizmat qildi¹⁰⁵. Baholash uslubi kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy

¹⁰⁵ Annakulov K. Mehnat bozorida oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari raqobatbardoshligini oshirish. I.f.b.f.d (PhD) ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. Toshkent. 2023. 28 B.

yoʻnalishlarini belgilab berdi, shuningdek, oraliq bosqichda baholash orqali talabalarda zarur malaka va koʻnikmalarni hosil qilish mumkinligini isbotladi.

Olib borilgan tadqiqotlarga asoslanib, mamlakatimizda oliy taʼlim muassasalarini bitiruvchi bakalavrlarning raqobatbardoshligi viloyatlar boʻyicha keskin farq qilishini koʻrsatdi. 2023 yil maʼlumotlariga koʻra, ushbu koʻrsatkich Oʻzbekiston boʻyicha 86,7%ni tashkil etgan holda, u Namanganda 92,2 %ni, Andijonda 91,4% ni tashkil qilgan. Ayni paytda ushbu koʻrsatkich Fargʻonada atigi 63,2% ni tashkil qildi. Ushbu koʻrsatkich salmogʻi ham viloyatlar oʻrtasida ancha tafovutlar mavjud boʻlganligini, ular koʻpayish tendensiyasiga ega ekanligini koʻrsatdi (3.2-jadval).

3.2-jadval


Oʻzbekiston Respublikasida oliy taʼlim muassasalari bitiruvchi-bakalavrlarining raqobatbardoshligi darajasi¹⁰⁶ (%)

Hududlar (viloyatlar) nomi	Yillar					
	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Qoraqalpogʻiston Respublikasi	83,0	82,7	80,4	81,2	80,9	81,3
<i>viloyatlar:</i>						
Andijon	88,5	91,4	91,9	91,5	91,7	91,4
Buxoro	89,8	87,1	85,8	86,1	87,3	87,9
Jizzax	94,4	99,0	99,0	98,0	96,0	95,0
Qashqadaryo	85,2	85,7	85,9	85,4	86,2	85,7
Navoiy	74,3	75,8	76,8	77,2	77,1	78,4
Namangan	89,6	91,4	92,7	91,8	92,3	92,2
Samarqand	87,4	88,7	89,5	89,6	88,7	89,8
Surxondaryo	96,4	94,9	92,6	92,3	91,8	91,6
Sirdaryo	85,2	85,8	86,5	86,7	87,1	87
Toshkent	89,4	88,2	89,7	90,2	90,4	91,1
Fargʻona	65,5	64,9	62,5	63,3	63,7	63,2
Xorazm	83,1	88,6	89,2	89,5	89,8	90,3
Toshkent sh.	84,8	87,4	87,9	87,6	88,2	88,7
Respublika boʻyicha	86,6	86,5	86,4	80,6	86,5	86,7

3.2-jadval maʼlumotlariga koʻra, respublikamizda oliy taʼlim

¹⁰⁶ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi maʼlumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

muassasalari bitiruvchi-bakalavrlarining raqobatbardoshligi darajasi 2023 yilda 86,7 foizni tashkil etgan bo‘lib, ushbu raqobatbardoshlik darajasi Jizzax viloyatida 2018 yilda 94,4 % dan 2023 yilda 95,0 % ga oshib borgan. Bu borada Jizzax viloyatida OTMga talabalikka qabul qilingan bitiruvchilar soni quyidagi chizmada keltiriladi (3.3-rasm).



3.3-rasm. Jizzax viloyatida OTMga talabalikka qabul qilingan bitiruvchilar salmog'ining o'zgarishi¹⁰⁷

3.3-rasmda ko‘rinib turibdiki, Jizzax viloyati bo‘yicha 2019 yilda oliy ta‘limga qabul qilinganlar 8,9 % ni tashkil qilgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2022 yilga kelib 38,4 % ni tashkil qilgan. Ayniqsa keyingi yillarda bu borada davlat xususiy sherikchlik asosida tashkil etilgan va qo‘shma dasturlar asosidagi oliy ta‘lim muassasalarining tashkil etilganligi ta‘lim tizimini, xususan, oliy ta‘lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirilayotganligi natijasi deb hisoblash mumkin.

Bizning fikrimizcha xududlarni rivojlantirishning oliy malakali kadrlar bilan bog‘liq jihatlariga, muhim tavsiyalarga alohida e‘tibor qaratishni lozim va bu quyidagilardan iborat:

1. Hududlarning iqtisodiy va mehnat potensialiga mos kadrlarga bo‘lgan extiyojlarini aniqlash tizimini joriy etish lozim.
2. Erkin iqtisodiy xududlarda xorijiy ta‘limning barcha bo‘g‘inlarini ochishga ruxsat berish va shu asosda ta‘limni

¹⁰⁷ Ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan

raqobatdoshligini ta'minlashning mahalliy muhitini shakllantirish lozim (ya'ni, maktabgacha ta'lim, maktab ta'limi, o'rta ta'lim va oliy ta'lim bo'yicha xorijiy ta'lim muassasalari faoliyatini yo'lga qo'yish va ularga ruxsatnomalar berish).

3. Oliy ta'limning MDX davlatlari yoki Shanxay xamkorlik tashkilotlari uchun bosqichma bosqich yagona ta'lim kelishuvlariga o'tish orqali xududiy imkoniyatlarni oshirish lozim.

4. Oliy ta'limning xususiy bo'g'inlarini tashkil etish va ularda ta'lim sifatini nazorat qilishning muhim normalarini belgilash.

5. Oliy ta'lim bitiruvchilarining xududlar bo'yicha mehnat taqsimoti bilan shug'ullanuvchi maxsus vakolatli jamoat fondlarini tashkil etish;

6. Fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini jadallashtirish yuzasidan xududlarda maxsus fondlarni tashkil etish va ularning mablag'larini shakllantirishni tartiblarini belgilash.

7. Oliy ta'limni pedagog qadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning masofaviy, virtual shakllari yuzasidan xududiy markazlar faoliyatini yo'lga qo'yish.

8. Oliy ta'limning barcha pedagog xodimlarini ishlab chiqarish ob'ektlari bo'yicha bandligini yo'lga qo'yish orqali ularning amaliy ko'nikmalarini oshirishga muhim e'tibor qaratish.

9. Hududlarda ishlab chiqarish infratuzilmasini mutanosib rivojlantirishda barcha bo'g'inlar uygunligiga muhim e'tibor qaratish lozim.

10. Hududlarni iqtisodiy rivojlanishining muhim indikatorlariga ta'limga oid ko'rsatkichlarni kiritish va ularning har yilga ko'rsatkichlarini baholash va rasmiy e'lon qilish lozim.

3.2-§. Oliy ta'lim tizimida xizmat ko'rsatish sifatini oshirishning moliya-iqtisod mexanizmlari samaradorligini takomillashtirish

Mamlakatmiz milliy iqtisodiyotining oliy ta'lim tizimidagi keski o'zgarishlar ushbu sohada olib borilayotgan chora-tadbirlar ta'lim sifatini keskin oshirish, moddiy-texnika va moliyaviy bazani jiddiy ravishda mustahkamlash, foydalanilayotgan iqtisodiy resurslarni kengaytirish, oliy ta'lim muassasasining moliyaviy mustaqilligini

oshirishga qaratilgan. Oliy ta'limning zamonaviy tizimlari bozor mexanizmlaridan keng foydalanishiga asoslanmoqda. Bunda iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish asosida oliy ta'limning umumiyligi va yuqori sifatga erishishi, davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish masalasi bosh maqsadga aylanmoqda.

Zero O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24 dekabardagi "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori oliy ta'limda olib borilayotgan tizimli islohotlar samaradorligini oshirish, davlat oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash masalalarini mustaqil hal etish, ta'lim muassasalari orasida raqobat muhitini rivojlantirishni asosiy maqsad sifatida belgilab bergan. "Moliyaviy mustaqillik berilayotgan davlat oliy ta'lim muassasalariga ta'lim xizmatlari bozoridagi talabni inobatga olgan holda to'lov-kontrakt asosida o'qitish qiymatini belgilash, talabalarning to'lov-kontrakt mablag'larini to'lash muddatlarini belgilash va uzaytirish, ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llay oladigan va ilmiy izlanish olib boradigan mahalliy hamda xorijiy professor-o'qituvchi va mutaxassislarni shartnoma asosida jalb qilish, o'quv-ilmiy jarayonlarga jalb etilgan xorijiy yuqori malakali mutaxassislar mehnatiga haq to'lash miqdorlarini bozor konyunkturasidan kelib chiqib belgilashga oid qarorlar qabul qilish, professor-o'qituvchilar shtat birliklarini kiritish me'yorlarini ishlab chiqish, o'z mablag'lari hisobidan talabalar uchun stipendiya va grantlar ajratish" va boshqalar belgilab berildi¹⁰⁸.

Shuningdek, davlat moliyaviy nazorati organlarining iqtisodiy faoliyati 2000 yil 14 dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining byudjet tizimi" to'g'risidagi qonuni asosida tartibga solinib uning 22- moddasida keltirilganidek "Respublika byudjetidan xarajatlarni moliyalashtirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi, jumladan, fan, ta'lim, madaniyat, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport (Respublikaga

¹⁰⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 25.12.2021 y., 07/21/61/1195-son; 02.04.2022 y., 07/22/188/0259-son, 22.06.2022 y., 07/22/290/0563-son; 04.07.2023 y., 06/23/107/0441-son)

bo'ysunadigan byudjet tashkilotlari bo'yicha)¹⁰⁹.

Oliy ta'lim tizimida uning natijaviy faoliyatining xarakterlovchi ko'rsatkichlar moliyaviy-iqtisodiy va boshqa resurslari bilan o'zaro bog'liq bo'lib, bu ko'rsatkich moliyaviy-iqtisodiy resurslari haqidagi statistik ma'lumotlar umumiy xarakterda bo'lib, resurslarning real dinamikasi haqida asosli mulohazalar yuritish uchun asos bo'ladi.

Bu borada etakchi olimlarning tadqiqotlarida keltirilishicha¹¹⁰ "O'rganishlar rivojlangan g'arb mamlakatlarida bu borada uchta model shakllanganini ko'rsatdi:

1) erkin bozor munosabatlariga moslashgan moliyaviy-iqtisodiy model;

Bu modelda davlat tomonidan sarflanadigan mablag'larning cheklanishi oliy ta'lim tizimi oldidagi davlatning majburiyatlarini kamaytirish qo'llab-quvvatlanadi. Nazariy-monetaristik jihatdan, ta'limga ketgan xarajatlar yil sayin milliy daromad o'sish sur'atlaridan ildamroq ortadi, davlat bunday sur'atlarda o'sayotgan xarajatlarni qoplay olmaydi, shuning uchun bu xarajlarni ta'lim oluvchilar zimmasiga yuklash maqsadga muvofiq, degan farazga suyaniladi. Shu bois ham bu nazariya tarafdorlari faqat o'rta ma'lumot davlat tomonidan moliyalashtirish va fuqarolar uchun bepul bo'lishi kerak deb hisoblashadi.

2) davlat rolining etakchiligiga asoslangan moliyaviy-iqtisodiy model;

Bu modelda ta'lim insonga yo'naltirilgan, shuning uchun u biznesning ta'lim jarayoniga ortiqcha aralashuvidan xoli bo'lishi kerak, degan nuqtai nazar himoya qilinadi. Uning tarafdorlari davlatning farovonligi uning o'ziga bog'liq, shu bois davlat tegishli xarajatlarni oshirish orqali ta'limni moliyalashtirishni o'z zimmasiga olishi lozim (masalan, soliq tizimini takomillashtirish evaziga) degan g'oyani ilgari surishadi.

¹⁰⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 25.12.2021 y., 07/21/61/1195-son; 02.04.2022 y., 07/22/188/0259-son, 22.06.2022 y., 07/22/290/0563-son; 04.07.2023 y., 06/23/107/0441-son)

¹¹⁰ O'zbekiston respublikasining byudjet tizimi to'g'risida" Qonuni. <https://parliament.gov.uz/uz/laws/adopted/97/3480/>

3) davlat bozori tamoyillariga asoslangan moliyaviy-iqtisodiy model;

Bu model tarafdorlari ta'limni moliyalashtirish o'quv yurti faoliyati natijalarini emas, balki barchaga baravar standart imkoniyatlarini ta'minlashi lozim, deyishadi. Ta'limni moliyalashtirish o'quv yurti mahsulotini bevosita iste'molchiga yo'naltirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Shu bilan birga, davlat tomonidan moliyalashtirish darajasi saqlangan holda boshqa mablag'lardan ham foydalanish ma'qullanadi".

Mazkur fikrni davom ettirgan olimlarning fikricha "ta'lim muassasasi mustahkam moddiy bazaga ega bo'lsa, moliyalashtirishning qo'shimcha manbalari hisobiga o'qituvchilarga boshqa ta'lim muassasasidagiga nisbatan yuqoriroq ish haki to'lay olsa, ushbu barcha ne'matlardan mahrum bo'lgan oddiy ta'lim muassasasidagiga qaraganda ta'lim sifati yuqoriroq bo'lishini ta'minlashi mumkin. Lekin masala har bir ta'lim muassasasi o'zida mavjud imkoniyatlardan nechog'li foydalanayotganligida ko'rinadi. Zero, oliy ta'lim majmuasida ta'lim sifati bir qancha omillarga, birinchi navbatda esa talabalar ta'lim olayotgan oliy ta'lim muassasasida ilmiy-pedagogik faoliyatni olib borish sifatiga, shuningdek, ta'lim muassasasining o'quv-moddiy va ilmiy-metodik asoslariga, tashkiliy-boshqaruv, moliyaviy-iqtisodiy, texnik va kadrlar bilan ta'minlanganlik holatlariga bog'liq bo'ladi¹¹¹.

Ta'lim tizimi boshqaruv sohasida quyidagi omillar alohida nazorat qilinadi:

ta'lim sohasidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq ta'lim tizimining barcha bo'g'in boshqaruv organlarining vakolat doiralari belgilab qo'yilganligi;

ta'lim muassasalarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatini amalga oshirish, ta'lim jarayonini tashkil etish borasidagi mustaqilligi va huquqlari birmuncha kengaytirilishi;

ta'lim sifatini nazorat qilish, baholash va uni boshqarish jarayoni tashqi va ichki nazorati, ta'lim muassasalarini jamoatchilik asosida

¹¹¹ Zahidova Sh.Sh. Oliy ta'lim xizmatlari bozorining amal qilish mexanizmi samaradorligini oshirish (O'zbekiston materiallari asosida). i.f.n. ...diss. avtoref. – T.: TMI, 2012.

boshqaruv mexanizmi yo'lga qo'yilganligi;

ta'lim siyosati, uni rivojlantirishga qaratilgan strategik va konseptual qaror hamda tashabbuslar oliy ta'lim muassasalari tomonidan belgilanishi hamda moliyalashtirish markazlashgan holda amalga oshirilishi.

Ta'lim tizimidagi davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirishda va ta'lim muassasalarida kompleks monitoring olib borishga alohila e'tibor qaratish lozim.

Bu - birinchidan, ta'kidlash lozimki, davlat moliya tizimida ta'lim muassasalari moliyaviy faoliyatini muntazam o'rganish, nazorat qilish bo'yicha tashkiliy tizimni shakllantirish zarur;

- ikkinchidan, ta'lim tizimiga sarflangan moliyaviy xarajatlarni nazorat qilish uchun o'tkazilgan tekshirish va taxlillarning shaffofligini, ob'ektivligini va sifatini ta'minlash zarur;

- uchinchidan, ta'lim muassasalari moliyaviy faoliyatini monitoring qilish jarayonida, uning asosiy maqsadi, faoliyatidan kuzatilayotgan natijalar bilan bog'liq xolda olib borish maqsadga muvofiq. Muammoning echimiga bunday yondashuv, ta'lim tizimida davlat moliya nazorati samaradorligini ta'minlashga yordam beradi¹¹².

O'zbekistonda ta'lim tizimini boshqarishni modernizatsiyalash, boshqaruv modellarini takomillashtirish, mexanizmlar, usul va vositalarni jalb etish bilan birga moliyaviy-iqtisodiy kompetensiyalarga alohida e'tibor, rahbar xodimlarning kasbiy layoqatiga qo'yiladigan standart va talablarni ishlab chiqish, ularni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan isloh qilish, ushbu standartlarda kasbiy (tashkiliy-boshqaruv), kommunikativ, axborot kommunikatsiya texnologiyalari va media savodxonlik, o'z-o'zini rivojlantirish, o'z ustida ishlash, mas'uliyat va moslashuvchanlik, inklyuziv ta'limni olib borish maqsadga muvofiq. Olib borilgan tadqiqotlarga asoslanib, oliy ta'lim tizimida xizmat ko'rsatish sifatini oshirishning moliya-iqtisod mexanizmlari samaradorligini ta'minlashga ta'sir ko'rsatuvchi ichki va tashqi omillarni quyidagicha guruhladik (3.3-rasm).

¹¹² Xakimov N.N. Ta'lim tizimida davlat moliyaviy nazorati samaradorligini ta'minlash "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. 2021 yil № 4, -58 B.

Oliy ta'lim tizimida xizmat ko'rsatish sifatini oshirishning moliya-iqtisod mexanizmlari	
Ichki omillar	Tashqi omillar
Oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash uchun moliyaviy resurslardan samarali foydalanish	Ta'lim muassasalari boshqaruviga ta'sir ko'rsatuvchi institutsional (ijtimoiy, iqtisodiy, moliyaviy, siyosiy, huquqiy, demografik, texnologik) asoslarni takomillashtirish
Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamining oliy ta'lim xizmatlaridan samarali foydalanishini qo'llab-quvvatlash uchun moliyaviy mablag'lar manzilliligini ta'minlash	Oliy ta'limning davlat buyurtmalari asosida moliyalashtiriladigan sohalarini har bir hududning o'ziga xosligini inobatga olgan holda shart-sharoitlarni yaratish
Har bir oliy ta'lim muassasalari infratuzilmasiga servis xizmatlari ko'rsatishning alohida turlari, jumladan, bino va inshootlar, talabalar turar joylari, sport ob'ektlaridan foydalanish, kompyuter texnikasi va yuridik xizmatlar ko'rsatishni autsorsing shartlarida tashkil etish	Ta'lim majmuasining ilmiy salohiyati, uning moddiy-texnik bazasi imkoniyatlarini inobatga olib, talabalarni to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilish parametrlarini belgilash, yangi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura utaxassisliklarini ochish
Oliy ta'lim tizimida sarf-xarajatlarni rejalashtirish qonuniyatlariga amal qilgan holda smetalar asosida bashoratlash, byudjetdan tashqari mablag'larni umumlashtirish va oldindan belgilangan maqsadlarga sarflashni nazorat qilish	Oliy ta'lim muassasalarida xorijiy talabalarning tahsil olishida to'lov shartnoma qiymatlarini mustaqil belgilash vakolatini berish choralari ko'rish
Ishlab chiqarish va boshqa tashkilotlar tomonidan ilmiy tadqiqot institutlari va OTMda amaliy tadqiqotlarni birgalikda moliyalashtirishni faol amalga oshirish chora-tadbirlarini belgilash.	Oliy ta'limning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish asosida ta'lim tizimini keng darajada moliyalashtirishni tartibga solish

3.3-rasm. Oliy ta'lim tizimida xizmat ko'rsatish sifatini oshirishning moliya-iqtisod mexanizmlariga ta'sir ko'rsatuvchi omillar¹¹³

Yuqoridagi rasmda oliy ta'lim tizimida xizmat ko'rsatish sifatini

¹¹³ Muallif ishlanmasi

oshirishning moliya-iqtisod mexanizmlariga ta'sir ko'rsatuvchi ichki va tashqi omillar OTMlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash uchun resurslardan unumli foydalanish jihatlarini ifodalaydi. Bunda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamining oliy ta'lim xizmatlaridan samarali foydalanishini qo'llab-quvvatlash uchun moliyaviy mablag'lar manzilliligini ta'minlashga ham alohida e'tibor qaratilib, bu vazifa ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar, shuningdek, imkoniyati cheklanganlarning oliy ta'lim bilan qamrov darajasi oshirishni belgilaydi.

Har bir oliy ta'lim muassasalari infratuzilmasiga servis xizmatlari ko'rsatishning alohida turlari, jumladan, bino va inshootlar, talabalar turar joylari, sport ob'ektlaridan foydalanish, kompyuter texnikasi va yuridik xizmatlar ko'rsatishni outsorsing shartlarida tashkil etish, ishlab chiqarish va boshqa tashkilotlar tomonidan ilmiy tadqiqot institutlari va OTMda amaliy tadqiqotlarni birgalikda moliyalashtirishni faol amalga oshirish chora-tadbirlarini belgilash ham alohida ahamiyatga ega bo'lib, bu borada Jizzax viloyatida joylashgan Jizzax politexnika institutining "Quyosh paneli", Jizzax davlat pedagogika universitetining, O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filialida, Sambaxram universitetida servis xizmatlarining ijobiy yutuqlarini keltirish mumkin.

Ishlab chiqarish va boshqa tashkilotlar tomonidan ilmiy tadqiqot institutlari va OTMda amaliy tadqiqotlarni birgalikda moliyalashtirishni faol amalga oshirish chora-tadbirlarini belgilash. Korxona va tashkilotlar bilan tuzilgan xo'jalik shartnomalari asosida bajarilayotgan ishlar hajmi ham salmoqli bo'lib, bunda faqatgina OTM professor-o'qituvchilarigina emas balki korxona va tashkilotlarning ham qizqishlari va e'tiborlari etarli darajada bo'lishi kerak deb hisoblaymiz, shu orqali esa OTMlar uchun "byudjetdan tashqari mablag' topish" bilan birgalikda nazariya bilan amaliyot o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik mustahkamlanadi, hatto korxona va tashkilotlar buyurtmalari asosida malakali mutaxassislarni tayyorlash imkoniyatlari ham kengayadi.

Tashqi omillar guruhida ta'lim muassasalari boshqaruviga ta'sir ko'rsatuvchi institutsional asoslarni takomillashtirish, oliy ta'limning davlat buyurtmalari asosida moliyalashtiriladigan sohalarini har bir hududning o'ziga xosligini inobatga olgan holda shart-sharoitlarni

yaratish, ta'lim majmuasining ilmiy salohiyati, uning moddiy-texnik bazasi imkoniyatlarini inobatga olib, talabalarni to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilish parametrlarini belgilash, yangi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini ochish, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish asosida ta'lim tizimini moliyalashtirishni tartibga solish belgilangan bo'lib, bular bevosita jadal iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan ta'lim tizimiga investitsiyalarni yo'naltirish, inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan ustuvor vazifalarni bajarishda alohida o'rin egallaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim muassasalarini bosqichma-bosqich o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazish to'g'risida"gi qarori asosida mamlakatimizda 2020 yil 1 yanvardan boshlab yurtimizdagi o'nta oliy ta'lim muassasasi tajriba-sinov tariqasida o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tdi. Mazkur tizim oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy boshqaruv tizimini liberallashtirish, ta'lim sifatini oshirish, byudjetdan tashqari mablag'larni jalb qilishda ko'proq imkoniyatlar yaratish, professor-o'qituvchilar va talabalarga zamonaviy shart-sharoitlar yaratish orqali oliy ta'limdagi islohotlar samaradorligiga erishishdan iborat. Oliy ta'lim tizimida moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlar ularning tashkiliy tuzilishini rivojlantirish va moliyaviy mustaqilligi sharoitida yanada to'laroq namoyon bo'ladi. Zero, iqtisodiyotni modernizatsiyalash iqtisodiy ob'ektiv qonunga muvofiq, mustaqil iqtisodiy faoliyatga ega sub'ektlar o'rtasida tovar va xizmatlarni qulay sharoitda yaratish va optimal darajada foyda keltiradigan narxlarda sotish, raqobatbardosh iqtisodiyotda o'z ustida tinimsiz harakatda bo'ladi.

"Oliy ta'lim muassasalarini investitsion manbalarini diversifikatsiyalashda asosan 3 toifadagi moliyalash manbalari keng qo'llaniladi. Bular:

1. Davlat tomonidan moliyalashtirish (soliq to'lovchilar tomonidan);
2. Talabalarning ta'lim olish uchun belgilangan shartnoma

to'lovlari yoki moliyaviy badallari;

3. Muqobil yoki qo'shimcha investitsiyalash manbalari (xususiylashtirish, xayriya (etdaumen) fondlari, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni tijoratlashtirish, turli pullik xizmatlar tashkil etish).

Bugungi kunda dunyo miqiyosida keltirilgan investitsion manbalardan dastlabki ikkitasi barcha oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning eng katta qismini tashkil etadi"¹¹⁴.

Malakali kadrlar tayyorlashning bosh maqsadi va vazifasi nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va foyda olishni ko'paytirishdan, balki aholining ijtimoiy talab-ehtiyojlariga yo'naltirishdan iborat bo'ladigan bozor iqtisodiyoti tizimini qurish ijtimoiy bozor iqtisodiyotini vujudga keltirishning asosiy vazifasidir. Bozor iqtisodiyoti ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlanishdan iborat bosh maqsadga erishish bilan birga, ba'zi ijtimoiy masalalarni ham ma'lum darajada hal etadi, chunki bozor iqtisodiyotining ko'proq mahsulot ishlab chiqarishdan iborat bosh vazifasi hal qilinishi ish bilan bandlikni ta'minlashga, mehnat natijalari uchun ish haqi to'lash va hokazolarga olib keladi.

Dunyo tajribasi va amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, insonlarning bilim olishga yo'naltirilgan mablag'lari boshqa omillarga nisbatan tez o'zini oqlaydi. Malakali kadrlar har qanday mamlakatning kelajagini belgilab beradi. Malakali kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlash mumkin. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan malakali kadrlar tayyorlash siyosati O'zbekiston taraqqiyotining muhim shart-sharoiti deb qaralmoqda.

Bizningcha, malakali kadrlar tayyorlashni yanada takomillashtirish borasida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, ya'ni milliy iqtisodiyot talablariga mos ravishda malakali mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojni aniqlash. Tahlil natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, iqtisodiyotning tarmoqlar bo'yicha kadrlar tayyorlashda nomutanosiblik mavjuddir. Buning uchun oliy malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojni

¹¹⁴ Thomas Estermann & Enora Bennetot Pruvot "Financially Sustainable Universities II" European universities diversifying income streams. EUA publications 2011. Page 26

aniqlash hamda bashorat qilishning aniq uslublarini yaratish lozim.

Ta'limga sarflanayotgan davlat mablag'lari ulushini asta-sekin kamaytirib borish, bu borada faol siyosatdan nafaol siyosatga o'tib, moliyalashtirishni korxona va tashkilotlar zimmasiga yuklash, ular mablag'ini ta'limga yo'naltirishni tashkil etishni amalga oshirish. Davlat tomonidan faqat byudjet sohalarida kadrlar tayyorlashni moliyalashtirishni saqlab qolish kerak.

Malakali kadrlar tayyorlashda uning sifat ko'rsatkichini oshirish, tayyorlanayotgan kadrlarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish, uning xalqaro mehnat bozori talablariga mos ravishda tayyorlash O'zbekistonda tayyorlanayotgan kadrlarning nufuzini yanada oshiradi. Buning uchun kadrlar tayyorlovchi professor-o'qituvchilar mehnatini rag'batlantirishni oxirgi natija, tayyorlangan kadrlarni ish bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichini ham hisobga olish zarur.

Ta'lim sohasidagi pedagog xodimlar mehnat haqini yanada takomillashtirish, bu sohada byudjetdan tashqari mablag'larni yo'naltirish asosida moddiy rag'batlantirishni yaxshilash lozim. Ta'limda chet el investitsiyalarini kirib kelishi yoki xususiy ta'lim sohasini asta-sekin joriy etish asosida ta'lim bozorida raqobatni kuchaytirish. Buning uchun zarur me'yoriy hujjatlarni, ta'lim standartlarini jahon amaliyoti va tajribalariga tayangan holda rivojlangan yuqori texnologiyalarni inobatga olgan holda amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Bizning fikrimizcha, oliy ta'lim tizimida moliyaviy nazoratni olib borishda har bir hududning ham iqtisodiy ham moliyaviy imkoniyatlari alohida tadqiq etilishi kerak. Bunda byudjet mablag'laridan samarali foydalanish jarayonini nazorat qilishda qonunchilik, normativ huquqiy xujjatlarga amal qilgan holda tashkil qilinishi kerak, ta'lim tizimida davlat moliya nazoratini o'tkazishning ilmiy asoslangan usullaridan foydalanish ijobiy samara beradi. Hozirgi zamonaviy ta'lim tizimini boshqarish oliy ta'lim muassasalari boshqaruviga moliya bo'limi xizmati, buxgalteriya sohasiga raqamli iqtisodiyot imkoniyatlarini muntazam joriy etish, ta'lim muassasalari uchun zarur bo'lgan maxsulotlarni xarid qilish va ulardan samarali foydalanishdagi hisob-

kitob tizimini shaffofligini ta'minlash zarurligini taqazo qiladi.

3.3-§. Xalqaro ta'lim reytingida nufuzli o'rinlarni egallash maqsadida oliy ta'lim xizmatlari sifatini oshirishning konseptual asoslari

Keyingi yillarda an'anaviy tarzda Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan oliy ta'lim muassasalari orasida ta'lim sifatini ko'tarish uchun OTM ni xalqaro reytinglarga kirishiga har tomonlama ko'maklashish uchun ularning Milliy reytingi e'lon qilib borilmoqda. Shuningdek, Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida ham 2026 yilga qadar 10 ta salohiyatli oliy ta'lim muassasasini QS va THE xalqaro reytinglariga kirishi uchun maqsadli tayyorlash ko'zda tutilgan. Unga ko'ra, oliy ta'lim muassasalarining salohiyati va o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, xalqaro reytinglarga kiritish bo'yicha 5 yilga mo'ljallangan maqsadli dasturlarni ishlab chiqish, bu asosda reytinglarga kirishini ta'minlash asosiy vazifa etib belgilangan.

Mazkur vazifaga asosan, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimida xalqaro standartlar asosida tizimli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Yana bir xususiyati talaba-yoshlarning ta'lim olishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishi bilan birga, davlat byudjetining 3/1 qismi aynan ta'limga yo'naltirilganidir. Natijada juda qisqa davrda yoshlarning oliy ta'lim bilan qamrov darajasi salmog'i 9 foizdan 39 foizga oshirildi. Biz uning natijasini oliy ta'lim xizmati sifati va raqobatbardoshligini oshirishga alohida e'tibor qaratish va ta'lim jarayonini xalqaro talablarga moslashtirish, oliy ta'lim raqobatbardoshligini oshirishda oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash tizimining rivojlanishini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq. Bu borada oliy ta'lim sifatini oshirish, ta'lim jarayonini xalqaro talablarga moslashtirish, o'quv ishlarini bozor ehtiyojidan kelib chiqib tashkil etish, oliy ta'lim muassasalari brendini shakllantirish, oliy ta'lim raqobatbardoshligini oshirish, oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash tizimining tarkibiy qismlari va uning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganish lozim.

Bu omillar orasida tegishli davlat idoralari hamda mas'ul vazirlik va idoralar tomonidan ushbu yo'nalishda bir qator ishlar amalga oshirilmoqda: oliy ta'lim muassasalarining kadrlar tayyorlash faoliyatini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi va ijrosi nazoratga olindi, ta'lim, fan, innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyatini doimiy monitoring qilib borish, ish beruvchilarning milliy so'rovnomasi joriy etildi.

Bundan tashqari Evropa oliy ta'lim sifati kafolati tarmog'i (ENQA), Xalqaro ilmiy nashriyot uyi (Elsevier) hamda nufuzli xalqaro reyting agentliklari (QS-Quacquarelli Symonds, THE-Times Higher Education) ekspertlari bilan bevosita hamkorlikda ishlar yo'lga qo'yildi. Natijada, oliy ta'lim muassasalari faoliyati samaradorligining asosiy ko'rsatkichlari tahliliga ko'ra: ilmiy salohiyat so'nggi besh yilda o'rtacha 6,1%ga oshdi: 2017 yil – 30,3%, 2018 yil – 34,0%, 2019 yil – 34,1%; 2020 yil – 34,5%; 2021 yil – 36,4%. Natijada oliy ta'lim, fan, innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyati jonlandi va oliy ta'lim muassasalarining ilmiy-tadqiqot faoliyatidan olgan daromadlari 2017 yildagi 49,7 mlrd. dan 2021 yilda 236,1 mlrd. so'mga yetdi yoki 5 barobarga oshdi.

“Mamlakatimizda oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayirlash jara'ini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiy tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi qabul qilindi. Mazkur konsepsiya O'zbekiston oliy ta'lim tizimida xalqaro standartlarni qo'llashda tub sifat o'zgarishlarini amalga oshirishga turtki bo'ldi. Respublikadagi kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Higher Education èki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1000 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kiritish; xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish; o'quv jara'ini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga

o‘tkazish; oliy ta’lim muassasalarining akademik mustaqilligini ta’minlash; oliy ta’limning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xorijiy ta’lim va ilm-fan texnologiyalarini jalb etish kabi muhim vazifalar belgilab olindi”¹¹⁵.

Oliy ta’lim muassasalari sifati va qamrovini oshirish bugungi kunda har bir davlat uchun o‘ziga xos ustuvor vazifa hisoblanadi. Ularni jahon standartlari darajasiga ko‘tarish hamda ularda olib borilayotgan tadqiqotlarning jamiyat hayotidagi muammolarni bartaraf etishdagi hamda inson hayotini engillashtirishga xizmat qilishi ko‘pchilik olimlarning fikricha, har bir oliy ta’lim muassasalarining oldiga qo‘ygan vazifasidir.

Oliy ta’lim muassasalarini reytinglash ularning mavjud kamchilik va yutuqlarini ko‘rib chiqqan holda, ularning milliy va xalqaro darajadagi o‘rnini aniqlashdir. Ularning reyting darajasi – ularning sifat ko‘rsatkichi sifatida ko‘rib chiqilishi oliy ta’lim muassasalari uchun kelajakda rivojlanish uchun o‘ziga xos turtki bo‘lishi mumkin.

Hozirgi kunda xalqaro va global darajada o‘tkazilayotgan reytinglash quyidagilardan kelib chiqadi¹¹⁶:

jahon universitetlarining akademik reytingi (Academic Ranking of World Universities, ARWU). U Shanxay Jia Tong universiteti ta’lim oliy maktabidagi jahon universitetlari markazi tomonidan amalga oshiriladi. U birinchi marta 2003 yilda amalga oshirilgan va yuqori o‘rinda turuvchi 500 oliy ta’lim institutlarini qamrab olgan;

tayms oliy ta’lim (Times Higher Education, THE) va Kuakuarelli Simonds (Quacquarelli Symonds) tomonidan o‘tkaziladigan jahon universitetlari reytingi. U birinchi marta 2004 yilda o‘tkazilgan va hozirgi kunda yuqori o‘rinlarda turuvchi 200 ta oliy ta’lim institutlarini qamrab oladi.

Reytinglash bir qator sabablar tufayli o‘tkazilishi mumkin:

- oliy ta’lim muassasalari holati haqida ommaga shaffof ma’lumot (reytinglash shakli xususiyatlariga qarab) etkazish, shuningdek, individlar va qaror qabul qiluvchi guruhlar (talabalar, ota-onalar,

¹¹⁵ E.Elmuurodov. O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida xalqaro standartlarni joriy qilishdagi mavjud muammolar va yechimlar. Academic Research in Educational Sciences Volume 4 | Issue 1 | 2023.-134 B.

¹¹⁶ <http://www.topuniversities.com/about-qs>

siyosatchilar, tashkilotlar, fondlar, tadqiqot kengashlari, ish beruvchilar, xalqaro tashkilotlar va boshqalar)ni ma'lumot bilan ta'minlash;

- oliy ta'lim muassasalari o'rtasida sog'lom raqobatni kuchaytirish;

- ma'lim bir oliy ta'lim institutlari yoki o'quv dasturi faoliyati haqida qo'shimcha ma'lumotlar bilan ta'minlash;

- yuksak tajriba markazlarining rivojlanishini rag'batlantirish;

- mablag'larni ajratishda qo'shimcha asoslarni shakllantirish.

Reytinglashni amalga oshirish uchun yig'iladigan to'rt xil turdagi ma'lumotlar bazasi va axborot manbai mavjud:

- turli xil institutlar, o'quv dasturlari yoki boshqa faoliyatlarning sifati va nufuzi haqida qiyosiy ma'lumotlarga ega bo'lish uchun turli manfaatdor tomonlardan fikrlar olish imkoniyatini beruvchi so'rovnoma (ilmiy ekspertlarga afzallik oshkora beriladi);

- oliy ta'lim va tadqiqotga jalb etilgan davlat organlari va boshqa turli xil tashkilotlar tomonidan to'plangan ommaga ega bo'lish imkoni mavjud ma'lumotlar bazasi va axborotlar;

- oliy ta'lim institutlari tomonidan yig'iladigan ikki xil turdagi ma'lumotlar bazasi va axborotlar – odatda institutlar tomonidan to'plangan boshqaruv va menejment haqidagi ma'lumotlar bazasi va reyting o'tkazish uchun o'tkazilgan so'rovnoma ma'lumotlar bazasi va axborotlar;


- bibliometrik va fanga oid ma'lumotlar bazasi, masalan, ko'p profilli va tadqiqot ishlarini baholashga yordam beruvchi Tomson Reyters va Elsevier kabilar¹¹⁷.

OTM faoliyatining ob'ektiv va nazariy xususiyatlariga ega bo'lgan sifat ko'rsatkichlari xalqaro standartlar talablariga mos keladigan sifat darajasini oshirishda zamonaviy o'qitishni tashkil etish jarayoni va talabalar bilimni baholash tizimini hisobga olgan holda ta'lim xizmatlari sifatini baholash mezonlari kontseptsiyasi tavsiya qilindi. Olib borilgan tadqiqotlar davomida oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash tizimining kontseptsiyasini quyidagicha guruhladik (3.4-rasmga qarang)¹¹⁸.

¹¹⁷ Thomson Reuters (ISI Web of Knowledge) and Elsevier (Scopus)

¹¹⁸ Muallif ishlanmasi

Mazkur konsepsiyaning asosiy maqsadi reytingi yuqori bo'lgan dunyo mamlakatlari ta'limi bosqichi darajasiga erishish hisoblandi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti o'z ma'ruzalarida sifatli ta'lim tizimini xorijiy standartlar asosida yurtimizda yo'lga qo'yish uchun doimo izlanishda va harakatda bo'lishimiz kerakligini ko'rsatib o'tgan. Darhaqiqat, biz dunyoga ochilmasak, zamon talablarini o'zlashtirmasak raqobatbardosh kadrlarni etkazib bera olmaymiz. Shu maqsadda bugungi kunda respublika OTMlarida qo'shma o'quv dasturlari doirasida ham amaliy ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalarida MDH va Evropaning qator nufuzli oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlikdagi double degree ta'lim dasturlari asosida o'qitish qamrovi kengaymoqda.



3.4-rasm. O'zbekistonda oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash tizimining kontsepsiyasi tasniflanishi

Oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash tizimining kontsepsiyasida OTMda zamonaviy o'qitishni tashkil etish jarayoni va talabalar bilimni baholash tizimini takomillashtirish, OTM bitiruvchilarining raqobatbardoshligini oshirish, OTMda professor-o'qituvchilar faoliyatini baholashning zamonaviy tizimini jahon standartlariga moslashtirish, OTMda sifatli ta'lim jarayoniga erishish uchun jamoatchilik nazoratini kuchaytirish asosiy vazifalar sifatida belgilangan. Buning natijasida esa, birinchi bosqich - Oliy ta'lim muassasining xalqaro ta'lim bozoridagi o'rnini belgilash uchun integratsiya darajasi, o'zaro ilmiy-texnikaviy almashinuv darajasi, tan olingan xaqaro reytinglardagi salmog'ini oshirish ikkinchi bosqich - raqobatbardosh kadrlar siyosatini olib borishda OTM jami professor-o'qituvchilari tarkibida ilmiy-pedagog xodimlar ulushi, IELTS va milliy sertifikatlarni qo'lga kiritgan professor-o'qituvchilar salmog'i va tan olingan QS BRICS bo'yicha akademik obro'sini oshirish chora-tadbirlarini takomillashtirish uchinchi bosqich – OTM larni zamonaviy o'quv, o'quv-uslubiy, ilmiy-metodik adabiyotlar, davriy jurnallar bilan ta'minlash, ARM markazlari fondlarini muntazam ravishda yangilab borish orqali axborot tizimlarini integratsiyalashga erishish va to'rtinchi bosqich -OTMlarda ta'lim sifatini oshirish va boshqaruv jarayonlarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida optimallashtirish ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash yonlarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida optimallashtirish yo'nalishlari ko'rsatilgan.

Demak, bizning fikrimizcha xalqaro ta'lim reytingida nufuzli o'rinlarni egallash maqsadida oliy ta'lim xizmatlari sifatini oshirishda faqatgina boshqaruv emas, balki o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot, xaqaro hamkorlik yo'nalishlari ham ochiqlik va shaffoflikni ta'minlaydigan xalqaro tajribalarga asoslangan raqamlashtirish chora-tadbirlarini kuchaytirish lozim. Mazkur mexanizmlar oliy ta'lim muassasasida ta'lim xizmati sifatini oshirish, talabalarni baholash va kredit to'plashini qayd etuvchi avtomatlashtirilgan internet platformalari va o'qituvchilarni tanlash tizimi, kreditlarni to'plash tizimi va shu kabi xorijiy standartlarga moslashib boradi.

Uchinchi bob bo'yicha xulosa

1. Ta'limni isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan raqobatbardosh kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash tizimining asosiy ko'rsatkichlarini kompleks tahlil etishning metodik echimlarini talab qilmoqda. Shu nuqtai nazardan muallif tomonidan ta'lim xizmatlari sifati, samaradorligini oshirishda mehnat bozori va kadrlar tayyorlash tizimining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishga ta'sir ko'rsatuvchi iqtisodiy dastaklar o'rganilgan. Oliy ta'lim xizmatlari sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlar – bu ta'limni boshqarish va tashkil etish elementlarini o'z ichiga oluvchi vositalarning o'zaro integratsiyalashgan tizimidir. Turli usullar va vositalarni qo'llash asosida ta'lim xizmatlarining ishlab chiqaruvchilari va uning iste'molchilari faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligini aniqlash uchun bir qator ko'rsatkichlarni tizimi ishlab chiqilgan. Bunda ilm-fan sohasi xodimlarini moddiy rag'batlantirishning yangi tizimi, raqobatbardosh milliy ta'lim tizimini yo'lga qo'yish, oliy ta'lim xizmatlari tizimi va mehnat bozori mutanosibligiga erishish va boshqa mexanizmlarning ustuvorlik kasb etishi ko'rsatib berilgan.

2. Zamonaviy mehnat bozorida bitiruvchilar raqobatbardoshligini oshirishni tartibga solish, ularda kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish, har bir hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, darajasidan kelib chiqqan holda, oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish yo'nalishlari takomillashtirilgan.

3. O'zbekistonda ta'lim tizimini boshqarishni modernizatsiyalash, boshqaruv modellarini takomillashtirish, mexanizmlar, usul va vositalarni jalb etish bilan birga moliyaviy-iqtisodiy kompetensiyalarga alohida e'tibor, rahbar xodimlarning kasbiy layoqatiga qo'yiladigan

standart va talablarni ishlab chiqish, ularni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan isloh qilish, ushbu standartlarda kasbiy (tashkiliy-boshqaruv), kommunikativ, axborot kommunikatsiya texnologiyalari va media savodxonlik, o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z ustida ishlash, mas’uliyat va moslashuvchanlik, inklyuziv ta’limni olib borishdagi asosiy samaradorlik ko‘rstakichlari takomillashtirildi. Tadqiqotlarga asoslanib oliy ta’lim tizimida xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishning moliya-iqtisod mexanizmlari samaradorligini ta’minlashga ta’sir ko‘rsatuvchi ichki va tashqi omillar guruhlanib oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash uchun moliyaviy resurslardan samarali foydalanish bo‘yicha muallifning ilmiy asoslangan tavsiyalari ilgari surilgan.

XULOSALAR

Oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash tizimining rivojlanishi tahlil etish natijalari bo'yicha quyidagi xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi:

1. Oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash tizimining o'rni ko'p jihatdan ta'lim sifati, iste'molchilarning bilimini baholash, kasbiy sifatlarini rivojlantirish munosabatlariga bog'liq. Odatda ta'lim sifatining mohiyati, ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, uning bosqichlari, tamoyillari mamlakatning innovatsion rivojlanish yo'liga o'tishi va ko'p jihatdan ta'lim tizimining zamonaviy holati va jamiyatning ilmiy-tadqiqot salohiyatiga ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

2. Ta'lim sifatini tadqiq qilish bo'yicha shu davrlargacha bo'lgan ko'plab ilmiy-tadqiqotchilik izlanishlarida ayrim mualliflar ta'lim sifatini quyidagi nuqtai-nazardan: ijtimoiy kategoriya sifatida, pedagogik jarayon ko'rsatkichlarining jamlamasi sifatida, ta'lim olish natijasida egallangan malaka va mahoratlarning shaxs manfaatlari hamda ehtiyojlariga mosligi nuqtai-nazaridan olib qarashni olg'a suradilar. Biz ta'lim sifati inson hayot-faoliyati sifatini oshirish hamda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, ma'naviy yuksalishi va aniq maqsadga erishishda foydalanish uchun zarur bo'ladigan, qo'llaniladigan, asos bo'ladigan aniq sharoitlarda talab etilib olingan bilimlar majmui ekanligi bo'yicha ilmiy-nazariy asoslari tizimlashtirilib, mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi.

3. Oliy ta'lim xizmatlari sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini iqtisodiy taraqqiyot istiqbollarini va jamiyat ehtiyojiga mosligini ta'minlaydi, hamda sohani amaliyotga moslashtiradi va investitsion jozibadorligini oshiradi. Xalqaro mehnat bozoriga bitiruvchilarni yo'naltirish hamda ta'lim mahsulotini yakuniy iste'molchisi sifatida milliy iqtisodiyot tarmoqlari bilan uning aloqasini kuchaytirish oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholashning eng muhim yo'nalishi bo'lishi maqsadga muvofiq. Tadqiqotlar davomida xorijiy tajribalar o'rganildi. Yevropada sifatni ta'minlash yoki sifat kafolati tarzida tarjima qilinishi mumkin bo'lgan «quality assurance» atamasi

ham ishlatiladi. Sifatni ta'minlash tizimi baholash bilan bog'liq bo'lgan bosqichlardan tashqari ularni joriy etish bosqichlarini takomillashtirishga doir izlanish va qaror qabul qilish bosqichlarini ham qamrab oladi. Xorijiy tajribalarga asosan, ta'lim berishning xalqaro tan olingan usul va vositalaridan unumli foydalanib sifatni ta'minlash tizimining eng muhim xususiyati uning davriyligi va takomillashib borishga moyilligi asoslab berildi.

4. Tadqiqot ishida Jizzax viloyatida 2030 yilga qadar Oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash tizimi rivojlanishiga asoslangan prognoz parametrlari ishlab chiqilgan. Qo'llangan yuqori adekvatlikka ega ekonometrik modellar va ularga tegishli amaliy dasturlar paketlari asosida tanlab olingan ob'ektda oliy ta'lim hajmi qisqa muddatli prognozi aniqlandi. 10000 aholiga nisbatan bitirgan mutaxassislar soni 2030 yilga borib, 37 kishi bo'lishi, yoki 2022 yilga nisbatan 43,3 foizga oshishi kutilmoqda. 2030 yilda oliy ta'lim tashkilotlari soni 6 ta, oliy ta'limdagi talabalar soni 52 ming 800 kishi, 10000 aholiga to'g'ri keladigan talabalar soni 355 kishi, oliy ta'limga qabul qilinadigan talabalar soni 16 ming 200 kishi, bakalavriatga qabul qilinadiganlar soni 14 ming 400 kishi, oliy ta'limni bitiradigan mutaxassislar soni 6 ming 100 kishi, bitirgan mutaxassislarning ishga joylashishi 92 foiz bo'lishi kutilmoqda.

5. Uzluksiz ta'lim tizimi, jumladan oliy ta'lim tizimini sifat jihatdan rivojlantirish borasida ta'lim sifatini yuksaltirish, kadrlar salohiyatini oshirish, OTM raqobatbardoshligini baholovchi integral ko'rsatkichlar va ta'lim xizmatlari sifatini baholash mezonlarini takomillashtirish va OTMning xalqaro darajada tan olinishini belgilovchi ko'rsatkichlar, jumladan, xalqaro doiradagi ilm-fan sohasida, ta'lim muassasining ilmiy-tadqiqot yo'nalishi, ta'lim faoliyatiga tegishli ko'rsatkichlarni yanada takomillashtirish lozim. SHuningdek, OTM xizmatlari sifatini baholash mezonlarni yaxlit tizim sifatida qo'llash natijalari: «Universitet 3.0» konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish, xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlari joriy etish bo'yicha tizimli ishlar olib borish bo'yicha tavsiyalar ilgari surildi.

6. Ta'lim tizimini boshqarishni modernizatsiyalash, boshqaruv

modellarini takomillashtirish, mexanizmlar, usul va vositalarni jalb etish bilan birga moliyaviy-iqtisodiy kompetensiyalar oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash uchun moliyaviy resurslardan samarali foydalanish kafolati hisoblandi. Shuni hisobga olgan holda OTMlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash uchun resurslardan unumli foydalanish jihatlarini asoslovchi oliy ta'lim tizimida xizmat ko'rsatish sifatini oshirishning moliya-iqtisod mexanizmi ishlab chiqildi.

7. Zamonaviy mehnat bozorida bitiruvchilar raqobatbardoshligini oshirishni tartibga solish, ularda kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish, har bir hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, darajasidan kelib chiqqan holda, oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish muhim sanaladi. Tadqiqotlarga asoslanib, OTM faoliyatining sifat ko'rsatkichlari xalqaro standartlar talablariga mos keladigan sifat darajasini oshirishda zamonaviy o'qitishni tashkil etish jarayoni va talabalar bilimini baholash tizimini inobatga olib ta'lim xizmatlari sifatini baholash mezonlari konsepsiyasi ishlab chiqildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: "O'zbekiston", 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Toshkent sh., 2020 yil 23 sentyabr, O'RQ-637-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5847-sonli Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldagi PF-5763-son «Oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida» Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvar, PF-60-son 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son).
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli Qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-iyuldagi "Fan va oliy ta'lim sohasi xodimlarining mehnat haqi miqdorini yanada oshirish, ilmiy va ilmiy-texnik faoliyat natijalari joriy etilishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3876-sonli Qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldagi «Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4391-son qarori
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 20 avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlariniqayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 242-sonli Qarori.
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 7 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalari reytingini aniqlash tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 467-sonli Qarori.

11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori.

12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019yil 24dekabrdagi “Ilm-fan va ta’lim sohasidagi davlat tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug‘ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo‘shimcha haq to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi 1030-son Qarori.

13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrdagi «Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 824-sonli Qarori.

14. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq.-T.: «O‘zbekiston» NMIU, 2016. – B. 13-14.

15. Mirziyoev Sh.M. «Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak». – T.: «O‘zbekiston», 2017. – 104 b.

16. Mirziyoev Sh.M. «Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va halq farovonligining garovi». – T.: «O‘zbekiston», 2017. – 48 b.

17. Mirziyoev Sh.M. «Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob halqimiz bilan birga quramiz». – T.: «O‘zbekiston», 2017. – 488 b.

18. Mirziyoev Sh.M. «Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz». – T.: «O‘zbekiston», 2017. - 592 b.

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy majlisga murojaatnomasi. // «Toshkent oqshomi» gazetasi, 2018 yil 29 dekabr, № 250 (13.847).

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining yigirma sakkiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. <http://uza.uz/oz/politics/prezident-shavkat-mirziyeevning-zbekiston-respublikasi-musta-31-08-2019>

21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 25.01.2020.

<https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>.

II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to'plamlar

22. Axunova G. O'zbekistonda ta'lim xizmatlari marketingi muammolari. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligi, Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti. – T.: Iqtisod-Moliya, 2005 y. – 244 b.

23. Фатхутдинов Р.А. Стратегический менеджмент: учебник [Текст] / Р.А.Фатхутдинов. – М.: Дело, 2008. – 448 с.

24. Белл, Д. Грядущее постиндустриальное общество. Опыт социал. прогнозирования [Текст] / Д. Белл; пер. с англ. под ред. В. Л. Иноземцева. – М.: Academia, 1999. - CLXX, - 783 с.;

25. Портер, М. Конкуренция: пер. с англ. [Текст] /М. Портер. – М.: Вилямс, 2005. – 608 с.;

26. Shodmonov Sh.Sh., G'ofurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: "Iqtisod-moliya", 2010, 220-bet.

27. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. Darslik. T.: "Mehnat" – 2009, 145-bet.

28. Вифлеемский А.Е. Экономика образования / А.Е. Вифлеемский. – М., 2003. – 342 с.

29. Головачев, А. С. Конкурентоспособность организации: учеб. пособие [Текст] /А.С. Головачев. – Минск: Выш. шк., 2012. – 319 с.

30. Захарова, Е.Н. Особенности формирования конкурентоспособности вуза как субъекта рынка образовательных услуг [Текст] / Е.Н. Захарова, О.Г.Гисина // Проблемы экономики и юридической практики. – 2013. – № 2. –С.185-188.

31. Мазилкина Е. И. Управление конкурентоспособностью: учеб. пособие [Текст] / Е. И. Мазилкина, Т. Г. Паничкина. – М. : Омега-Л, 2007. – 325 с.

32. Мокроносов, А. Г. Конкуренция и конкурентоспособность: учеб. пособие [Текст] / А. Г. Мокроносов, И. Н. Маврина. – Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2014. – 194 с.

33. Резник С.Д. Система и механизмы управления конкурентоспособностью высшего учебного заведения : монография [Текст] /С.Д. Резник. - Пенза.: ПГУАС, 2009. - 147 с.;

34. Головачев А.С. Конкурентоспособность организatsии: учеб. пособие [Текст] /А.С. Головачев. - Минск: Выш. шк., 2012. - 319 с.

35. Мерзликина Е.М., Введенская М.В. Повышение конкурентоспособности организации на основе инновационных

методов менеджмента: Монография /Е.М. Мерзликина, М.В. Введенская [Текст] – М.: МГУП, 2011. – 110с.

36. Лазарев В.А. Конкурентоспособность вуза как объект управления: монография [Текст] / В.А.Лазарев, С.И. Мохначев. – Екатеринбург: Приго-родные вести, 2003. – 160 с.;

37. Новак, Л.В. Моделирование механизма повышения конкурентоспособности в активных экономических системах: монография [Текст] /Л.В.Новак; Филиал ФГОУВПО «РГУТиС» в г. Самаре. – Самара: Самар. отдние Литфонда, 2009. – 184 с.

38. Маслов Д.В. Рынок образовательных услуг: методологические аспекты. Автореф. дисс. канд. экон. наук / Ярославл. 2002.

39. Подборнова, Е.С. Организационно-экономические направления развития конкурентоспособности промышленных предприятий: на примере автомобилестроения: дис. . канд.экон. наук [Текст] /Е.С. Подборнова [Место защиты: Самар. гос. эконом. ун-т]. - Самара, 2012. - 171 с.

40. Зотов Н.В. Совершенствование системы управления конкурентоспособностью предприятий стекловолоконной фурнитуры: автореф. дис. ... канд. экон. наук : 08.00.05 [Текст] / Н.А. Зотов. – СПб, 2007. – 18 с.;

41. Vaxabov A.V., RaxmonovN.R. Oliy ta'lim sifatini oshirishning xorij tajribasidan O'zbekiston oliy ta'lim tizimini isloh etishda foydalanish imkoniyatlari "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy jurnali. № 4, avgust, 2020 yil.

42. Захарова И.В. Маркетинговые в современном вузе: тенденции исследований // Высшее образование в России. 2018. Т.27. № 6. С. 20-30.

43. Buckley P.J., Clagg J., Forsans N., Reilly K. Increasing the size of the country: regional economic integration and foreign direct investment in a globalised world economy // Management international review. - 2001. - № 3. - P. 251;

44. Вернерфелт, Б. Ресурсная трактовка фирмы [Текст] / Б. Вернерфелт // Вестник СПбГУ. - 2006. - Сер. 8. - Вып. 1. - С. 103-118.;

45. Бондаренко Д.В Практические вопросы повышения конкурентоспособности ведущих российских университетов [Текст] / Д.В Бондаренко // Инновация в образовании. - 2017. -№4. - С. 12-20.

46. Захарова, Е.Н. Особенности формирования конкурентоспособности вуза как субъекта рынка образовательных услуг [Текст] / Е.Н. Захарова, О.Г. Гисина // Проблемы экономики и юридической практики. - 2013. - № 2. - С.185-188;
47. Корчагова Л.А. Оценка конкурентоспособности вуза [Текст] /Л.А. Корчагова // Маркетинг в России и за рубежом. - 2007. - № 5. - С.48-54;
48. Гумба Х.М. Концептуальные основы формирования устойчивых конкурентных преимуществ [Текст] / Х.М.Гумба, М.И.Мамаев // Известия Иркут. гос. экон. акад. (Байкальский государственный университет экономики и права). – 2014. – № 1. – С. 11.
49. Жариков В.Д. Теория как формирования и поддержания конкурентоспособности предприятия [Текст] / В.Д. Жариков, П.М. Трофимов // Вопросы современной науки и практики. Университет им. В.И. Вернадского. - 2014. - №1 (50). - С. 171-175.
50. Saloxitdinov Sh.F. O‘zbekistonda mehnat bozori va uning amal qilish xususiyatlari // «Mutafakkir» jurnali 2022 yil № 8. 3-11 b.
51. Saloxitdinov Sh.F. Oliy ta’lim xizmatlari sifatini baholash tizimi rivojlanishining nazariy yodashuvlari // «Iqtisodiyot va ta’lim» jurnali 2023yil № 3 405-409 b.
52. Saloxitdinov Sh.F. Oliy ta’lim xizmatlari sifatini baholashga uslubiy yondashuvlar // “Moliya” jurnali 2023 yil № 6. 159-164 b.
53. Saloxitdinov Sh.F. Mamlakatimizda xizmatlar sohasining rivojlanishi va tarkibiy o‘zgarishlari tahlili // “Central asian journal of education and innovation” jurnalining 2023yil № 2. 93-97 b.
54. Saloxitdinov Sh.F. Jizzax viloyati bo‘yicha oily ta’lim xizmatlari sifatini baholash tizimining rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar tahlili // “Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil” ilmiy eliktron jurnalining 2024 yil № 1. 466-473 b.
55. Saloxitdinov Sh.F. Factors influencing the competitiveness and quality of higher education institutions // “Journal of Contemporary World Studies” jurnalining 2024 yil № 1. 21-25 b.
56. Saloxitdinov Sh.F. Олий талим муассасаларида талим хизматлари сифатини баҳолаш // «Экономика и социум» jurnalining 2024 yil № 1. 42-46 b.
57. Saloxitdinov Sh.F, Fayzullayeva S.F. Inqiroz Sharoitida Mehnat bozori va uning o‘ziga xos xususiyatlari // O‘zbekiston Respublikasi Bank moliya akademiyasi. Eliktron ilmiy jurnali. “Pandemiya va iqtisodiyot”. 2020 yil maxsus soni. 293-298 b.

58. Saloxitdinov Sh.F Oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash tizimining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, mazmuni va nazariy yondashuvlar // "Texnika va raqamli texnologiyalarning amaliyotda qo'llanilishi va ularning innovatsion yechimlar" 4-5 may 2023-yil. 310-312 bet.

59. Saloxitdinov Sh.F, Bobanazarova J. Inson kapitalini rivojlantirish-milliy iqtisodiyot barqarorligi omili // O'zbekiston milliy universitetining 105 yilligiga bag'ishlangan. "Inson kapitalini rivojlantirish milliy iqtisodiyot barqarorligi omili". Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani (3 may 2023 yil). 303-306 bet.

60. Saloxitdinov Sh.F. Bobanazarova J. Oliy talim tizimida boshqarish samaradorligining o'ziga xos xususiyatlari // Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti ta'lim menejmenti kafedrası. Yangilanayotgan o'zbekiston taraqqiyotida iqtisodiy fanlarni o'qitishning dolzarb masalalari respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi 16-iyun, 2023- yil. 51-53 bet.

61. Saloxitdinov Sh.F. Mehnat bozori uchun raqobatbardosh kadrlar tayyorlash borasidagi xalqaro tajribalar // "Yangi o'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va tashkiliy boshqaruvini takomillashtirish muammolari" mavzusidagi Respublika ilmiy – texnik anjuman materiallari to'plami (2023-yil 25-oktabr) 151-157 betlar.

62. Saloxitdinov Sh. F. Ta'lim xizmatlarida marketing boshqaruvi // «Экономика и социум» jurnali 2024 yil № 2. 42-46 b.

63. Saloxitdinov Sh.F Xududlarda oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash mezonlari va ko'rsatgichlari // Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti «Hududiy rivojlanish: tendensiyalar, xatarlar va strategiyalar» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2024 yil 10 fevral 228-233 b.

III. Foydalanilgan boshqa adabiyotlar

64. <https://lex.uz/docs/4545884>
65. www.gov.uz
66. www.lex.uz
67. www.mineconomy.uz
68. www.stat.uz
69. www.ziyouz.com
70. www.epp.eurostat.ec
71. <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyevning-oliy-25-01-2020>

72. https://research.sfu-kras.ru/sites/research.sfu-kras.ru/files/Dissertaciya_Voloshin.pdf
73. <https://cyberleninka.ru/article/n/metodika-otsenki-konkurentosposobnosti-vuza-na-oligopolisticheskom-rynke-uslug>
74. http://pankrukhin.ru/wordpress/wp-content/uploads/2014/12/Marketing_obrazovatelnyeh_uslug.pdf
75. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qumitasi. «O‘zbekiston raqamlarda» statistik to‘plam. – Toshkent, 2009-2021.

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. IQTISODIYOTNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA OLIY TA'LIM XIZMATLARI SIFATINI BAHOLASH TIZIMI RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI.....	7
1.1-§. Oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash tizimining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, mazmuni va nazariy yondashuvlar	7
1.2-§. Oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari.	18
1.3-§. Xorijiy mamlakatlarda ta'lim xizmatlarini baholashning zamonaviy tajribalari	29
Birinchi bob bo'yicha xulosa.....	39
II BOB. OLIY TA'LIM XIZMATLARI SIFATINI BAHOLASH TIZIMIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI OMILLAR VA ULARNING TAHLILI.....	41
2.1-§. Oliy ta'lim xizmatlari raqobatbardoshlik darajasi tahlili va ta'lim xizmatlari sifati darajasini baholashga uslubiy yondashuvlar.....	41
2.2-§. Oliy ta'lim xizmatlarining istiqbol maqsadlari va samarali rivojlantirishning prognoz parametrlari modellashtirish	51
2.3-§. Mehnat bozoriga oliy ta'lim muassasalari tomonidan bitiruvchilarni tayyorlashni tartibga solishning institutsional asoslari.....	68
Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.....	87
III BOB. OLIY TA'LIM XIZMATLARI SIFATINI BAHOLASH TIZIMINING RIVOJLANISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	89
3.1-§. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim xizmatlari sifatining asosiy omillarini baholash	89
3.2-§. Oliy ta'lim tizimida xizmat ko'rsatish sifatini oshirishning moliya-iqtisod mexanizmlari samaradorligini takomillashtirish	98
3.3-§. Xalqaro ta'lim reytingida nufuzli o'rinlarni egallash maqsadida oliy ta'lim xizmatlari sifatini oshirishning konseptual asoslari.....	108
Uchinchi bob bo'yicha xulosa.....	115
XULOSA VA TAVSIYANOMALAR.....	117
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	120

SALOXITDINOV SHERZOD FARXODOVICH

**OLIY TA'LIM XIZMATLARI SIFATINI BAHOLASHNING
ZAMONAVIY KONSEPSIYALARI VA INNOVATSION
MEXANIZMLARI: MILLIY VA XALQARO TAJRIBANI
TAQQOSLAMALI TAHLIL QILISH ASOSIDA
TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI**

Monografiya

Muharrir: M.Soy

Musahhah: M.Ismoilova

Kompyuterda sahifalovchi: D.Kamolov

“D-PRESS SERVICES” nashriyoti
Jizzax-2026

Chop etishga ruxsat etildi: 2026-yil 30-yanvar. Bichimi: 60x84
1/16.

“Times New Roman” garnitura. Ofset bosma.
Shartli bosma tabog'i 8. Adadi:50. Buyurtma № 24/26.

Nashrlarga kitobning ISBN xalqaro standart tartib raqamini berish
ma'lumotnomasi:



Pin kod: 1132